

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

"O`ZBEK ADABIYOTI"

fanidan

5141400 - Xorijiy tillar va adabiyoti
(Ingliz tili va adabiyoti) bakalavr ta'lim yo'nalishi uchun

MA'RUZALAR MATNI

Nukus-2011 yil

1-mavzu: KIRISH. O‘ZBEK ADABIYOTI FAN SIFATIDA. UNING METODOLOGIK ASOSLARI

Reja:

“Adabiyot tarixi” tushunchasi va uning xalqimiz tarixidagi o‘rni.

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixini davrlashtirish tamoyillari.

Xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyot.

Mavzuga oid tayanch so‘z va tushunchalar: xalq tarixi, xalq og‘zaki ijodi, adabiyot tarixi, adabiy aloqalar, badiiy adabiyot, tarjima adabiyoti, mumtoz adabiyot, adabiyotni davrlashtirish, nazm, nasr, epos, o‘zbek adabiyoti bosqichlari, davrlashtirish, B.To‘xliyev, N.Mallayev, folklore, an‘anaviylik, variantlilik, badihaguylik, anonimlik

“Adabiyot tarixi” tushunchasi va uning xalqimiz tarixidagi o‘rni.

O‘zbek xalqi boy adabiy yodgorliklarga ega. O‘tmishda yaratilgan mo‘tabar og‘zaki va yozma adabiyotimiz namunalarini chuqur o‘rganish va bilish har bir o‘quvchining, shu yurtda yashayotgan kishilarning ulug‘ burchidir. Bugungi kunda, yurtimiz ozodlikka, xalqimiz istiqloqlga erishgandan so‘ng, o‘tmish merosimizga e‘tibor yanada kuchaydi. *Prezidentimiz I.A.Karimov* o‘zlarining qator suhbatlari, nutq va kitoblarida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan merosni o‘rganishning ahamiyatini qayta-qayta ta‘kidlamoqdalar. Zero, xalqimiz mustaqillikka erishgandan so‘nggina bizga noma‘lum ko‘pgina ulug‘ shoirларimiz, olimlarimiz, muhaddislarimiz haqida ma‘lumotga ega bo‘ldik. Asarlarini o‘rgana boshladik.

O‘zbek adabiyoti qadimiy tarixga ega. *Adabiyot* – jamiyat hayotining o‘ziga xos ifodasi. U jamiyat tarixidagi jiddiy o‘zgarishlarni xilma-xil obrazlar vositasida turli badiiy shakllarda aks ettiradi. Adabiyot, avvalo, so‘z va ruhiyat san‘atidir. U inson ruhiyatidagi nihoyatda nozik tovlanish va ohanglarni ilg‘ashga, ularni aks ettirishga intiladi. Dunyoda insonlar bir-birlariga o‘xshamaganlariday, ularning qalb kechinmalari ham takrorlanmasdir. Badiiy adabiyot bilan adabiyot tarixi shug‘ullanadi.

O‘zbek adabiyoti tarixi nozik ruhiy holatlarni mahorat bilan aks ettiradigan durdonalarga boydir. Ular hozirgi avlod ruhiyatida, qalbida ham hayajon uyg‘ota oladi, ularning ma‘naviy boyishlariga tegishli hissa qo‘sha oladi. Ular ma‘naviy kamolotga xizmat qiladi.

Adabiyot tarixi fani badiiy adabiyotning tarixiy taraqqiyot jarayonini o‘rganadi va o‘rgatadi. Har bir xalqning o‘z tarixi, madaniyati, san‘ati va adabiyoti bor. Shunga ko‘ra, adabiyot tarixi ma‘lum bir xalqning, shu adabiyotni yaratgan xalqning nomi bilan ataladi.

O‘zbek xalqi ma‘naviy madaniyatining katta va ajralmas bir qismi o‘zbek adabiyotidir.

O‘zbek adabiyoti tarixi o‘zbek xalqining qadim zamonlaridan boshlab hozirgi kunga qadar yaratgan badiiy adabiyotini o‘z ichiga oladi. Adabiyotshunoslikda o‘zbek adabiyoti tarixi ikki nom asosida tilga olinadi:

1. O‘zbek mumtoz adabiyoti. Bunda eng qadimgi davrlardan boshlab, XX asr boshlarigacha bo‘lgan davr nazarga olinadi.

2. Hozirgi zamon o‘zbek adabiyoti yoki XX-XXI asrlar o‘zbek adabiyoti.

O‘zbek adabiyoti tarixi xilma-xil tur va janrdagi badiiy asarlarni o‘z ichiga oladi. Lirik va epos o‘tmish o‘zbek adabiyotining asosiy turlaridir. G‘azal, muxammas, musaddas, noma, ruboiy, doston, hikoyat va boshqalar keng tarqalgan adabiy janrlardir. O‘zbek adabiyoti tarixi xilma-xil adabiy tur va janrlarning shakllanishi va rivojlanishi tarixi hamdir.

O‘tmish o‘zbek adabiyoti bir qator *memuar va tarixiy asarlarni* ham o‘z ichiga oladi. «Boburnoma», «Shajarai turk», «Shajarai tarokima», «Firdavs ul-iqbol» va boshqalar shular jumlasidandir.

O‘zbekiston *mustaqillikka erishgandan so‘ng*, o‘tmish adabiyotimizga e‘tibor kuchaygani bois Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Imom Fazzoliy, Bahouddin Naqshband, So‘fi Olloyor, Haziniy, Husayniy, Amiriy, Feruz kabilarning nomlari xalqqa keng ma‘lum qilindi. Asarlari chop etildi. Buyuk hurmat va ehtirom ko‘rsatildi.

O'zbek mumtoz adabiyoti tarixini davrlashtirish tamoyillari.

Adabiyot tarixi xalq tarixining ajralmas bir qismidir. Badiiy adabiyot taraqqiyoti jamiyatning umumiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. Adabiyotni davrlashtirish asosida o'rganish maqsadga muvofiq ko'riladi. Adabiyotshunosligimizda adabiyotni davrlashtirish muammolidir. *Adabiyotni davrlashtirishga* nima asos qilib olinadi? Mana bu savolga aniq javob berish qiyin. Ayrim mutaxassislar adabiyot tarixi bosqichlarini podsholarning, sulolalarning hukmdorlik davri bilan, boshqalari esa yirik tarixiy voqealar bilan bog'lashadi. Ba'zi olimlarimiz prof. N.Mallaev o'zbek adabiyoti tarixini, bir tomondan, jamiyatning umumiy taraqqiyot qonunlari, o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy hayotdagi taraqqiyoti, ikkinchi tomondan, adabiyot tarixi taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini: badiiy adabiyotning ijtimoiy mohiyati, vazifasining o'sib borishi, adabiy tur va janrlarning shakllanishi, taraqqiy etishi hamda so'z san'atining boshqa jihatlarini takomiliga xos xususiyatlarni ko'zda tutib bosqichlarga ajratish kerakligini ko'rsatib o'tishgan.

Prof. B.To'xliiev adabiyot tarixini quyidagicha davrlashtirishni tavsiya etadi:

1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar «Avesto», «Alpomish» va b.
2. Ilk o'rta asrlar adabiyoti «Kultegin» bitiklari va b.
3. O'rta asrlar adabiyoti IX-XVI asrlar:
4. Temuriylar davri adabiyoti.
5. A.Navoiy va uning davri adabiyoti.
6. XVII-XIX asrlar adabiyoti.
7. XX asr adabiyoti.

(B.To'xliiev. O'zbek adabiyoti. Darslik. 9-sinf. T., 2000 y. 13 bet.)

Professor N.Mallaevning oliy o'quv yurti talabalari uchun chiqargan darsligida quyidagi bosqichlar berilgan:

1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklar.
2. X-XI asrlar adabiyoti.
3. XI asrdagi va XIV asr boshlaridagi adabiyot.
4. XIV asr o'rtalaridan XVII asrgacha bo'lgan adabiyot.
5. XVII asrdan XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan adabiyot.
6. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi adabiyot.

Eng qadimgi adabiy yodgorliklar Markaziy Osiyo hududida qadimdan yashagan o'zbek, tojik, turkman va boshqa xalqlarning adabiy yodgorliklaridir. Keyingi taraqqiyot bosqichlaridagi adabiyot esa bevosita o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan adabiyotdir.

Xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot.

"Folklor" inglizcha so'z bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi quyidagicha: folk – xalq, lore – donishmandlik. Go'zallik qonunlari asosida xalq tomonidan yaratilgan har qanday ijod mahsuli tushunilishi -terminning keng ma'nosidir. Bunda xalq san'ati, amaliy san'at, musiqa san'ati, raqs san'ati, kashtachilik kabi go'zallik qonunlari asosida yaratilgan barcha ijod mahsuli tushuniladi. Atamaning tor ma'nosida esa faqat xalq og'zaki poetik ijodi, ya'ni xalq tomonidan yaratilgan og'zaki badiiy so'z san'ati tushuniladi.

Xalq og'zaki ijodi ham, ma'lumki, adabiyot, og'zaki adabiyot, ya'ni so'z san'ati. Uning adabiyotning boshqa ko'rinishi – yozma adabiyot bilan umumiy bo'lgan tomonlarini ham yodda tutmoq lozim. Mana shu jihatdan qaraganda ular orasida quyidagi umumiylikni kuzatish mumkin:

Har ikkisida ham so'z san'ati, tasvir vositasi so'zdir;

Har ikkisida ham hayot va undagi voqea-hodisalar tasvirlanadi;

Voqealar ma'lum bir estetik prinsiplarga asoslangan holda tasvirlanadi;

Hayot va uning lavhalari badiiy obrazlar orqali tasvirlanadi;

Obraz va obrazlilik umumiyligi mavjud;

Tasvir vositalari umumiyligi mavjud;

Adabiy tur umumiyligi mavjud;

Vazifa mushtaraqligi mavjud: ta'limiy, tarbiyaviy, estetik vazifalar umumiydir;

Ayni bir paytda folklorning o`ziga xos tomonlari ham bor bo`lib, bu belgilar quyidagilardan iboratdir:

1. Og`zakilik. Folklor og`zaki ijoddir. Bu uning yetakchi belgisi sanaladi. Xuddi shu og`zakilik folklor namunalari keng tarqalishi va ommalashuvida muhim faktor sifatida xizmat qiladi. Folklor namunalari paydo bo`lish nuqtai nazaridan qaraganda ham og`zakidir, u og`zaki vujudga keladi, badiiy sayqal topishi, qayta-qayta qo`lanishi ham og`zaki kechadi: og`izdan og`izga o`tib borish jarayonida har bir ijod namunasi tobora badiiylashadi, polsemantik ma'no kasb eta boradi. Bu esa badiiy so`z san'atining asosiy xususiyatlaridan sanaladi.

2. Folklorning yana bir o`ziga xos belgisi uning kollektiv ijod mahsuli ekanligidir.

3. Folklorning navbatdagi o`ziga xos belgisi uning an'anaviylikda ko`rinadi. An'anaviylik tufayli badiiy ijod namunalari matnida nisbatan barqaror ifoda yo`llari qat`iylashadi. Bu narsa tasvirning poetik vositalarida ham doimiylik kasb etadi.

4. Variantlilik – folklorning o`ziga xos belgilaridan biridir. Turli urug`- qabilalar o`zlarining dunyoqarashi, yashash va fikrlash tarzi, hamda ruhiy dunyosi bilan o`zaro farqlanadi. Mana shu farqlar turli variantlar kelib chiqishga olib keladi.

5. O`zgaruvchanlik folklorga xos boshqa belgilarning, xususan, og`zakilik, kollektivlik, badihago`ylik kabi xususiyatlarning mahsuli sifatida vujudga keladi. Shuningdek, bunda jamiyat rivojining ham o`rni bor.

6. Anonimlik folklorning o`ziga xos belgilaridan biridir.

Xullas, 1846 yili ingliz folklorshunosi tomonidan fanga atama sifatida olib kiritilgan "folklor" so`zi lug`aviy jihatdan xalq va donishmandlik ma'nolarini anglatib, fanda xalq tomonidan yaratilgan san'at asarlarini ifodalaydi. Bu haqdagi ilm esa folklorshunoslik deb yuritiladi. Yozma adabiyot bilan umumiy tomonlari mavjud bo`lganidek, o`ziga xos xususiyatlari ham mavjuddir. O`zbek adabiyoti tarixi «Tohir va Zuhra», «Bo`z o`g`lon», «Yusuf Ahmad» kabi xalq kitoblarini ham o`z ichiga oladi. Bular folkloristikaning ham, adabiyot tarixining ham predmetidir. Tarjima adabiyoti ham o`zbek adabiyoti tarixining muhim bir qismini tashkil etadi. O`zbek xalqi asrlar davomida ko`pgina xalqlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqada bo`lib keldi. Shu aloqalarning mevasi sifatida tarjima adabiyot vujudga keldi. O`zbek tiliga tojik, ozarbayjon, Eron, hind, arab, rus va boshqa xalqlarning ko`p badiiy asarlari va tarix kitoblari tarjima qilindi. Nizomiyning «Xisrav va Shirin», «Haft paykar», Sa`diyning «Bo`ston», «Guliston», Jomiyning «Bahoriston», «Yusuf va Zulayho», Hiloliyning «Shoh va Gado», shuningdek, «Kalila va Dimna», «Ming bir kecha», «Ravzatus safo», «Badoyi-ul-vaqoe» va boshqalar shular jumlasidandir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

Badiiy adabiyotning xalq hayoti bilan bog`liqligini qanday tushunasiz?

Badiiy adabiyotning o`ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo`ladi?

O`zbek mumtoz adabiyoti nima, uning tarkibiy qismlari deganda nimani tushunasiz?

O`zbek mumtoz adabiyoti qaysi fanlar bilan bog`liq?

Adabiyotni davrlashtirish nimaga asoslanadi?

Folklor nima?

Folklor va yozma adabiyotning umumiy tomonlari nimalarda ko`rinadi?

Og`zakilik deganda nimani tushuniladi?

Adabiyotlar:

1. O`zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. Sh jild. - T.: Fan, 1978.

2. Asrlar nidosi. - T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982.

3. Fitrat. O`zbek adabiyoti namunalari. - T.: 1928.

4. Qayumov A. Qo`qon adabiy muhiti. - T.: 1961.

5. X.Razzoqov, T.Mirzaev, O.Sobirov, K.Imomov. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. Toshkent, 1980.

6. T.Mirzaev va boshqalar. O`zbek xalq, og`zaki poetik ijodi. Toshkent, 1990.

2-MAVZU: ENG QADIMGI ADABIY YODGORLIKLAR

Reja:

Eng qadimgi adabiy yodgorliklar

“Avesto” – muqaddas kitob.

O‘rxun-Enasoy yodgorliklari.

Mif va afsonalar. “To‘maris” va “Shiroq” rivoyatlari.

Mavzuga oid tayanch so‘z va tushunchalar: Og‘zaki va yozma adabiyot, Zardusht, Avesto, Avestoning yurti Yasht, mif, afsona, Mitra, Anaxita, Bexustun, Bundaxishn, Dinkard, Kayumars, Jamshid, Siyovush, “Amorg va Sparetra”, “Zariadr va Odatida”, “Striangey va Zarineya”, To‘maris, Shiroq, Alp Er Tunga.

Eng qadimgi adabiy yodgorliklar.

Biz o‘zbek mumtoz adabiyotini davrlar asosida o‘rganilishini ta‘kidlab, uning davrlarini ko‘rsatgan edik. Shu asosda birinchi bosqich «Eng qadimgi adabiy yodgorliklar» deb nomlangan edi.

O‘zbek xalqi boy adabiy merosga ega. Bu madaniy yodgorliklarni yaratgan ota-bobolarimiz, ularning yashagan joylari, urf-odatlar, tili va boshqalar har birimizni qiziqtiradi. Qadimgi madaniyat rang-barang shaklda bizgacha yetib kelgan. Og‘zaki va yozma adabiyot, tasviriy san‘at, me‘morlik, ilm-fan va boshqalarda namoyon bo‘ladi bu yodgorliklar. Qadimgi Turonning tarixi va madaniyati haqida grek, xitoy, hind, arman va boshqa tarixchilarning kitoblarida *Avesto*, *Bexustun*, *Bundaxishn*, *O‘rxun-Enasoy* yodgorliklari kabi turli manbalarda, Beruniy, Narshaxiy va boshqa olimlar hamda tarixchilarning asarlarida ma‘lumotlar saqlanib qolgan. Olimlarimiz, ayniqsa, qadimshunoslarimiz Markaziy Osiyoning qadimgi moddiy va ma‘naviy madaniyati yodgorliklarini izlab topdilar va topmoqdalar. S.Tolstov rahbarligidagi Xorazm, Ya.Fulomov va V.Shishkin rahbarligidagi Varaxsha, M.Masson rahbarligidagi Termiz va Janubiy Turkmaniston va boshqa ekspeditsiyalar bu jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo kishilik madaniyati tarixining eng qadimgi beshiklaridan biridir. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o‘rtalaridagi Markaziy Osiyoning hududi Baqtriya, Xorazm, So‘g‘diyona, Marg‘iyona, Parfiya, Amudaryoning quyi oqimi, Zarafshon vohalari, Farg‘ona va boshqa joylarni o‘z ichiga olgan. Bu joylarda massagetlar, Xorazmiylar, so‘g‘dlar, Parfiyanlar va boshqalar yashar edilar. Mana shu qabilalar hozirgi Markaziy Osiyo xalqlarining ota-bobolaridir.

Qadimgi Markaziy Osiyoda turli kult va dinlar mavjud edi. **Tabiat hodisalariga nisbatan dualistik qarash, ularni yaxshi va yomon, do‘st va dushman kuchlariga ajratish zaminida Mitra quyosh xudosi, Anaxita yer-suv ma‘budasi va boshqa kultlar paydo bo‘ldi.** Bu kultlar eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda vujudga kelgan zardushtiylik diniga qo‘shilib ketadi. Qadimgi Markaziy Osiyoda qisman bo‘lsa-da, Ellin Xudolari – Zevs, Afina, Poseydon, Apollon va boshqalar kulti, budda dini, moniy dini, yahudiy dini, nasroniylik va boshqalar tarqalgan edi. Arab xalifalari istilosidan keyin islom dini asosiy din bo‘lib qoldi.

Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Markaziy Osiyo aholisining ko‘pchiligi Eron tillari guruhiga kiruvchi shevalarda gaplashgan. Keyinroq turkiy tillar guruhi ham kengroq tarqala boshlaydi. Markaziy Osiyo xalqlari yozuvining tarixi qadim zamonlardan boshlanadi. **Eramizdan oldingi birinchi ming yillik o‘rtalarida Eron, Markaziy Osiyo va boshqa o‘lkalarda oromiy yozuvi keng tarqala boshlaydi.** Aleksandr Makedonskiy istilosidan keyin esa Markaziy Osiyoga grek yozuvi kirib keladi. Oromiy yozuvi negizida Avesto, Xorazm, so‘g‘d, kushan, run Urxun-Enasoy, uyg‘ur va boshqa yozuvlar vujudga kela boshlaydi. Asosan xorazm va so‘g‘d yozuvlari qo‘llanilgan. Urxun-Enasoy yoki «Turkiy run» deb nomlangan yozuv eramizning birinchi asrlarida vujudga keldi. U bilan oldinma-keyin uyg‘ur yozuvi ham paydo bo‘ldi.

2. “Avesto” – muqaddas kitob.

Avesto» Turon-u Eron xalqlarining mushtarak yodgorligidir. Zardushtiylik islomga qadar O`rta Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan. (Unga oid nazariy ma`lumotlar «Avesto» kitobining so`nggida T.Mahmudov tomonidan yozilgan «Avesto haqida» maqolasida keltirilgan: T.Mahmudov. «Avesto» haqida. Avesto. T., 2001).

Ovropada Zardusht ta`limotining «Zoroastr» - «Zoroastrizm» shaklida yoyilib ketishiga sabab bu ism yunon tilidagi «stron» (yulduz) so`ziga o`xshashligidir. Qadimgi rivoyat hamda manbalarda Zardusht donishmand - astrolog sifatida qayd etilib, uning ta`limoti G`arbgga tomon tarqalgach, «Zoroastrizm» tarzida zikr etila boshlagan.

«Avesto»ning yurti haqida turlicha fikrlar bildirilgan. Ba`zi olimlar zardushtiylikning vatani Parfiya (Turkmaniston), yana boshqalari Midiya, Sharqiy Eron, Baqtriya desalar, Struve, Trever, Rapoport, Oldenburg, Proxorov, Meri Boys, Dyakonov, Bartold, Lukonin, Avdiev singari olimlar Turonzaminda (Xorazm, Baqtriya, So`g`diyona, Farg`ona) paydo bo`lib, so`ngra Eron va boshqa mamlakatlarga tarqalgan degan fikrni bildiradilar.

Zardushtiylik bo`yicha 4 tomlik asar muallifi Meri Boys (ingliz) ham otashparastlar dinining muqaddas kitobi «Avesto» qadimgi Xorazm vohasida paydo bo`lganini qayd etadi. Bu faraz B. G`ofurov, N.Mallaev, H.Homidov, A.Qayumov, Y.Jumaboev, M.Is`hoqov, A.Saidov, F.Sulaymonova kabilarning tadqiqotlarida ham o`z ifodasini topgan.

«Avesto» ning hozirgi ma`lum bo`lgan nusxalarini olimlar 21 nasx - kitob (qism) dan iborat demoqdalar. Ulardan 7 kitob xudolar, koinotning paydo bo`lishi va insoniyat tarixiga doir; keyingi 7 kitob ibodat masalalari, din dasturlari, xalqning yashash tarzini ifoda etadi; oxirgi 7 kitobda tibbiyot, astronomiyaga doir ma`lumotlar jamlangan.

Zardushtiylik dini va ta`limotidagi «Ezgu fikr», «Ezgu kalom», «Ezgu amal» birligi ularning falsafiy-axloqiy, umumiy dunyoqarashini ham belgilaydi.

«Avesto»ning hozirgi bizga ma`lum bo`lgan eng qadimgi nusxasi 1324-yilda ko`chirilgan bo`lib, Kopengagen shahrida saqlanadi. 1996-yilda Eronda chop etilgan ikki jildli «Avesto» ham mukammal nusxa hisoblanadi. «Avesto»ning to`rttdan bir qismi - 83000 ming so`zdan iborat alohida-alohida boblari, parchalari saqlanib qolgan.

«Avesto» - mazdaparastlar diniga mansub barcha adabiyotlarning umumiy nomi. «Avesto» so`zi qadimiy mazdaparastlarning o`zagiga mansub bo`lib, «Avesto» artikuli va «vista» fe`lidan iborat. «Vista» so`zining o`zagi «vid», «vand» bo`lib, ma`nosi «tanimoq», «bilmoq», «topilmoq», «ko`rinmoq» kabidir.

«Avesto» ni «Ogohnoma», «Donishnoma» ma`nosida tushunish mumkin.

Hozirgi ma`lumotlarga ko`ra, «Avesto» Yasna, Yasht, Visparad, Vandidod, Kichik Avesto qismlaridan iborat. Y.Bertels, I.Braginskiy, N.Mallaevlar «Avesto»ning bu qismlarini quyidagicha izohlaydilar:

Yasna - hamdu sano, munojot va qurbonlik duolaridan tashkil topgan 72 bobli to`plam. Uning 17 bobi gotlar-gimnlar deb ataladi. Ular «Avesto»ning eng qadimgi boblari hisoblanadi. Gotlarning asosiy g`oyasi «ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amal»larning birligini madh etishdan iborat.

Yashtlar - zardushtiylikning alohida xudolarini madh etuvchi qo`shiq-oyatlardir. Ularda qadimiy rivoyatlar ko`plab uchraydi. Bu rivoyatlarning ayrimlari Firdavsiyning «Shohnoma» sida o`z ifodasini topgan. Yashtlarning aksariyati she`riy shaklda bitilgan;

Visparad - yasnalarga qo`shimcha tarzda yozilgan, 24 bobdan iborat ibodatga doir qo`shiqlardir; «Vandidod» - «Viyaivadota» so`zining o`zgargan shakli bo`lib, devlarga qarshi qonun ma`nosini anglatadi. U yomonlik, jaholat va razolat timsollari devlarga qarshi kurash qonunnomasi hisoblangan. Unda ibodat qilish tartibi, buni buzganlarni jazolash qonun- qoidalari ham aks etgan. «Vandidod» 22 bobdan tashkil topgan. «Vandidod»da, shuningdek, o`likni yerga ko`mib, uni harom qilgan yoki yolg`on va`da bergan odamni jazolash, tabiblar xususida, o`liklarni qo`yadigan dahmalar qurish, ko`mish marosimi va o`likdan yomon jinlarni quvish uchun yoniga it olib borish, it boqish va ularni ehtiyot qilish, ayollar bilan o`yning qaysi kunlari munosabatda bo`lish, soch va tirnoqlarni qachon olish va ularni toza saqlash, o`z qichqirig`i bilan yomon narsalarni qochiruvchi xo`roz haqida, suvning shifobaxshligi, chaqaloqni parvarishlash, Axura Mazdaning odamlarni turli balo-qazolardan asrashi va hokazolalar bayon etiladi.

«Kichik Avesto» - u Quyosh, Oy, Ardivusura, Bahrom singari xudo hamda ma`budalar sharafiga aytilgan duo matnlarini o`z ichiga oladi.

«Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo`lishi bilan bir qatorda Turonu Eron va boshqa Yaqin Sharq mamlakatlarining tarixi, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, tili, urf-odatlarini, xalq og`zaki ijodi, umuman, turli sohalar haqida ma`lumot beruvchi noyob qomusiy manbadir. Undan o`rin olgan afsonalar, qo`shiqlar ma`lum ma`noda xalq og`zaki ijodining qadimiy janr namunalari o`zida aks ettirgani bilan ham ahamiyatlidir.

Respublikamiz mustaqillikka erishganidan so`ng, merosimizga, buyuk vatandoshlarimiz ijodiga munosabatda jiddiy o`zgarishlar yuz berdi. Davlat miqyosida e`tibor berilmoqda. Jumladan, 2001 yilda Xorazmda «Avesto» ga bag`ishlangan yirik tadbirlar, ilmiy anjumanlarning o`tkazilishi buning yorqin dalilidir.

O`rxun-Enasoy yodgorliklari.

Mazkur obidalarining topilishi O`rxun hamda Enasoy daryolarining havzalari bilan bog`liq.

Keyinchalik bu obidalar Sibir va Mo`g`ulistonning boshqa joylaridan, Sharqiy Turkiston, Markaziy Osiyo, Kavkaz, Volga bo`yi va boshqa joylardan topilgan bo`lsa ham, shu nom bilan ataladigan bo`lib qoldi. **Bu yodgorliklarning topilishi va o`rganilishi XVIII asrdan boshlanadi. Rus xizmatchisi Remezov bu haqdagi dastlabki xabarni beradi. Shved zobiti Iogann Strallenberg, olim**

Messersmidt yodgorliklarni evropa ilm ahliga ilk marta taqdim qiladilar. 1893 yilda daniyalik olim Vilgelm Tomson va rus olimi V.Radlovlar yodgorliklardagi harflarni o`qidilar. Bu yodgorliklar «tosh bitiklari» deb ham yuritiladi. Ular Mo`g`uliston, Germaniya, Rossiya, Xitoy, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Shvetsiya, O`zbekiston, Qozog`iston, Qirg`izistonda saqlanadi. Yodgorliklar asosan VI-VIII asr voqealarini aks ettiradi. 545-yilda Turk xoqonligi yuzaga keladi. V-VIII asrgacha hukmronlik qiladi. Tosh bitiklarining katta qismi ana shu xoqonlikning tarixini tasvirlaydi.

«To`nyuquq» bitigtoshi ikkita ustunga yozilgan. Ularning biri 170, ikkinchisi 160 sm. dan iborat.

Bu yodgorlikni 1897-yili Elezaveta Klements Shimoliy Mo`g`ulistonda eri Dmitriy Klements bilan birgalikda izlab topgan. «Kultegin» bitiktoshi marmardan ishlangan. Balandligi 3 m 15 sm, qalinligi 41 sm, tub qismi 1 m 24 sm bo`lib, yuqoriga tomon torayib borgan. Yodgorlikni rus ziyolisi N.Yadrintsev 1889 yili Mo`g`ulistonning Ko`kshin O`rxun daryosi qirg`og`idan topgan.

«Bilga xoqon» bitigini ham Yadrintsev topgan. U Kultegin bitigtoshidan 1 km janubiy-g`arbg`a o`rnatilgan. Uning bo`yi 3 m 45 sm, eni 1 m 72 sm, qalinligi 72 sm. U 80 satrdan iborat.

To`nyuquq - Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkardasi. Unga qo`yilgan toshda

To`nyuquqning xalq oldidagi xizmatlari, turkiylarning bir qancha dushman qabilalariga qarshi kurashi, To`nyuquqning donoligi, tadbirkorligi, vatanparvarligi, turk xalqiga sadoqati ko`rsatilgan.

Mana bu tasvir shundan dalolat beradi: «Nega chekinamiz, dushmanni ko`p deb, nega qo`rqamiz, o`zimizni oz deb, qani bosaylik, hujum qilaylik, dedim. Hujum qildik, dushmanni tor-mor qildik. Ikkinchi kun keldi. Urushdik. Ularning qo`shini biznikidan ikki qanoti yarmicha ortiq edi. Tangri yorlaqagani uchun, dushman ko`p deb biz qo`rqmadik, jang qildik. Ularni ham tor-mor qildik...» (Qadimiy obidalar. 21-bet).

Kultegin - Eltarish xoqonning kichik o`g`li. Bitigtosh 702 yilda o`rnatilgan. Akasi Bilga xoqon tilidan Yo`llug` tigin yozgan. Unda Bilga xoqonning turk xalqiga aytgan yurak so`zlari bayon qilingan. Kultegin dono, bahodir inson sifatida tasvirlanadi.

Bilga xoqon-Eltarishning katta o`g`li. Uning qabridagi yozuv ham Yo`llug` tigin tomonidan yozilgan. Tosh 735 yilda o`rnatilgan.

Bulardan tashqari, **«Ungin bitigi», «Moyun Chur bitigi» borki, bular O`rxun bitiglariga kiradi.** Enisey bitiglari hozirgi Tuva, Xakasiya hududidan topilgan. Bu bitiglar turli shakldagi-yumaloq, to`g`ri burchakli granit toshlariga bitilgan. Ayrim lari qoyalarga, metallarga, oltin va kumush idishlariga yozilgan. **Hozirgacha hammasi bo`lib 250 ga yaqin bitigtoshlar topilgan.** Enisey bitiglari «Eletmish bilga xoqon yodnomasi», «Uyuq Tarlak yodnomasi», «Uyuq Turan yodnomasi», «Begra yodnomasi», «Chakul yodnomasi» kabi yodgorliklardan iborat. Ularda ham mardlik, qahramonlik, dushmanga qarshi kurash tasvirlangan.

Bu yodgorliklarni nasr namunasi deb qarovchi olimlarimiz bo`lganidek, Stebleva ularni turkiy xalqlar she`riy ijodining namunalari sifatida beradi

Bitiglarda «Edguti eshid, qatug`du tungla» «Yaxshi eshit, qattiq tingla», «Ichra oshso`z, tashra jonso`z» «Ichda oshsiz, toshida to`nsiz» kabi maqolga o`xshash jumlar mavjud.

Yodgorliklarning tili quyidagicha:

Qog`on ulurup yo`q jig`ay budunug Qoon bo`lgach kambag`al xalqni ko`p ko`portdum Yuksakka ko`tardim.

Jig`oy budunug bay qilim Kambag`al xalqni boy qildim.

Umuman, O`rxun-Enasoy yodgorliklari V-VIII asrlarda yashagan turkiy xalqlarning madaniy merosi sifatida ajdodlarimizning ma`naviy -badiiy , ilmiy-tarixiy salohiyatining balandligi, qadimiy va boyligidan yorqin nishonadir.

Mif va afsonalar. “To`maris” va “Shiroq” rivoyatlari.

Xalq tafakkuri va ijodining mahsuli bo`lgan afsona va miflar sharoit va voqealardan kelib chiqadi. **Markaziy Osiyo va Eron xalqlari orasida qadimiy davrlardan keng yoyilgan afsonalardan biri «Kayumars»dir. Kayumars haqidagi asosiy manba «Avesto». Uning mufassal bayoni, turli nusxalari haqidagi ma`lumotlar «Tarixi Tabariy»da berilgan. «Shohnoma», Navoiyning «Tarixi mulki Ajam» asarlarida bu afsona uchraydi.**

Kayumars – Gaya Martan. U Axura Mazda tomonidan yaratilgan va ho`kiz-odam qismlaridan iborat. Beruniy Kayumars haqidagi afsonani bayon qilgan. Izoh: afsona bayon qilinib, tahlil etiladi. **Jamshid to`g`risidagi afsona. Jamshid «Avesto»da Yima. U adolatli, yer yuzini kengaytirgan, chorvani, turli qushlarni ko`paytirgan, kishilarni balolardan saqlagan, uy-joylar qurib, ariqlar chiqargan hukmdor sifatida tilga olinadi.** Firdavsiy, Beruniy, Navoiylar Jamshid to`g`risida qiziqarli ma`lumotlar beradilar. Prof. N.Mallaev «Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti» kitobida (T., 1974) Jamshid haqida mulohazalar yuritadi.

Xalqimizning sevimli bayrami Navro`z ham Jamshid nomi bilan bog`lanadi. N.Mallaevning fikricha, yetti yuz yil hukmronlik qilgan Jamshid zamonasida kishilar Ahrimanning zulmidan qutiladilar, muhtojlik, kasallik va o`lim yo`qolib ketadi. Jamshid er yuzini uch barobar kengaytiradi, chorva mollari va turli qushlarni ko`paytiradi.

Siyovush afsonasi. Eron shahzodasi Siyovush va Turon podshohi Afrosiyob o`rtasidagi munosabatlar ushbu afsonada o`z ifodasini topgan. Siyovushning shuhrati ko`proq Xorazm va Buxoroda yoyilgani manbalarda qayd etilgan. Uning ildizlari «Avesto»da uchraydi. **S.Tolstov xabaricha, Siyovush miloddan oldingi XIII asrda Xorazm davlatiga asos solgan.** U Beruniy ma`lumotiga suyanagan. Izoh: Siyovush afsonasi bayon qilinadi. Otasi Kaykovus, onasi Turon chegarasidan topilgan, o`g`li Kayxusrav Markaziy Osiyo xalqlarining vatanparvarlik, mardlik tuyg`ulari o`nlab qissa va eposlarda o`z ifodasini topgan. Amorg va Sparetra, To`maris, Shiroq, Zariadr va Odatida, Striangey va Zarineya, Iskandar haqidagi qissa va afsonalar shular jumlasidandir.

Amorg va Sparetrada Kirga qarshi kurashgan Amorg va uning rafiqasi Sparetraning jasorati, ayolning mardligi tasvirlansa, To`marisda Kirga qarshi jang qilgan mard va vatanparvar To`marisning jasorati, Shiroqda oddiy cho`ponning vatanparvarligi va mardligi, Zariadr va Odatida qissasida Midiya shohi Gistasping ukasi Zariadr va Amorg (Omarg)ning qizi Odatida sevgisi tasvirlanadi.

“To`maris” eposi Markaziy Osiyo aholisining chet el bosqinchilari tajovuziga qarshi olib borgan mardona kurashining badiiy ifodasidir. Eramizdan avvalgi VI asrda bir necha mamlakatlarni istilo qilgan ahmoniyalar shohi Kir Markaziy Osiyoga bostirib kiradi. Markaziy Osiyo aholisi, ayniqsa To`maris boshchiligidagi massaget qabilalari kirga qarshi mardona kurash olib boradilar. Kir qo`shini engiladi va uning o`zi 529 yilda jang maydonida o`ldiriladi. Shu voqealar To`maris tarixiy-qahramonlik eposining mazmunini tashkil etadi. Afsuski, bu eposning asli bizgacha etib kelmagan; uning mazmuni grek tarixchisi Gerodotning (484-425) «Tarix» kitobida hikoya qilib qoldirilgan. Tumaris boshliq massagetlar qattiq jangga kirib Kir qo`shinini engadilar, uning o`zini o`ldiradilar. To`maris Kirning boshini qon bilan to`lg`azilgan meshga solar ekan, o`z kurashiga yakun yaash: «Ey nomard, sen meni-jangda seni halollik bilan engib chiqqan bir ayolni-makkorlik bilan o`g`lidan judo qilib, farzand dog`ida kuydirding, sen umring bo`yi qonga to`ymading, men o`z ontimga amal

qilib seni qon bilan sug`ordim. Birovning yurtiga zo`rovonlik bilan bostirib kirganlarning jazosi shu!» deydi.

To`marisning keyingi so`zlari eposning g`oyasiga yakun yasaydi, bosqinchilarga qarshi xalqning qat'iy hukmini ifodalaydi. Bu eposda osoyishtalik urushni, adolat zulmini, mardlik va shijoat hiylakorlik va razillikni engadi. Kishilarning eng yaxshi xislatlari va ezgu niyatlari xalq qahramoni To`maris qiyofasida mujassamlashadi.

Gerodot, Kteziy va boshqa tarixchilar Markaziy Osiyo qabilalarida, jumladan massagetlarda ijtimoiy hayotning turli sohalarida xotin-qizlarning katta o`rin tutganini so`zlaydilar. Shuningdek, Xitoy sayyohi Chjan Syanü (eramizdan avvalgi II asr) Davan (Farg`ona)dagi xotin-qizlarning mavqei haqida so`zlab, «erkaklar biror qaror qabul qilar ekanlar, ular o`z xotinlarining maslahatiga quloq solar edilar»deydi.

«Shiroq» eposi ham, «To`maris» kabi Markaziy Osiyo aholisining chet el bosqinchilariga qarshi qahramonona kurashi voqealari zaminida vjudga keldi.

Qahramon massagetlar Kir qo`shinini tor-mor qildilar. Lekin keyingi ahmoniy shohlari bundan saboq olmadilar, ular Markaziy Osiyoga bostirib kirish va el-yurti talashni davom ettirdilar. Doro I (521-485) shunday yovuz shohlardan biri edi. Shak qabilalari Doroga qarshi 513 yilda katta qo`zg`olon ko`targan edilar. Shu voqea «Shiroq» eposiga asos bo`lgan bo`lsa kerak.

«To`maris» kabi «Shiroq»ning ham asli saqlanmagan. Uning qisqacha mazmuni grek tarixchisi Polien (eramizdan avvalgi II asr)ning «Harbiy hiylalar» kitobida hikoya qilinadi.

Doro baland qoyaga chiqib Appolon (quyosh xudosi)dan yomg`ir so`raydi. Yomg`ir yog`ib, qolgan-qutgan askarlar meshlarini suvga to`ldirib, cho`l dahshati va halokatidan zo`rg`a omon qoladilar. Shiroqning dushmani bepoyon cho`l-biyobonga olib borishi Markaziy Osiyo aholisining qadim zamonlarda dushmanlarga qarshi qo`llagan harbiy taktikasini eslatadi. Grek tarixchilarining ma`lumotlariga ko`ra, o`rta osiyoliklar Aleksandr Makedonskiy qo`shiniga qarshi kurashda ham ana shunday taktikani qo`llagan ekanlar.

Jonajon qabila va ona tuproq Shiroqqa mislsiz kuch va temir iroda baxsh etgan edi.

Eftalit eposida ham vatanining dushmanlari ustidan g`alaba qozonish uchun o`zini halokatga mahkum etgan Zopir obrazi yaratilgan shunga o`xshash hikoya Beruniy tomonidan ham keltirilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

Eng qadimgi adabiy yodgorliklarga nimalar kiradi?

Qadimgi madaniyat deganda nimani tushunasiz?

Ilmiy ekspeditsiyalar nima?

Xalqimizning qadimgi san`ati nimalarda ko`rinadi.

Qadimgi Turon xalqlari yozuvi, tili, ilm-fani haqida nimalarni bilasiz?

Mif va afsona nima, u qaysi manbalar orqali yetib kelgan?

Qadimgi qo`shiq va lirik she`rlar nima?

Qahramonlik eposi nima?

Kayumars, Jamshid, Rustam, Siyovush, To`maris, Shiroq afsonalarini tahlil eting.

Zardushtiylikning mohiyatini tushuntiring.

Zardusht kim?

«Avesto»ning adabiy qimmatini gapiring.

O`rxun-Enasoy yodgorliklarining topilishi, o`rganilishi haqida nimalarni bilasiz?

Bu yodgorliklarda qanday masalalar yoritilgan?

Ulardagi obrazlar haqida gapiring.

Irq bitigi nima?

Adabiyotlar:

«Avesto». Asqar Mahkam tarjimasi. T., 2001.

A.Qayumov. Qadimiyat obidalari. T., 1972.

B.To`xliev. O`zbek adabiyoti. 9-sinf. Darslik. T., 2000.

Darsliklar.

G`Akramov. Mif va yozma adabiyot munosabatiga doir. O`zTA jurnali. 1996. №2-4.
H.Homidiy, B.Do`stxonov. «Avesto» va tibbiyot. T., 2001.
I.A.Karimov. Istiqlol va ma`naviyat. Toshkent, 1994.
I.Stebleva. Poeziya tyurkov VII-VIII vekov. M.,1965.
M.Ishoqov va boshqalar. O`lmas obidalar. T., 1989.
Mahmud Qoshg`ariy. Devonu lug`otit turk. T., 1960-63.
N.Rahmon. Turk xoqonligi. T.,1993.
Qadimiy hikmatlar. T., 1987.
Qadimiy hikmatlar. T.,1987.
R.Vohidov, H.Eshonqulov. Mumtoz adabiyot-hikmat xazinasasi. Buxoro, 2001.

3-mavzu: X-XII ASRLAR ADABIYOTI

Reja:

X-XII asrlarda adabiy-madaniy hayot.

X-XII asrlarda badiiy adabiyot.

Mahmud Qoshg`ariyning “Devonu lug`otit turk” asari.

Yusuf Xos Hojib va uning “Qutadg`u bilig” asari

Mavzuga oid tayanch so`z va tushunchalar: Uyg`onish davri, arab istilochilari, ozodlik kurashlari, me`morchilik, Dehgaron masjidi, Raboti Malik, ilm-fan, badiiy adabiyot, Abu Mansur as-Saolibiy, fors-tojik adabiyoti, turkiy adabiyot, Mahmud Qoshg`ariy, Qoraxoniylar davlati, “Devonu lug`otit turk”, “Qish va yoz”, munozara, Alp Er To`nga, Afrosiyob, marsiya,

X-XII asrlarda adabiy-madaniy hayot.

X-XII asrlar Markaziy Osiyo xalqlari tarixida alohida bir davrni tashkil etadi. Bu davr barcha sohalarning rivojlanishi, ilm-fanning yuksak taraqqiyoti bilan xarakterlanadi. Markaziy Osiyo xalqlari me`morchilik, tasviriy san`at, naqqoshlik, o`ymakorlik, musiqa kabi sohalarda katta yutuqlarga erishdilar. «Shuning uchun biz X-XII asrlardagi O`rta Osiyo madaniy yuksalishini Uyg`onish davri, aniqrog`i *“ilk Uyg`onish davri”* deb atashga ham to`la asosimiz bor». (Buyuk siymolar, allomalar. 1-kitob. T.,1995. 8-bet).

Bu davrda arab istilochilariga qarshi kurash avj oladi. *Ozodlik uchun* olib borilgan kurashlar natijasida arab xalifaligi hukmronligi emirilib, davlat mahalliy amaldorlar ixtiyoriga o`tadi: avval Somoniylar davlati, keyinroq Qoraxoniylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar sulolasi vujudga keldi.

Qishloq xo`jaligi, hunarmandchilik rivojlanadi. Buxoro, Samarqand, Marv, Ko`hna Urganch, Xiva kabi shaharlar o`z davrining madaniyat markazlari sifatida tanildi. Mashhur «Ipak yo`li» boshqa xalqlar bilan turli sohalarda hamkorlik qilishda asosiy aloqa yo`li vazifasini bajardi. Bu davrda *me`morchilik* taraqqiy etdi. Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, O`zgan, Marv shaharlarida ko`plab saroy, masjid, xonaqoh, madrasa, minora, sardoba va boshqa binolar qurildi. Bu binolar qurilishi o`ziga xosligi bilan ajralib turadi. Navoiy viloyatida XI asrda qurilgan Hazora qishlog`idagi Dehgaron masjidi, Raboti Malik, Buxorodagi Masjidi jomening 1127-yilda qurilgan minorasi, XII asr oxirida bunyod etilgan Vobkent minorasi, Urganchdagi Faxriddin Roziy maqbarasi, Doya xotin ravoti, Marvdagi Sulton Sanjar maqbarasi va boshqalar shular jumlasidandir. Bu davrda *naqqoshlik* ham rivojlandi. Turli binolarga ishlangan naqshlar buning dalili. *Musiqa* ham taraqqiy etadi. Bu davrda rud, tanbur, barbat, daf, qo`biz, rubob, nay, surnay, karnay, qonun kabi cholg`u asboblari keng tarqaladi. «Rost», «Xusravoniy», «Boda», «Ushshoq», «Sipahon», «Navo», «Tarona» kabi kuylar ijod qilinadi.

X-XII asrlar Markaziy Osiyoda ilm-fanning rivojlanganligi bilan alohida ajralib turadi. *Falsafa, mantiq, riyoziyot, tibbiyot, tarix, tabbiyot, tilshunoslik, adabiyotshunoslik* kabi sohalar rivoj topdi. Arab tili Sharq mamlakatlari orasida ilm-fan tili sifatida shuhrat qozondi. Buxoro, Samarqand, Termiz, Urganch, Marv, Balx, Bog`dod, Shom kabi shaharlar Sharq olimlari hamkorligining markazi bo`lib qoldi.

Markaziy Osiyo olimlaridan *al-Xorazmiy, Abunabr Farobiy, Ahmad Farg`oniy, Ibn Sino, Aburayhon Beruniy* va boshqalar jahon ilm-fani xazinasiga bebaho ulush qo`shdilar (Izoh:

talabalarga olimlar merosi bilan tanishish topshiriladi). Shuningdek, Abdulloh ibn Muslim Marvaziy Dinovariyning «Kitob-ul-maorif», «Kitob-ush-she`r va-sh-shuaro»si, tarixchi Abusaid Gardiziyning «Zayn-ul axbor», Bayhaqiy, Narshahiy, matematik va astronom Abdulmajid Xo`jandiy, astronom Muhammad Balxiy, huquqshunos Burhoniddin Al-Marg`inoniy, tilshunoslar Abulqosim Zamaxshariy, M.Qoshg`ariylar asarlari ham mashhur bo`ldi.

X-XII asrlarda badiiy adabiyot.

X-XII asrlarda *badiiy adabiyot* ham rivojlandi. Arab, fors-tojik va turkiy tilda badiiy asarlar yaratildi. Bu davr adabiyoti haqida nishopurlik olim, yozuvchi, adabiyotshunos va tilshunos, tarixchi *Abu Mansur as-Saolibiy* (961-1038)ning “Yatimat ad-dahr fi mahosini ahli al-asr” (“Asr ahlining fozillari haqida zamonasining durdonasi”) nomli tazkirasi boy ma`lumot beruvchi muhim manba sanaladi. Tazkira 995-1000 yillar mobaynida yozib tugatiladi. Tazkira to`rt qismdan tarkib topgan bo`lib, uning har bir qismi o`n bobga ajratiladi. Tazkiraning to`rtinchi qismining dastlabki uch bobi Buxoroning o`zida yashab ijod etgan 48 shoirning hayoti va ijodiga doir qaydlardan iborat. Asarda keltirilgan Movarounnahr va xurosonlik shoirlarning she`rlari qasida, vaf, hajv, marsiya, masnaviy, g`azal, urjuza janrlariga mansubdir.

X-XII asrlarda *fors-tojik adabiyoti* ham taraqqiy etdi. Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Robia, Mahastixonim, Asadi Tusiy, Faxriddin Gurgoniy, Nosir Xisrav, Umar Xayyom, Am`aq Buxoriy, Rashidaddin Vatvot, Xoqoniy Shervoniy, Nizomiy Ganjaviy kabi ulkan san`atkorlar yetishib chiqadi. (Izoh: bu shoirlar hayoti va ijodini o`qib-o`rganish talabalarga topshiriladi).

X-XII asrlar *turkiy adabiyotning, turkiy tasavvuf she`riyatining* rivojlanganligi bilan ham xarakterlanadi. Bu davr adabiyotida Qur`oni karim, hadislarning ta`siri seziladi. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Sulaymon Boqirg`oniyilar ijodi e`tiborlidir. Umuman, bu davrda turli adabiy janrlar shakllanib bordi. Lirikada qasida, g`azal, ruboiy, qit`a, marsiya, munozara va boshqa janrlar, turli mavzudagi dostonlar vujudga keldi. Nasr sohasida Abulmuayyad Balxiy («Shohnoma», «Gershaspnoma»), Homididdin Balxiy («Maqomoti Homidiy») kabilarning asarlari, adabiyotshunoslik sohasida Ar-Roduyoniy («Tarjimon-ul-balog`a»), R.Vatvot («Hadoyiq-us-sehr»-«Sehrlar bog`i»), Nizomiy Aruzii Samarqandiy («Chohor maqola»), Muhammad Avfiy («Lubob-ul-albob»-«Negizlar negizi») asarlari yuzaga keldi.

Mahmud Qoshg`ariyning “Devonu lug`otit turk” asari.

Mahmud Qoshg`ariy Markaziy Osiyoda ilk o`rta asr madaniyatining buyuk arboblardan. U tilshunoslik, xususan, turkiy tillarni o`rganishda mashhur bo`ldi va tarixda o`chmas iz qoldirdi. Mahmud Qoshg`ariy XI asrga kelib turkiy xalqlar madaniyati, san`ati rivojlangan, qoraxoniylar davlati mustahkamlangan, Buxoro, Samarqand, Shosh, Qashqar kabi shaharlar yirik madaniyat markaziga aylangan bir davrda yetishib chiqdi.

Mahmud Qoshg`ariy *Bolosog`un shahrida* dunyoga kelgan. Uning to`liq ismi Mahmud ibn Husayn ibn Muhammaddir. Otasining ismi Husayn, bobosi Muhammad bo`lib, kelib chiqishiga ko`ra Qoshg`ariy nisbatini olgan.

Mahmud Qoshg`ariy ilmda, tarixda «Devonu lug`otit turk» asari bilan shuhrat topdi. Yana bir asari «Javohir-un-nahvfi lug`otit turk» «Turkiy tillarning nahv sintaksis durdonalari, qoidalari» deb ataladi. Bu asari bizgacha yetib kelmagan yoki hali noma`lum bo`lib qolmoqda. «Devonu lug`otit turk» 1072 yilda yozila boshlangan. 1074 yilda yozib tugallangan. Muallif kitobiga «Devonu lug`otit turk» «Turkiy tillar lug`atlari» deb nom bergan va uni abbosiy xalifalar avlodidan bo`lgan baland mavqeli Abulqosim Abdulloh binni Muhammad al-Muqtadoga bag`ishlagan. Asarning asosiy matni o`sha davrda din va fan tiliga aylangan arab tilida yozilgan bo`lib, turkiy tilning boyligini ko`rsatadi.

«Devonu lug`otit turk»ning asl qo`lyozmasi bizgacha etib kelmagan. Uning yozilgan sanadan ikki yuz yil o`tgach ko`chirilgan birdan-bir nusxasi Istanbul kutubxonasida saqlanadi. Muhammad binni Abu Bakr Damashqiy degan kishi tomonidan asl nusxasidan ko`chirib yozilgan qo`lyozmadir. Uch tomdan iborat bu kitob 1939-41 yillarda hozirgi turk tiliga tarjima qilinib nashr etildi. Tarjimon Bosim Atalay asarga izohlar yozgan. O`zbekistonda «Devon»ning birinchi tadqiqotchisi sifatida

Fitrat tilga olinadi. U «Devon»dagi barcha she`riy parchalarni yiqqan, tarjima qilgan, alohida lug`at bilan nashr etgan. Asarni prof. S.Mutallibov hozirgi o`zbek tiliga ag`dargan.

Qoshg`ariy uzoq yillar «Yuqori Chindan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Farg`ona, Buxoro, hozirgi Shimoliy Afg`onistonga qadar cho`zilgan» turkiy o`lkalarni, turkmanlar, o`g`uzlar, chigillar, yag`molar, qirg`izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarni kezib chiqdi, turli sheva, lahja xususiyatlarini o`rgandi, ularni adabiy til bilan chog`ishtirdi, o`z ishi uchun boy material to`pladi.

Ba`zi olimlar fikricha, bu materiallar 10-15, ehtimol 15-20 yillar davomida to`plangan. Qoshg`ariy asari, o`zi ta`kidlashicha, «oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma`lum bo`lmagan alohida bir tartib»da tuzilgan. Asar sodda va lo`nda yozilgan. **Unda qadimgi turk alifbosi, fonetik qonuniyatlar, orfoepik va orfografik qoidalar puxta tushuntirib berilgan. Muallif ko`rsatishicha, kitob 8 bo`limdan, muqaddima va xulosadan iborat.** «Devon»da 7500 dan oshiq turkiy so`z va iboralar izohlangan. Lug`atda yuzlab kishi ismlari, shahar va qishloq, o`lka nomlari, daryo, tog`, yaylov, vodiy, dara, yo`l, dovon, ko`l, soy kabi jo`g`rofiy atamalar, turli qabila, urug`, elat, sayyora, yulduzlar, fasllar tilga olinadi.

«Devonu lug`otit turk»-adabiy manba. Unda turkiy xalqlar tarixiga oid qadimiy afsona va rivoyatlar, 300 ga yaqin maqol va matallar, hikmatli so`zlar, 700 satrdan oshiq she`riy parchalar o`rin olgan. **«Devon»da keltirilgan she`riy parchalardan 150 satrga yaqini islom davri she`riyatiga xos bo`lgan «bayt» tipidagi masnaviy, qasida, g`azal, qit`a parchalari bo`lib, muallif ularni «bayt» deb ataydi.**

«Devon»dagi qo`shiqlar ko`proq jangnoma xarakterida bo`lib, ba`zi yirik she`riy parchalarga shartli ravishda «Tangutlar bilan jangnoma», «Uyg`urlar bilan jangnoma», «Yabaku bilan jangnoma» deb nom qo`yilgan. Ularda turkiy elatlarning shijoati, qiynchiliklarga bardoshi, jasurligi, harbiy hiylalar, elparvarlik, mardlik, himmat, mehr va qahr tuyg`ulari tasvirlangan. **Qadimgi epik qo`shiqlardan «Devon»da saqlangan ikki yirik asar ko`pchilikning e`tiborini tortadi. Biri «Alp Er To`nga marsiyasi», ikkinchisi «Qish va yoz munozarasi»dir. Marsiya 44 satrdan iborat.** Alp Er To`nga turklarning qadimiy qahramoni. Yusuf Xos Hojib tojiklar uni Afrosiyob deb atashini yozgan. To`nga Alp Er yo`lbars kabi kuchli bahodir odam demakdir. Uning Barman, Barsg`an degan o`g`illari hamda Qaz ismli qizi haqida ham ma`lumotlar bor.

Marsiyada Afrosiyob-Alp Er To`nganing achchiq qismati dahshatli fojia, o`rnini to`ldirib bo`lmaydigan yo`qotish sifatida baholanadi.

Alp Er To`nga o`ldimu?

Esiz ajun qaldimu?

O`dlak o`chin aldimu?

Emdi yurak yirtilur.

Alp Er To`nga xalq sevgan qahramon. Mana bu misralar motam marosimini eslatadi:

Bo`ri bo`lib uldilar.

Yoqa yirtib turdilar.

Yig`lab-siqtab yurdilar

Ko`z yoshlari mo`l bo`ldi.

«Qish va yoz» munozarasi turkiy munozara janrining bizgacha yetib kelgan birinchi erkin namunasi. Unda turkiy elatlarning tabiati, yashash, tafakkur tarzi, sevinchlari, qayg`ulari aks etgan, tabiatga mehr ifodasini topgan. Asar majoziy tasvirlar, tashbehlar, sifatlashlar, jonlantirish, engil kinoyalarga boy. Tabiat tasviri:

Alin topu yashardi

Urut o`tin yashirdi,

Ko`lning suvin ko`shardi

Sigir buva mungrashur.

Mazmuni:

Tog` boshlari yashardi,

Qurug` o`tni yashirdi,

Ko`l suvlari toshirdi,

Sigir, buqa ma`rashur.

Bahor tasviri shu xilda aks ettirilsa, qish tasviri mana bunday:

Keldi asin asnayu,
Qozga tupal usnayu,
Kirdi budun ko`snayu
Qara bulut ko`krashur.

Mazmuni:

Keldi shamol huvillab,
Bo`ron bo`lib guvillab.
Xalq titrashur uvillab
Qora bulut guldirar.

Qish bilan yoz bir-biri bilan tortishadi. Bu tortishuvda xalq o`z qarashlarini, yoz va qishga bo`lgan munosabatini ifodalaydi:

Qish yoy bila to`qushti
Qinir ko`zunug` baqishti.
Tutishqali yaqishti,
Utg`olimat o`g`rashur.

Mazmuni:

Qish bilan yoz to`qnashdi,
Qing`ir ko`z bilan qarashdi.
Tutib olishga intilishdi,
Yutishga tirishar edi.

Yoz aytadi:

Sendan qochar sundiloch,
Menda tinar qaldirg`och,
Bulbul ko`ylab nag`ma soch
Erkak, ayol juftlashur.

Qish yozga aytadi:

Senda barcha yomonlar
Chibin, pashsha, ilonlar
Dumi gajjak chayonlar
Hamla qilib yugurar.

Devondagi she`riy parchalar mavzu jihatdan rang-barang.

Pand-nasihat:Boqmas jahon sovuq so`z,
Shilqim, yuzsiz, baxilga.
Yoqimli bo`l, xushxulq bo`l,
Qolsin noming ko`p yilga.

Yor tasviri Aldadi meni,

Yumshoq badan qiz.
Qomati nihol,
Burni ham tekis.

Sevgi va uning kechinmalari tasviri:

Sevgim mening kuchayur,
Kecha-kunduz yig`layman.
Ko`rdi ko`zim ketganin,
Yurtda yolg`uz qolmayman.
Seviklim ketdi uzoq,
Ko`nglim unga bog`layman.
Qoldim chuqur qayg`uda,
Uzzu kunlar yig`layman.

«Devon»da juda ko`p maqollar uchraydi. «Qut belgisi bilig», «Emgak ekinda qolmas» Mehnat erda qolmas, «Osh totig`i tuz», «Qo`rqmush kishiga qo`y boshi qo`sh ko`rinur», «It isirmas, ot tepmas

dema», «Quruq yog`och egilmas», «Uma kelsa qut kelar» Mehmon kelsa qut kelar, «Ag`ilda o`g`laq tug`sa, ariqda o`ti unar» va hokazo.

Umuman, «Devonu lug`otit turk» tilshunoslar, adabiyotshunoslar, tarixchi va boshqa soha kishilari uchun ham qimmatli manba ekanligi bilan e`tiborlidir.

Yusuf Xos Hojib va uning “Qutadg`u bilig” asari

Yusuf Xos Hojibning asl ismi Yusuf. U haqdagi ma`lumotlar juda oz. «Qutadg`u bilig»da ayrim ma`lumotlar uchraydi. Bu asarini 50 yoshlarida, hijriy 462-yili 1069-1070 yillarda yozib tugatgan.

Yusuf o`zi haqida asar muqaddimasida shunday ma`lumot beradi: «Bu kitobni tasnif qilig`li Balasag`un mavludlig` parqiz idisi er turur. Ammo bu kitobni Qashg`arda tugal qilib, Mashriq maliki Tavg`achxon uskinga kechurmish, malik ani ag`irlab, ulug`lab o`z Xas Hojiblikni anga bermish turur, aning uchun Yusuf ulug` Xas Hajib teb atijavi yozilmish turur». Kitobda tilga olingan xoqon Nasiriddin Tavg`ach Bug`ro Qoraxon 1075-1103 yillar davomida qoraxoniylar davlatini boshqargan. Asar unga bag`ishlangan.

“Qutadg`u bilig” – davlatni idora qilish usuli, siyosat, qonun-qoidalar, rasm-u odatlar, axloq me`yorlarini o`zida mujassamlashtirgan nizomnoma, qomus sifatida yuzaga keldi. Yusuf Xos Hojib o`z asarini yaratar ekan, u bir tomondan, o`z davrining yirik olimi, fozili, donishmandi, faylasufi, shoiri, tib, riyoziyot, nujum va shu kabi boshqa fanlardan xabardor bo`lgan barkamol kishi sifatida, namoyon bo`ladi.

Hajman katta, badiiy jihatdan puxta bo`lgan «Qutadg`u bilig» 6500 bayt yoki 13 ming misraga yaqin she`rdan iborat. Asar 18 oyda yozib tugatilgan. Muallif o`z asariga «Qutadg`u bilig» deb nom beradi. Bu baxt va saodatga eltuvchi bilim, ta`lim demakdir. Shoir shunday yozadi:

Kitab ati urdum «Qutadg`u bilig»,
Qutadsu o`qug`lika tutsu elig
Kitob otini «Qutadg`u bilig» qo`ydim,
O`quvchiga baxt keltirsin, qo`lidan tutsin.

Shu sababdandir, kitobni chinliklar «Adab-ul-muluk»/ «Hukmdorlar odobi»/, mochinliklar «Oyin-ul-mamlakat» /«Mamlakatning tartib usuli», sharqliklar «Zain-ul-umaro»/, /«Amirlar ziynati»/, Eron liklar «Shohnomai turkiy», turonliklar «Qutadg`u bilig», ba`zilar «Pandnomai muluk»/«Hukmdorlar pandnomasi»/ deganlar.

«Qutadg`u bilig» haqidagi dastlabki xabar XIX asrning birinchi choragida paydo bo`ldi. Bu asarning 1439-yilda Hirotda uyg`ur yozuvi bilan Hasan Qara Sayil Shams tomonidan ko`chirilgan nusxasi Turkiyaning Tug`ot shahriga, bu yerdan esa, 1474-yilda Abdurazzoq Shayxzoda baxshi uchun Faxri o`g`li Qozi Ali tomonidan Istambulga keltirilgan. Uni sharqshunos olim Hammer Purgstall Istambulda sotib olib Vena saroy kutubxonasiga keltiradi.

1870-yilda venger olimi Herman Vamberi «Qutadg`u bilig»ning eng muhim qismlarini «Uyg`ur tili obidalarini» va «Qutadg`u bilig» nomi bilan nashr qildi. 1823-yilda fransuz sharqshunosi Jaubert Amedi ham nashr ettirgan. 1890-yildan boshlab bu asarni o`rganishga V.Radlov kirishadi. 1896-yilda «Qutadg`u bilig»ning arab yozuvi bilan ko`chirilgan ikkinchi bir nusxasi Qohirada topildi. Radlov 1910-yilda asarni rus alfavitiga asoslangan to`liq transkripsiyasini nemis tiliga tarjimai bilan nashr qildiradi. Bu asarning arab yozuvi bilan ko`chirilgan uchinchi nusxasi 1913-yilda Namanganda topildi. 1924-yilda Fitrat namanganlik Muhammadhoji eshon Lolaresh ismli kishidan bu nusxani oladi va Toshkentga Asosiy kutubxonaga keltiradi.

«Qutadg`u bilig» tarkibi quyidagicha: Uch bosqich muqaddima:

Nasriy muqaddima 38 satr.

She`riy muqaddima 77 bayt.

Muqaddimaviy boblar 11 bob. 390 bayt.

Asosiy qism - doston mavzui 68 bobda rivojlanadi. Undagi sarlavhalar hisobiga ishtirok etuvchilarning savol-javoblarini ham kiritsak, 174 sarlavha ostida berilgan. Umumiy hajmi 5896 bayt. Xotima qismi - 2 qismda va masnaviy bobdan iborat bo`lib, masnaviy bob mazmunigina dostonga aloqador.

Muqaddimada tangriga hamd, payg`ambar va chahoryorlarga na` t aytiladi. «Qutadg`u bilig» 180 ga yaqin to`rtlik, masnaviy va uch bob qasidadan iborat. Asar aruzda yozilgan. Mutaqorib bahrida.

«Qutadg`u bilig» o`sha davrda Qoshg`ardan Kaspiygacha bo`lgan keng maydonga yoyilgan barcha turkiy qabilalar uchun tushunarli bo`lgan «Bug` raxon tili»da yozilgan.

«Qutadg`u bilig»-adabiy asar, badiiy adabiyot numunasi. Asar qahramonlari 4 timsoldan tashkil topgan:

Biri to`g`rilikka tayanch-Adolat
Biri Davlat erur, u qutli g`oyat.
Uchinchi-ulug`lik Aql ham Zako
To`rtinchi - Qanoat erur bebaho.

Birinchi, Adolat – u bosh hukmdor, uning nomi *Kuntug`di*, u quyoshdek barchaga barobar nur taratadi. Ikkinchi, Davlat – turkiyda Qut, u bosh vazir, uning nomi *Oyto`ldi*. Asarning bosh qahramoni *O`gdulmish* – Aql va Bilimdir. To`rtinchi timsol – Qanoat. Uning ismi *O`zg`urmish*. Olimlarimiz fikricha, bular islom ma`naviyatining bosh timsollari edi: O`zg`urmish obrazi tarkidunyo qilgan, zohidlik va taqvoni yashash tarziga aylantirgan so`fiylarni anglatadi. Asarda tasavvufiy g`oyalar ham ko`zga tashlanadi.

Muallif Xudoni e`tirof etadi. Din va shariat yo`lini unutmashlikka chaqiradi. Uning dunyoqarashida Farobiy, Ibn Sinolar dunyoqarashining ta`siri seziladi. U yetti planeta, o`n ikki burj haqida gapiradi. Yusuf Xos Hojibning davlat, uning qurilishi, hokimiyatni boshqarish, moddiy, siyosiy, ijtimoiy qarashlari asardagi to`rt obrazning o`zaro munozara, bahs, savol-javoblari orqali namoyon bo`ladi. Muallif olimlar haqida alohida gapiradi. Ularni ulug`laydi. Ularga ozor bermaslikni, moddiy jihatdan quvvatlashni aytadi:

Yo`q ersa ajunda bu alim bo`gu,
Tikib unmagay erdi erda egu.
Ularni qattiq sev, ag`irla so`zin,
Biliglarin o`gran o`gush azin.
Ular ilmi bo`ldi buzunga yo`la,
Yarusa yo`la tunla azmas yo`l-a.

Mazmuni:

Yo`q ersa jahonda gar olim, dono,
Ekib unmagay erdi yerda dona.
Ularni juda sev, qadrla so`zin
Bilimlarin o`rgan ko`pin yo`ozin.
Ular ilmi xalqqa bo`ladi chiroq,
Chiroq yonsa, tunda adashmas oyoq.

Shoirilar juda ulug` kishilar, ular kishilarni ham madh, ham fosh qiladilar. Ularning tillari qilichdan o`tkir, xotiralari nozik va chuqur:

Yana keldi shoir-bu so`z terguvchi,
Kishin madh etuvchi yo fosh qilguvchi.
Qilichdan ham o`tkir bularning tili,
Va qildan nozikroq xotirlash yo`li.
Nozik so`z, kalom kim eshitay desa,
Bulardan eshitsin, qilar zavq rosa...

Yusuf Xos Hojib dehqonlarga ham yuqori baho berdi. Ularning mehnati halol, sharafli, barchaga manfaatli ekanligini ta`kidlaydi:

Bo`lar dehqon ahli juda qo`li keng,
Xudo berganidan erur ko`ngli keng.
Qimirlaguvchidan er uzra hamon
Yuruvchiga osh, non, uchuvchiga don.
Ularga aralash, qo`shilish o`zing,
Shirin so`zla tilda, ochiq tut yuzing.

Chorvadorlar haqida:

Qimiz, sut, yungu yog`, qurut va qatiq,

Namat va kigiz ham to`qima tutiq.

Bular manfaatli kishilar turur,

Bularni juda yaxshi tut, ey unur.

«Qutadg`u bilig»da muallif odob-axloq masalalariga alohida to`xtaladi. U turli tabaqalar o`rtasidagi munosabat, axloq, muomala, odamgarchilik, to`g`rilik, soflik, mehr-muhabbat, vafo, shafqat, adolat, insof, saxovat, aql, zakovat kabi xususiyatlarni g`ayri insoniy, yolg`onchilik, insofsizlik, egrilik, bemehrlik, zulm, nomardlik, johillik kabi tomonlar bilan qiyoslaydi:

Yomonlikni qilma, e xulqi suzuk,

Bu kun ezgu ish qil, fe`ling qil tuzuk.

Yomon ishni qilma, u koni zarar,

Yomonlik ilon bir, seni u chaqar.

Barcha odob-axloqning boshi tildir. Tilning foyda va zarari behisobdir. Oz so`zlash, ko`p tinglash kerak. Qizil til qora boshning yovi:

Kishin til ulug`lar, topar qut kishi,

Kishin til tubanlar, yorilar boshi.

So`zing ehtiyot qil, boshing ketmasin,

Tiling ehtiyot qil, tishing sinmasin.

Talay so`zlama so`z, biroz so`zla oz,

Talay sir-sinoatni oz so`zda yoz.

Qora bosh yovi bu qizil til erur,

Talay bosh egan u, yana ham eyur.

Muallif farzand tarbiyasi, o`g`il-qiz o`stirish, ziyofatga borish, u erda o`tirish, ovqatlanish odobi haqida o`git beradi.

Asarda ko`plab badiiy tasvir vositalari uchraydi. Turli tashbehlar, omonimlar, o`xshatishlar ishlatilgan.

Umuman, «Qutadg`u bilig» bundan keyin ham o`quvchilarimizni axloqli qilib tarbiyalashda ahamiyat kasb etaveradi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

X-XII asrlarda tarixiy sharoit qanday edi?

Bu davr madaniy hayotining rivojlanish omillari nima bilan bog`liq?

X-XII asrlar qaysi sohalar taraqqiyoti bilan xarakterlanadi?

Bu davrda badiiy adabiyot qanday holatda edi?

Fors-tojik adabiyoti haqida gapiring.

Turkiy adabiyot haqida gapiring.

Bu davrda adabiyotshunoslik sohasida qanday asarlar yaratildi?

Mahmud Qoshg`ariy kim?

Uning hayoti va ijodi haqida nima bilasiz?

«Devonu lug`otit turk» qanday asar?

«Devon»dagi she`riy parchalar qaysi mavzuda?

«Devon»dagi xalq maqollaridan misollar keltiring.

«Qish va yoz» munozarasini tahlil qiling.

Alp Er To`nga marsiyasida nima haqda gap boradi?

Yusuf Xos Hojib kim?

U haqda qaysi manbalarda ma`lumot bor?

«Qutadg`u bilig» qanday asar?

Uning topilishi, o`rganilishi, nusxalari haqida gapiring.

Dostonda qanday masalalar qo`yilgan?

Asardagi obrazlarga tahlil bering.

Dostondagi xalq og`zaki ijodining ta`sirini belgilang.

Adabiyotlar:

A.Qayumov. Qadimiyat obidalari. T.,1973.

Abu Mansur as-Saolibiy. Yatimat ad-dahr fi mahosini ahli al-asr. T.,1976.

B.To`xliyev. O`zbek adabiyoti. 9-sinf. Darslik. T.,2000.

Buyuk siymolar, allomalar. 1-kitob. T., 1995.

Darsliklar.

Firdavsiy. Shohnoma. 1,2,3-kitoblar. T.,1974-77.

H.Homidiy. Ko`hna Sharq darg`alari. T., 1999.

I.A.Karimov. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. 7-tom. Toshkent: O`zbekiston, 1999.

I.Abdullaev. Beruniyga zamondosh shoirlar. T.,1974.

Mahmud Qoshg`ariy. Devonu lug`otit turk. 3-tomlik. T., 1960-63.

N.Mallaev. O`zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. T.,1976.

O`zbek adabiyoti tarixi. 5-tomlik. 1-tom. T.,1978.

Q.Karimov. Ilk badiiy doston. T.,1976.

Qadimiy hikmatlar. T.,1987.

R.Vohidov. H.Eshonqulov. Mumtoz adabiyot-hikmat xazinasi. Buxoro, 2001.

Yusuf Xos Hojib. Qutadg`u bilig. T.,1990.

4-mavzu: XIII-XIV ASRLAR ADABIYOTI

XIII-XIV asrlarda adabiy-madaniy hayot.

XIII-XIV asrlar adabiyotining asosiy xususiyatlari.

Rabg`uziyning "Qissai Rabg`uziy" asari.

Sayfi Saroyi hayoti va ijodi.

Mavzuga oid tayanch so`z va tushunchalar: Mo`g`ul istilosi, Chingizxon, Muhammad Xorazmshoh, Jaloliddin Manguberdi; Muhammad Avfiy, Badriddin Chochiy, Jaloliddin Rumiy, Mulamma` – shir-u shaker, "Guldursun"; Rabg`uziy, adabiy manba, tarixiy manba, «Qisasi Rabg`uziy», Dovud hikoyati; Sayfi Saroyi, Oltin O`rda, «Suhayl va Guldursun», Sa`diy, «Guliston», Suhayl, Guldursun;

XIII-XIV asrlarda adabiy-madaniy hayot.

XIII asr va XIV boshlari Markaziy Osiyo xalqlari hayotida qayg`uli bir davrni tashkil etadi. Bu davr *mo`g`ul istilosi* bilan bog`liq. Shuning uchun ham bu davrdagi tarixiy sharoit, madaniy hayot, san`at va adabiyot mo`g`ul bosqinchiligi bilan uyg`un holda o`rganiladigan murakkab bir jarayon hisoblanadi.

Bu davr hayotini har tomonlama tasavvur qilish, o`rganish uchun manba bo`luvchi asarlar anchagina. Jumladan, *Rashididdinning* «Jome ut-tavorix», Juvayniyning «Tarixi jahonkushoy», Banokatiyning «Ravzatul-asbob...», Hamdulloh Qazvinining «Nuzhat al-qulub» (Nuzhat – huzur qilish, bezanish, qulub – qalblar) asarlari, shuningdek, Batuta, Vamberi, S.Tolstovlarning qaydlari ham xarakterlidir. Ko`pgina tarixchi olimlarimizning tadqiqotlari, yozuvchilarimiz Mirmuhsin va Muhammad Alining badiiy asarlari ham bu davr manzarasini tasavvur qilish imkonini beradi. Tarixdan ma`lumki, Markaziy Osiyo XIII asrning boshlarida *Chingizxon* boshchiligidagi mo`g`ul bosqinchilarining asoratiga tushib qoladi. XII asrning II yarmida vujudga kelgan Xorazm davlati XIII asr boshlarida, *Muhammad Xorazmshoh* (1200-1220) hukmronligi davrida tobora inqirozga yuz tuta boshladi.

1206-yilda Chingizxon boshchiligidagi mo`g`ullarning ilk feodal istilochilik harakatlari avj olib ketdi... *1219-yili* Chingizxon qo`mondonligidagi 150 mingdan ziyod mo`g`ul askarlari O`rta Osiyoga bostirib kiradi. Muhammad Xorazmshoh o`z qo`shinini bir joyga to`plash o`rniga, bo`lib-bo`lib shahardagi qal`alarga joylashtirdi. Bu mo`g`ullarning osonlik bilan mamlakatni bosib olishga qulaylik tug`dirdi. (B.Ahmedov. Tarixdan saboqlar. T.,1994. 418-bet).

Mo`g`ul bosqinining dahshatli oqibatlari haqida ko`p yozilgan. *H.Vamberi* Buxoro bosib olingandan keyingi holatni shunday tasvirlaydi: «Barcha uylar vayron qilindi, hamma sandiqlar buzildi. Behisob xazinalar talandi. Kitoblar yirtilib, hayvonlar oyog`i ostiga somondek sochildi. Muqaddas kitoblar saqlangan sandiqlarni otlarga oxur sifatida ishlatdilar. Ilm yulduzlari bo`lgan mullolar, shayxlar qullar kabi, e`tiborli jangchilarga xizmatkor qilib, goho esa, mo`g`ul baxshilariga masxara uchun berildi... mo`g`ullarning ushbu birinchi hujumidan keyin, shubhasiz, Buxoro ko`p ziyon ko`rdi va dahshatlarni boshidan kechirdi». (*H.Vamberi*. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T.,1990.23-bet).

Xalq mo`g`ul zulmiga qarshi, o`z mustaqilligi yo`lida jon berib jon oldi. Mahmud Torobiy, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi jasorati tillarda doston bo`ldi. Ayniqsa, Muhammad Xorazmshohning o`g`li *Jaloliddin Manguberding* mustaqillik yo`lidagi mardona kurashi hammaga saboq bo`larlidir. Shuning uchun ham Prezidentimiz *I.A.Karimov* Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi munosabati bilan so`zlagan nutqlarida shunday degan edilar: «*Sulton Jaloliddin siymosi nafaqat Xorazm, balki butun O`zbekistonning faxr-u g`ururidir. U bizning ozodligimizga, istiqlolimizga tajovuz qilmoqchi bo`lgan har qanday yovuz kuchga qarshi tik turib kurashishga, mardona zarba berishga qodirligimizning tasdig`i va timsolidir*». (*I.A.Karimov*. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimda so`zlangan nutq. 1999 yil 5 noyabr. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. 8-tom. Toshkent: O`zbekiston, 2000. 75-bet).

Shuning uchun ham hukumatimizning alohida e`tibori bilan *1999-yilda* uning 800 yilligi zo`r tantanalar bilan nishonlandi. Uning mahobatli haykali Urganchda salobat to`kib turibdi...

XIII-XIV asrlar adabiyotining asosiy xususiyatlari.

Chingiz istilosining dahshatli oqibatlari, xalqning ularga munosabati, nafrati, bosqinchilarga qarshi kurash, bu yo`ldagi qahramonlik g`oyalari *badiiy adabiyotda*, xalq og`zaki ijodida o`z ifodasini topdi.

Professor N.Mallaevning «O`zbek adabiyoti tarixi» kitobida yozilishicha, bizgacha yetib kelgan ayrim afsona, ertaklarda bu narsa tasvirlanadi. Kitobda arxeolog S.Tolstovning Xorazm bo`ylab olib borgan tadqiqotlari asosida Qoraqalpog`iston hududidagi *Guldursun* xarobalarining topilishi va u bilan bog`liq afsona keltiriladi. Unda xalq qahramonligi, mardona kurashi va ayni paytda xoinlarga munosabati o`z ifodasini topgan. (Izoh: afsona tahlil qilinadi).

Chingizxon istilosi yozma adabiyotga ham salbiy ta`sir ko`rsatadi. Bosqinchilar madaniyat yodgorliklarini, san`at va adabiyot asarlarini yo`q qilib yuboradilar. Ilm-fan, san`at vakillarining bir qismi janglarda halok bo`ladi, ayrimlari asir qilinadi. Ayrimlari boshpana izlab boshqa o`lkalarga ketib qolishga majbur bo`ladi. Buxorolik shoir, adib va adabiyotshunos *Muhammad Avfiy*, toshkentlik shoir *Badriddin Chochiy*, naxshablik (Qashqadaryo vodiysi) shoir *Ziyo Naxshabiy* va boshqalar bir muncha tinch bo`lgan Hindistonga borib, ijodiy ish bilan shug`ullanadilar. Ayrim olimlar, san`atkorlar va yozuvchilar Eron ga, Turkiyaga, Misrga va boshqa mamlakatlarga boradilar. Jumladan, shoir *Kamol Xo`jandiy*, *Nosir Buxoriy* va boshqalar Eron ga borib, o`sha erda turg`un bo`lib qolgan.

Ayrim ijodkorlar bir necha tilda ijod etadilar. Masalan, asli balxlik bo`lgan *Jaloliddin Rumi* Kichik Osiyoga borib, fors-tojik tilidagina emas, balki turk tilida ham asarlar yaratadi. *Husomiddin Osimiy* fors-tojik tilida, turkiy tilda va arab tilida ijod etadi. *Muhammad as-Samarqandiy* esa to`rt tilni – turkiy, fors-tojik, arab va mo`g`ul tillarini mukammal bilgan. Bu davrda mulamma`h – shir-u shakar (ikki yoki undan ortiq tilda asar bitish) janri taraqqiy etadi. Masalan, shoir Purbahoi Jomiy misralari uch tilda – turkiy, fors-tojik va mo`g`ul tillarida bitilgan qasida yaratadi.

Bu davr adabiyotdagi bo`shliqni to`ldirishda mashhur «Ma`naviyi masnaviy» asarining muallifi *Jaloliddin Rumi*ning xizmatlari buyukdir. U Mavlaviya tariqatining asoschisi sifatida o`z asarlarida tasavvufiy g`oya, istiloh va timsollardan keng foydalandi. Shuningdek, Sa`diy Sheroziy asarlari, Rabg`uziyning «Qisasi Rabg`uziy», Qur`oni karim mavzulari asosida Ali degan shoir tomonidan 1233-yilda o`g`uz lahjasida yozilgan «Qisasi Yusuf» dostoni, Pahlavon Mahmud, Badriddin Chochiy merosi ham xarakterlidir.

Rabg`uziyning "Qissai Rabg`uziy" asari.

Sayfi Saroyi hayoti va ijodi. Rabg`uziy XIII asrning oxirlari va XIV asrning boshlarida yashagan xorazmlik shoirdir. Uning asl ismi Nosiruddin bo`lib, Xorazmning Rabotu O`g`uz degan joyida tug`ilgan. Asarining muqaddimasida otasi Burhonuddinning O`g`uz Rabotining qozisi bo`lganligini aytib o`tadi. Asarda bu haqda: «*Bu kitobni tuzgan, toat yo`lida tizgan, ma`siyat yobonin kezgan, oz ozuqlik, ko`p yozug`luk G`yaxshiligi oz, gunohlari ko`pG` Rabot O`g`uzining qozisi Burhon o`g`li Nosiruddin...*» deb qayd etilgan. Rabg`uziy so`zini prof. N.Mallaev «Raboti o`g`uz»ning birikuvidan kelib chiqqan deydi. «Qisasi Rabg`uziy» asari o`zbek nasrining qadimiy namunasi. Bu asar islom dinini qabul qilgan mo`g`ul beklaridan biri bo`lgan *Nosiruddin To`qbug`aning* topshirig`i va homiyligida yozilgan. Asar hijriy 709-yil, melodiy 1309-10 yil, ba`zi manbalarda *1311-yil* yaratilgan deb ko`rsatiladi. To`qbug`a Rabg`uziyga payg`ambarlar haqida asar yozishni topshiradi va natijada «Qisasi Rabg`uziy» yuzaga keladi. Muallif asarni bir yil zahmat chekib tugatganini qayd etadi. «Qisasi Rabg`uziy»ning turli davrlarda ko`chirilgan bir necha qo`lyozma nusxasi mavjud. Ular dunyoning turli kutubxona va qo`lyozma fondlarida saqlanadi. Asarning eng qadimiy qo`lyozma nusxasi XV asrda ko`chirilgan bo`lib, u Britaniya muzeyida saqlab kelinmoqda. Gronbek tomonidan 1948-yili Kopengagenda nashr qilingan. Manbalarga qaraganda, XV asr *London nusxasi* 1340-yilda Rabg`uziy tiriklik davrida ko`chirilgan. XV-XVI asrlarga mansub *Sankt-Peterburg*, XIX asrga oid *Toshkent nusxalari* mavjud. XIX asrning II yarmi va XX asrning boshlarida Toshkent, Qozon shaharlarida bir necha marta nashr etilgan. Asarning to`la matni ilk marta rus turkiyshunos olimi *N.Ilimskiy* tomonidan 1859-yili Qozon shahrida e`lon qilingan. Ushbu asar Radlov, Tomsen, Melioranskiy, Malov, Kononov, Bosim Atalay kabi xorijiy turkiyshunos olimlar, Fitrat, N.Mallaev, T.Fafurjonova, I.Ostonaqulov kabi o`zbek olimlari tomonidan tadqiq qilingan.

Rabg`uziy ushbu asarni yozishda Qur`oni karim, hadislar, Abu Ishoq Nishopuriy asari, islomga oid turli kitoblar, shuningdek, Hasan Basra, Jobir ibn Ansoriy kabi qissago`ylar ijodidan foydalangan. Asarni o`qir ekanmiz, Rabg`uziyning o`nlab bunday asarlardan ijodiy foydalanganligining guvohi bo`lamiz. Bu manbalar ikkiga bo`linadi:

1. *Adabiy manbalar.*

2. *Tarixiy manbalar.*

Adabiy manbalarga, avvalo, Qur`onga yozilgan tafsirlarni, so`ng Ishoq Nishopuriy, Abul Hasan Kisoiy qissalarini kiritish mumkin. «Qisasi Rabg`uziy»da Muhammad payg`ambar hayotigacha bo`lgan qissalar bevosita Qur`on sharhi vazifasini bajargan badiiy asarlar, ikkinchi guruhga Imom Ismoil Buxoriyning «Al Jome al sahih», Abu Iso at Termiziyning «Shamoili nabaviya» kitoblarini kiritish mumkin.

Rabg`uziy payg`ambarlar haqidagi qissalarda olam va odam haqidagi qarashlarini badiiy ifodalashga harakat qilgan. Qissalar asosini tarixiy voqealar tashkil etadi. Asar 72 qissadan iborat. Qissalar mavzu jihatdan rang-barang. Olamdagi butun mavjudot egasi bo`lgan Ollohni ulug`lash, payg`ambar hayotiga doir lavhalarni eslash, kamtarinlik va takabburlik, ota-ona va farzand munosabatlari, vatan va mehnatsevarlik, erk va adolat, do`stlik va hamjihatlik, urush va tinchlik kabilar shular jumlasidandir.

Asarda Nuh, Dovud, Sulaymon, Iso, Muso, Yusuf, Ya`qub, Ismoil, Ibrohim kabi payg`ambarlar, Luqmoni hakim haqidagi hikoyatlar keltirilgan.

Asarda odamning, yer yuzi, ko`k, jin, farishtalarning yaratilishidan boshlab ma`lumotlar keltiriladi. Mana olamning yaratilishi haqidagi xabar: «*Xabarda andog` kelur: Yakshanba kun ko`klarni yaratti, dushanba kun oyni, kunni, yulduzlarni yaratti, falak ichinda turitti, seshanba kun olam xalqinda qush-qurtlarni, farishtalarni yaratti, chahorshanba kun suvlarni yaratti, ellarni, bulutlarni chiqardi, yig`ochlarni, o`t- yemlarni yaratti, undurdi. Ro`zilarni ulashturdi. Payshanba kun ujmox, tamug`ni, rahmat va azob farishtalarni yaratti, hurlarni yaratti. Azina kun odamni yaratti. Shanba kun narsa yaratmadi*». «Qisasi Rabg`uziy». 12-bet.

Odamning yaratilishi haqida ham gap boradi. Jabroil, Isrofil, Mekoil tuproq olib kelishga buyuriladi. Ular qilmagan ishni Azroil bajaradi. Shu uchun ham jonzotlar jonini olish unga

topshiriladi. Odamni tuproqdan yaratadi. Tog`, Tengiz, Ko`k ulardan yaratishni talab qilishadi. Tuproq jim turgani bois undan yaratiladi 17-bet.

«*Qissai Qobil va Hobil*»da tasvirlanishicha, Qobil bilan Iqlimo, Hobil bilan Abudo tug`iladi. Iqlimo go`zal. Abudo ko`rksiz edi. Qobilga Abudo beriladigan bo`ldi, u ko`nmadi. Odam ularga qurbonlik qilishni, kimning qurbonligi qabul bo`lsa, Iqlimo berilishini aytdi. Hobilning qo`yi qabul bo`ldi. Qobil tosh bilan urib Hobilni o`ldirdi. Qarg`alarga qarab, Hobilni yerga qo`ydi. Odam ko`mish shundan qoldi. 30-31- betlar.

Nuh va kema bilan bog`liq hikoyat ko`pchilikka yaxshi tanish. Bayoni beriladi, tahlil qilinadi.

Hazrati Dovud haqidagi qissa ham e`tiborli. Qissa Dovudning ta`rifi bilan boshlanadi. Undan keyin Dovud haqidagi umumiy tasavvurlar bayon etiladi: “Dovud yalavoch (payg`ambar) bani Isroildan erdi. O`n qarindosh erdilar, otalari Isho`otlig`. Dovud qamug`idin (barchasidin) kichik erdi. Tun-kun yig`layur erdi ibodat ichinda” Dovud payg`ambar bilan bog`liq bir necha hikoyatlar beriladi. Adolat bilan hukm qilishi, kechalari raiyat holi bilan tanishishi, bir kampir qiyofasidagi farishta u xalq molini yeyishini aytishi, so`ng Dovud payg`ambar temirchilikni o`rganishi bayon qilinadi.

Asarda Muso payg`ambar, Sulaymon va qarinja, Sulaymon va kursisi, Sulaymon va Bilqis haqidagi, Yunus, Ilyos, Xizr, Luqmoni hakim, Iso, Iskandar haqidagi qissalar ham e`tiborlidir. Asarning katta qismi payg`ambarimiz Muhammad hayotlariga bag`ishlangan. Rabg`uziy haqida gap ketganda uning *she`riyati* haqida ham so`zlash joiz. Chunki har bir qissa boshida yoki oxirida keltirilgan she`rlar bundan dalolat beradi. Ayrim g`azallar voqealar ichida ham beriladi. Bular Rabg`uziyning turkiy aruz va barmoq vaznini yaxshi egallaganidan guvohlik beradi. Ushbu asarda *600 misra she`r* o`rin olgan bo`lib, bular g`azal, ruboiy, qit`a, to`rtlik, qasida janrlarida bitilgan. Bahorni, Navro`zni madh etuvchi she`r bor. Rabg`uziy asarida *xalq og`zaki ijodining* ham chuqur ta`siri seziladi. Masalan: Bani Isroil ularga 12 baquvvat, baland bo`yli kishilarni yuborishadi, bog`bon kelib ularning oltitasini bir engiga, yana oltitasini ikkinchi engiga solib oladi. Ularni qo`l-oyoqli qurtlar deb ataydilar. Yoki Muso payg`ambar hassasini erga sanchsa mevali daraxt, dushmanga qarshi ilon, daryodan o`tishda ko`prik vazifasini bajaradi. Yoki Yusufning akasi Yahudo na`ra tortsa, Misr eli hushsiz yiqiladi va hokazo.

4. Sayfi Saroyi hayoti va ijodi.

Sayfi Saroyi XIV asrda yashab ijod qilgan turkiy adabiyot vakillaridan biridir. U adabiyotimizda shoir va tarjimon sifatida o`z o`rniga ega.

Manbalardan ma`lum bo`lishicha, Sayfi Saroyi 1321-yilda Qamishli yurtida tug`ilgan. *Qamishli* – Xorazmdagi qishloqlardan birining nomi. Ammo u nom Volga bo`yida ham ko`p uchraydi. U Qamishlidan bilimini oshirish uchun Saroyga keladi. *Saroy* – Oltin O`rda davlatining poytaxtidir. Shoir shu yerda yashab turgan davrida «Saroyi» degan taxallusini olgan. *Sayfi* – uning ismi bo`lib, «Qilich» degan ma`noni bildiradi. (B.To`xliev. 9-sinf. 189-190-betlar).

Sayfi Saroyining yashab ijod qilib o`tgan davri tarixda O`zbekxon o`g`li Tinibek va Jonibeklarning hukmronligi davriga to`g`ri keladi. XIII asrdagi mo`g`ullar istilosi mamlakatni izdan chiqargan edi. Bu bosqin tufayli ko`plab kishilar qirildi. Ko`plab shoirlar o`zga yurtlarga ketib qoldi. Sayfi Saroyi ham shulardan biri edi. U shunday yozadi:

O`sib tuprog`im uzra nayzalar, men eldin ayrildim,
Vatandin benishon o`ldimda, o`zga yurtga evrildim.
Nechun menga falak javr ayladi, qanday gunohim bor?
Iloho ayta kam jabring, men elga sodiq ul erdim.

Demak, Sayfi Saroyi Movarounnahrda, Oltin O`rda davlatining poytaxti Saroyda yashab ijod qilgan. Misr va Turkiyada ham yashagan. Adib taxminan 1396 yilda vafot etgan.

Sayfi Saroyining o`zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo`shgan hissasi bebahodir. Undan bizgacha, bir qancha g`azal, qasida, qit`a, ruboiylar, «Suhayl va Guldursun» dostoni, «Sinbondnoma», «Guliston» kabi asarlarining erkin tarjimalari yetib kelgan. Bulardan tashqari, Sa`diy «Guliston»i

tarjimasiga kiritilgan original she`riy parchalar, masnaviyalar ham Sayfi Saroyi qalamiga mansubdir. Shoir g`azallarida shakl va mazmun birligini birinchi o`ringa qo`yadi.

Sayfi Saroyining lirik she`rlari miqdor jihatdan juda oz. Devon tariqasida tartib berilmagan. Bizgacha undan faqat «Gulistoni bit-turkiy» asarining kirish qismidagi va so`nggi varaqlaridagi «Ko`ngul», «Topulmas», «Ko`zlaring», «Taolalloh zehi surat», «Ul yuzi oy», «Yangi oy», «Qamar yuzingdin», «Erur», «Tutar», «Meningtek nechalar hayron», «Ko`rinur» kabi g`azallari va bir «Bahor tasviri» she`ri yetib kelgan. Shu she`rlar ham shoir she`riyati haqida ma`lum tasavvur uyg`otadi.

Sayfi Saroyining «Suhayl va Guldursun» dostoni ham xarakterlidir. Bu doston haqida manbalarda ma`lumot yo`q edi. 1966-67 -yillarda farg`onalik Kamolxon Sultonov degan kishining qo`lida saqlangan qo`lyozma asosida u topildi. Doston asosida dunyoviy ishq yotadi. Sevgida vafodorlik, mardlik tarannum etiladi. Manbalarda qayd etilishicha, doston 1394-yilda yozilgan. Dostonning qisqacha sujeti shunday: Amir Temur Urganchga hujum qiladi. Ko`p kishi asir olinadi. Ular orasida Suhayl ham bor edi. Temurning qizi Guldursun Suhaylni ko`rib sevib qoladi. Guldursun qorovullarni mast qilib, Suhaylni banddan ozod qiladi. Ular qochadilar. Sahroda ochlik va suvsizlikdan Guldursun holsizlanib qoladi. Uzoq qishloqqa suv izlab ketgan Suhayl qaytib kelganda Guldursun vafot etgan bo`ladi. Dahshatga tushgan Suhayl shunday qarorga keladi:

Menga yaxshi bukun yor birla o`lmak,
Na lozim g`am bilan dunyoda qolmak.

U o`ziga tig` sanchadi va halok bo`ladi. Shamol bo`lib, ularning jasadini qumlar bilan ko`madi.

Sayfi Saroyining bulardan tashqari, Sa`diyning «Guliston» asarini tarjimasini hisoblangan «Gulistoni bit-turkiy» asari ham yetib kelgan. Olimlarimizning qayd etilishicha, hijriy 793, melodiy 1390-91 yillarda tarjima qilingan bu asar fors-tojik shoiri Sa`diy Sheroziyning «Guliston» asarining o`zbek tilidagi eng birinchi ijodiy tarjimasidir. Sa`diy bu asarni 1258-yilda yozgan edi. Sayfi Saroyi «Gulistoni bit-turkiy» asarining jahon bo`yicha birdan-bir nusxasi Leyden universitetining kutubxonasida saqlanmoqda. Bu qo`lyozmaning fotonusxasi Moskva va Toshkentda ham saqlanmoqda. Farg`onada topilgan «Yodgornoma»da bor.. Sayfi Saroyi «Guliston»ning asosiy mag`zini olib uni o`z zamonasi ruhini aks ettiruvchi yangi hikoyatlar, qit`a va baytlar bilan to`ldirib, ona tilida xalqiga taqdim etadi. Sayfi Saroyi «Guliston»idagi hikoyatlar quyidagi boblarga bo`lingan:

Birinchi bob-sultonlar haqidagi hikoyatlar.

Ikkinchi bob-faqirlar axloqi haqidagi hikoyatlar.

Uchinchi bob-qanoatning foydasi haqidagi hikoyatlar.

To`rtinchi bob-sukutning foydasi haqidagi hikoyatlar.

Beshinchi bob-ishqdagi yigitlik sifati haqidagi hikoyatlar.

Oltinchi bob-qarilikdagi zaiflik sifatlari haqida.

Yettinchi bob-tarbiyaning ta`siri haqida.

Sakkizinchi bob-suhbat odoblari haqida.

Har hikoyatning oxirida masal yoki falsafiy chekinishlar mavjud. Masallar, to`rtlik, baytlar shoirning mulohazalarini tasdiqlash uchun xizmat qilgan.

Asardagi hikoyatlar mavzulari rang-barang bo`lganidek, obrazlar ham xilma-xildir. Shohlar, vazirlar, amaldorlar, ruhoniylar, olimlar, hunarmandlar, dehqonlar, darveshlar, o`g`rilar, pahlavonlar, savdogarlar va boshqalar. Shartli tarzda nomlanuvi «Asir, podsho va vazir» haqidagi (asir podshoni so`kishi, ikki vazir ikki xil talqin etishi), («Podsho va uch o`g`li») kichik o`g`ilning ko`rimsiz, ammo jasurligi), «Malik, qul va kema», «No`shiravon va kiyik ovlash», «Tosh bilan bog`liq hikoyat», «Pahlavon va shogirdi» (shogirdning xiyonati va 360 usul), «Pahlavon va so`kish», «O`g`ri, shoir va itlar» kabi hikoyatlar xarakterlidir.

Umuman, «Gulistoni bit-turkiy»dagi hikoyatlarni o`qish, undagi mazmun va mohiyatni anglash, hikoyatlardagi qiziqarli tasvirlar har bir o`quvchini o`ziga rom eta oladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

XIII asr va XIV asr boshlaridagi tarixiy sharoit qanday edi?

Mo`g`ul istilosi haqida tarixdan nimalarni bilasiz?

Bu davrga oid qanday manbalarni bilasiz?
Mo`g`ul istilosi davrida yozma adabiyot qay holatda bo`ldi?
Bu davrni aks ettiruvchi qanday badiiy asarlarni o`qigansiz?
Rabg`uziy ijodi haqida nimalar bilasiz?
«Qisasi Rabg`uziy» qanday asar?
«Qisasi Rabg`uziy» asari uchun qaysi manbalar asos bo`lgan?
Rabg`uziy she`riyati haqida gapiring.
Asardagi qissalar mohiyati nimada?
Payg`ambarlar bilan bog`liq hikoyatlardan misol keltiring.
Sayfi Saroyi kim?
Sayfi Saroyining qanday asarlarini bilasiz?
Sayfi Saroyi she`riyatidan misol keltiring?
«Suhayl va Guldursun» dostoni qanday asar?
«Gulistoni bit-turkiy»dagi hikoyatlardan misol keltiring.

Adabiyotlar:

B.Ahmedov. Tarixdan saboqlar. T., 1994.
B.To`xliev. O`zbek adabiyoti. Darslik. 9-sinf. T., 2000.
Darsliklar.
E.Fozilov. XIV asr Xorazm yodnomalari. T., 1973.
H.Safarova. Rabg`uziyning «Qissai Yusuf Siddiq alayhis-salom» asari manbalari va g`oyaviy-badiiy tahlili. Nom.diss.avto. Samarqand-2001.
I.A.Karimov. Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimda so`zlangan nutq. Manba: Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. 8-tom. Toshkent: O`zbekiston, 2000.
I.Ostonaqulov. Qissas-ar-Rabg`uziy-adabiy asar. Kan.diss.avtor. T.,1993.
K.Imomov. O`zbek xalq prozasi. T.,1981.
Mirmuhsin. Temur Malik. Roman. T.,1996.
N.Mallaev. O`zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. T.,1963.
N.Mallaev. O`zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. T.,1976.
O`zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 1-tom. T.,1978.
O`zbekiston xalqlari tarixi. 1 jild. T.,1992.
R.Vohidov, H.Eshonqulov. Mumtoz adabiyot-hikmat xazinasini. Buxoro-2001.
Rabg`uziy. Qisasi Rabg`uziy. 2-kitob. T.,1992.
Sa`diy. Guliston. T.,1968.
Sayfi Saroyi. Guliston bit-turkiy. Uch bulbul gulshani. To`plam. T.,1986.
Sayfi Saroyi. She`rlar. T.,1968.

5-mavzu: XIV ASR O`RTALARIDAN XVII ASRGACHA BO`LGAN ADABIYOT

Reja:

XIV asr o`rtalaridan XVII asrgacha bo`lgan davrda adabiy-madaniy hayot.
XIV asr o`rtalaridan XVII asrgacha bo`lgan davr adabiyotining asosiy xususiyatlari.
Atoiy ijodining o`ziga xosliklari.
Lutfiy hayoti va ijodi.

Mavzuga oid tayanch so`z va tushunchalar: Temuriylar davri, badiiy adabiyot, adabiy janrlar, Atoiy, Otoiy, badiiy vosita, Ismoil ota, turkona, she`riyat va xalq og`zaki ijodi, Lutfiy, «Zafarnoma», Mavlono, «Sensan sevarim...», Hirot, Dehikanor.

1. XIV asr o`rtalaridan XVII asrgacha bo`lgan davrda adabiy-madaniy hayot.

X-XII asrlar Sharq madaniyatida ilk Uyg`onish davri sifatida tilga olinadi. Bu davrda barcha sohalarda yuksak taraqqiyotga erishilganligini yaxshi bilamiz. Ana shunday bir yuksak rivojlanish 1219-yilda Markaziy Osiyoga mo`g`ullarning bostirib kirishi munosabati bilan tanazzulga yuz tutdi. Mo`g`ullarning jabr-zulmiga qarshi xalq noroziligi kuchaydi. Bu kurashlardan eng yirigi *1337-yilda Sabzavorda* bo`lgan harakatdir. Ana shunday bir davrda *Amir Temur* maydonga chiqdi. Mamlakat hayotida juda katta rol o`ynaydi. U xonavayron bo`lgan Movarounnahr va Xuroson o`lkalarini birlashtirdi, mustaqil va mustahkam davlat tuzdi, uning poytaxti qilib Samarqandni sayladi. Temur davlati paydo bo`ldi. Temur vafotidan so`ng ham XVI asr boshlariga qadar uning avlodlari hukmronlikni davom ettirdilar.

Olimlarimiz haqli ravishda XIV asr oxiri va XV asrning o`rtalarini Markaziy Osiyodagi so`nggi *Uyg`onish davri* sifatida ta`kidlaydilar. Bu davrda arab tili qisman fan tili bo`lib qolsada, asosan, ilm va badiiy adabiyot turkiy va forsiy tillarda yaratildi, ularning mavqei yuksaldi. Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma», Abro` «Zubdat-ul-tavorix», Abdurazzoq Samarqandiy «Matlai-sa`dayn», Xondamir «Xulosat-ul axbor», «Habib-us-siyar», ispan sayyohi Klavixo kundaliklari, Herman Vamberi «Buxoro tarixi», Bartold «Ulug`bek va uning davri», I.Mo`minov «Amir Temurning O`rta Osiyo tarixida tutgan o`rni va roli» nomli tadqiqoti, Bo`rivoy Ahmedov, Turg`un Fayziev kabilarning asarlari yaratildi. Bu o`rinda «Temur tuzuklari» kitobini eslatib o`tish o`rinlidir. Temuriylar davrida madaniyat yangi bosqichga ko`tarilib, Markaziy Osiyoda qadimgi yunon va hind olimlarining riyoziyot, tibbiyot, kimyo va boshqa sohalardagi tadqiqotlari keng tarqaldi. Arastu, Aflotun, Ptolimey va boshqa olimlarning ishlari Markaziy Osiyo olimlari uchun yaxshi tanish edi.

Temur davrida, ayniqsa, *XV asrning II yarmidan* boshlab qurilish va obodonchilik ishlariga e`tibor berildi. Ko`ksaroy, Shohizinda, Keshda Oqsaroy, Samarqandda Bog`i shamol, Bog`i dilkusho, Bog`i chinor kabi *bog`lar*, Amudaryoda va Samarqandda ko`priklar, karvonsaroylar, ko`plab *madrasa va hammomlar* bunyod etildi. Ulug`bek davrida Samarqandda 1411-20 yilda ulkan madrasa, 1432-33 yillarda G`ijduvonda madrasalar qurildi. Bu davrdagi yirik qurilishlardan biri Ulug`bek rasadxonasidir. Bu davrda madaniyatning rivojlanishida qo`shni mamlakatlar bilan olib borilgan aloqalar ham muhim rol o`ynadi.

Bu davrda *tasavvuf ta`limoti* ham keng rivojlanadi. Temur mutasavvuf olimlarga hurmat bilan munosabatda bo`ladi. Naqshbandiya tariqatining targ`ibotchilaridan biri bo`lgan Said Mir Kulolni o`ziga pir deb bildi. Yassaviy qabriga maqbara o`rnatishi ham Temurning shayxlarga bo`lgan munosabatini ko`rsatadi. XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf ta`limotining *So`fi, Charxiy, Xo`ja Ahror* kabi yirik vakillari Naqshbandiya tariqatiga doir ko`plab risolalar yaratish bilan birga bu davr madaniyatiga nufuzli ijobiy ta`sir ko`rsatgan. Bu davrda Xo`ja Ahrori Valining beqiyos xizmati bordir. *Jomiy, Navoiy, Qosimiy, Lutfiy, Bobur* kabi shoirlar ham tasavvufni targ`ib etdilar.

«Sharq Rafaeli» deb nom qozongan *Kamoliddin Behzod* o`z ijodi bilan Sharqda emas, Yevropada ham mashhur bo`ldi. «Hattotlar sultoni» nomini olgan Sulton Ali Mashhadiyni esga olish mumkin. XIV-XV asrlarda fanning turli sohalari: tibbiyot, riyoziyot, handasa, jo`g`rofiya, falakiyot, tarix, mantiq, adabiyot, falsafa, axloqshunoslik va boshqa fanlar taraqqiy etdi. Adabiyot va adabiyotshunoslik yuksaldi. Movarounnahr, Xurosonning boshqa shaharlarida ko`plab shoirlar yetishib chiqdi. Falakiyot ilmining rivojida *Ulug`bekning* va u asos solgan maktabning o`rni katta bo`ladi.

2. XIV asr o`rtalaridan XVII asrgacha bo`lgan davr adabiyotining asosiy xususiyatlari.

XIV asr o`rtalaridan XVII asrgacha bo`lgan davr *o`zbek adabiyotining* eng sermahsul va taraqqiy etgan bir davridir. Bu davr adabiyoti ham mazmun, ham janr jihatidan rivojlandi, ijod bilan shug`ullanuvchi ko`plab shoirlar yetishib chiqdi. *Alisher Navoiy* «Majolisun nafois» tazkirasida 459 ga yaqin shoir haqida ma`lumot beradiki, ularning ko`pchiligi mana shu davrda yetishib chiqqan edi.

Bu davrda turkiy tilda ijod qilish o`ziga xos an`anaga aylana boshladi. Bu davr adabiyotining rivojlanishida, turkiy adabiyotning taraqqiyotida temuriylarning, ayniqsa, Amir Temur, Boysung`ur Mirzo, Shohrux Mirzo, Ulug`bek, Husayn Boyqaro, Bobur va boshqalarning xizmati kattadir. Bu davrda *xalq og`zaki ijodi* ayniqsa rivojlandi. Ko`plab afsona, rivoyat, hikoyatlar yuzaga keldi. A.Temur, A.Navoiy, Ulug`bek, H.Boyqaro, Xo`ja Ahror keyinchalik esa Shayboniyxon obrazlari bilan bog`liq turli afsonalar yuzaga keldi. Bu jihatdan «Amir Temur o`g`itlari» va «El desa Navoiyni» kitoblaridagi hikoyat va afsonalarga e`tiborni qaratish kifoya. Ulardagi «Amir Temur va kampir», «Amir Temur va qo`y hadya etish», «Amir Temur va kabutar», «Amir Temur va ot sug`organ ayol» kabi hikoyatlarda A.Temurning donishmandligi, saxovati, jonivorlarga muhabbati, har ishdan xulosa chiqara olishi aytiladi.

A.Navoiy bilan bog`liq afsona va hikoyatlarda «Navoiy va bulbul», «Dono savdogar», «Navoiy o`tdi ko`changdan», «Mir Alisher bilan sulton Husayn» kabi afsonalarda Navoiyning oliyjanoblighi, donolighi, xalqparvarlighi, adolat egasi ekanlighi va boshqalar xususida gap boradi.

XIV asrda Qutb, Sayfi Saroyi, Xorazmiy kabi shoirlar, XV asrning birinchi yarmida Durbek, Haydar Xorazmiy, Amiriy, Yaqiniy, Ahmadiy, Atoiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Gadoiy, Lutfiy, XV asrning ikkinchi yarmida A.Navoiy, Husayniy, XVI asrda Bobur, Muhammad Solih, Majlisiy, Shayboniy, Ubaydiy, Xo`ja kabi shoirlar ijod qildilar.

Bu davrda tarjima adabiyoti ham rivojlandi. Qutb Nizomiyning «Xusrav va Shirin» asarini, Haydar Xorazmiy «Maxzanul asror»ni, Mas`ud ibn Ahmad Sa`diyning «Bo`ston» asarini, S.Saroyi «Guliston» asarlarini tarjima qildi.

Lutfiy Sh.A.Yazdiyning «Zafarnoma»si asosida doston yozdi. Umumun, bu davrlar o`ziga xos yuksalish, taraqqiyot davri sifatida e`tiborlidir.

3. Atoiy ijodining o`ziga xosliklari.

Atoiy XV asr birinchi yarmiga mansub shoirlarimizdan biridir. U bu davrda yashab ijod qilgan Haydar Xorazmiy, Gadoiy, Sakkokiy, Lutfiy, Durbek, Hofiz Xorazmiy va boshqa shoirlar qatori turkiy adabiyotning rivojlanishiga, keyinchalik Navoiydek buyuk zotning yetishib chiqishiga zamin hozirlaydi. Atoiy haqida Navoiyning «Majolis-un nafois» va «Muhokamat-ul lug`atayn» asarida, Yaqiniyning «O`q va yoy» munozarasida ma`lumotlar berilgan.

Mavlono Atoiydan bizgacha 260 ta turkiy g`azallarini o`z ichiga olgan devon yetib kelgan. U Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik institutining qo`lyozmalar fondida saqlanadi.

Atoiyning hayoti va ijodi haqida yetarlicha ma`lumot saqlanib qolmagan. *Navoiyning «Majolis-un nafois»* asarida Atoiy haqida quyidagi ma`lumotlar yozilgan: «Mavlono Atoiy Balxda bo`lur erdi. Ismoil ota farzandlaridandir, darvesh, va xushxulq va munbasit (ochiq ko`ngil, xushhol, shod-xandon) kishi erdi. Turkigo`y erdi. O`z zamonida she`ri atrok (turklar) orasida ko`b shuhrat tutti va bu matla` aningdurkim:

Ul sanamkim suv qirog`inda paridek o`lturur,

Foyati nozukligidin suv bila yutsa bo`lur.

Qofiyasida aybg`inasi bor. Ammo mavlono ko`b turkona (sodda va xalqona) aytur erdi. Qabri Balx navohisidadur».

Navoiyning bu ma`lumotidan aniqlanadiki, Atoiy nasl-u nasab jihatidan bir-ikki avlod orqali Ahmad Yassaviyga yaqin turgan. Mashhur shayxlar – otalar avlodidan bo`lgani uchun o`ziga «Atoiy» taxallusini tanlagan.

Atoiy qayerda va qachon tug`ilganligi, asl ismi noma`lum.

Uning nasl-nasabi mashhur shayxlar-Ismoil ota, Ibrohim ota, Ahmad Yassaviylarga borib taqaladi. Atoiyning Samarqand, Toshkent, Turkiston shaharlarida yashaganligi, yashagan bo`lsa qancha muddat turganligi aniq emas.

Atoiyning taxallusi hozirda Atoiy, Otoiy, Otoiy tarzida har xil yozib kelinmoqda. Bularning qaysi to`g`ri ekanlighi matbuotda jiddiy munozaralarga olib keldi. Ko`plab bahslar, munozaralarga bu so`zning o`zagi, qo`shimchalari haqida fikr yuritildi. Olimlarimiz Atoiy shaklida tadbiiq etish va atash haqiqatga muvofiq deb hisoblamogdalar.

Atoiy g`azallari devonda tartib bilan joylashtirilgan. Shoir lirik merosining umumiy hajmi 1718 bayt, 3436 misrani tashkil etadi.

XV asr birinchi yarmida ko`plab shoirlar qatori Atoiy ham turkiy g`azalchilikning rivojlanishiga munosib ulush qo`shdi. Bu davrda ham g`azal janri yetakchilik qildi. Shoir g`azallari mavzu jihatdan rang-barang. Ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

Oshiqona g`azallar.

Diniy-tasavvufiy g`azallar.

Peyzaj xarakteridagi g`azallar.

Atoiy lirikasi *badiiy tasvir vositalarining* ko`p qo`llanganligi bilan ham xarakterlanadi.

Bunda juda ko`p an`anaviy obrazlar, mifologik obrazlar, payg`ambarlar obrazlari ko`zga tashlanadi. Ma`shuqa, oshiq o`zlarining turli sifatleri bilan pariga, Xizrga, Yusuf, Ya`qub, Farhod, Shirin, Iso, Ayyub va boshqa obrazlarga qiyoslanadi. Atoiy juda ko`p ma`naviy va lafziy san`atlardan ham foydalangan. Iyhom, tajohuli orif, talmeh, tamsil, lafu nashr, mubolog`a, tashbeh, lug`z kabi ma`naviy san`atlar, takror, tardi aks, tarse, tajnis, ishtiyoq kabi lafziy san`atlar shular jumlasidandir.

Iyhomga misol:

Ne shirin o`g`ridur og`zing olib ko`nglumni to`yguncha,
Yoshundi har necha so`rsam, topilmas infiolindin.

Tajohuli orif:

Mengiz yo ravzai rizvonmudur bu?
Og`iz yo g`unchai xandonmudur bu?

Mubolag`a:

Firoqingda ko`zum sarchashmasindin,
Qilurman har qayon boqsam tengizlar.

Umuman, Atoiy she`riyati xalqimiz tomonidan sevib o`qilaveradi.

Lutfiy hayoti va ijodi.

Mavlono Lutfiy XIV asrning oxiri XV asrda yashab ijod qilgan turkigo`y shoirdir. Lutfiy ko`pincha «*mavlono*» atamasi bilan birga tilga olinadi. «O`zbek tilining izohli lug`ati»da Mavlono so`ziga shunday izoh berilgan: «Musulmon sharqida olim va fozil kishilarni, ustozlarni ulug`lab, ularning nomlariga qo`shib ishlatiladigan so`z». Demak, Lutfiy nomiga Mavlono so`zining qo`shilishi o`z zamondoshlarining yuksak e`tibori va hurmatidan dalolatdir. Shoir o`z davrida sharqda juda shuhrat qozonadi.

Lutfiyning hayoti va ijodi haqidagi ma`lumotlar ko`p emas. Shoirning tug`ilgan va vafot etgan yillari *1366-1465-66 yillar* deb ko`rsatiladi. A.Navoiyning «Majolis un-nafois» asarida yozilishicha, u 99 yil umr ko`rgan. Lutfiy nomi ba`zi manbalarda Lutfillo deb ataladi. Shunga ko`ra uning nomi *Lutfillo*, shu asosda Lutfiy taxallusini olgan degan xulosa keltiriladi. Lutfiyning tug`ilgan joyi Hirotning Dehikanor degan maskani deb ko`rsatilar edi. Professor A.Hayitmetov «Dilimizga juda yaqin» nomli maqolasida (O`z AS. 1998, 17 aprel) shunday ma`lumotlarni keltiradi: «Lutfiy asli shoshlik (boshqacha aytganda Toshkentlik) bo`lib, taqdir toqazosi bilan qachondir Hirotga borib, o`sha yerda o`rnashib qolgan».

Lutfiy haqida ko`pgina *manbalarda* ma`lumotlar qayd etilgan. Jumladan, Navoiyning «Majolis un-nafois», «Muhokamatul-lug`atayin», «Xutbai davovin», «Nasoyim ul-muhabbat», «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Manoqibi Pahlavon Muhammad» singari asarlarida Lutfiyga yuqori baho beradi. Navoiy «Majolis un-nafois»da shunday yozadi: «*Mavlono Lutfiy o`z zamonining ma`likul kalomi erdi. Forsi va turkiyda naziri yo`q erdi. Ammo turkiyda shuhrati ko`proq erdi va turkcha devoni mashhurdir va muttazirul javob matla`lari bor. Ul jumladan biri bukim:*

Noziklik ichra belicha yo`q tori gisuyi,

O`z haddini bilib belidin o`ltirur quyi.

Yana biri budurkim:

Sayd etti dilbarim meni oshufta sochtin

Soldi kamon bo`ynima ikki qulochdin.

Va mavlononing «Zafarnoma» tarjimasida o`n ming baytdin ortiqroq masnaviysi bor. Bayozda yozmagan uchun shuhrat tutmadi. Va lekin forsida qasidago`y ustodlardin ko`pning mushkul she`rlariga javob aytubdur va yaxshi aytibdur. 99 yashadi... bu faqir borasida ko`p fotihalar o`qibdur. Umid ulkim, chun darvesh kishi erdi... Mavlononing qabri shahr navohisida Dehikanordakim, o`z maskani erdi andadur».

Lutfiy haqida D.Samarqandiyning «Tazkirat ush-shuaro», Xondamirning «Habibus-siyar», «Makorimul axloq», Qobuliyning «Tazkirat ut-tavorix», Vozehning «Majmuai mansur va manzum», Shamsiddin Somening «Qomus ul-a`lom» asarlarida ham ma`lumotlar uchraydi. O`zbek adabiyotshunosligida Lutfiy merosini o`rganish bo`yicha ancha ishlar amalga oshirildi. Bu jihatdan N.Mallaev, E.Rustamov, Hodi Zarif, Sodir Erkinov, E.Ahmadxo`jayev, A.Hayitmetov, H.Rasulov va boshqa olimlarimizning tadqiqotlari xarakterlidir.

Lutfiydan juda katta adabiy meros qolgan. Qadimgi manbalarda uning 20 dan ortiq asar yozgani qayd etiladi. Ammo ular bizgacha hali noma`lum qolmoqda. Lutfiy Shohruh Mirzoning taklifi bilan Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarini tarjima qilishga ham kirishgan edi.

Lutfiy merosining kattagina qismini uning turkiy tildagi *devoni* tashkil etadi. F.f.doktori, prof. S.Erkinov Lutfiy haqidagi tadqiqotida qadimgi Sharq manbalarida Lutfiyning axloq-odob mavzusida «Mashkun ul-haqoyiq» nomli asar yozganligi eslatilishini qayd etadi. Shuningdek, xo`tanlik Mulla Ismatullaning «Tarixi musiqayun» asarida Lutfiyning musiqa tarixi bilan ham shug`ullanganligi, kuylar bastalaganligi qayd etiladi. 100 yilga yaqin umr ko`rgan shoir barakali ijod qilgani aniq.

1987-yilda nashr etilgan «*Sensan sevarim...*» to`plami keyingi o`n yilliklarda nashr etilgan devondir. Devon sharq she`riyatida yetakchi janr hisoblangan g`azallar, ruboiylar, qit`a va fardlarni o`z ichiga oladi. Devon an`anaga ko`ra hamd, na`t she`rlari bilan boshlanib, so`ngra boshqa janrlar beriladi. Devonda Shohruh Mirzo, ba`zi nusxalarida esa Boysung`ur Mirzo nomiga bag`ishlangan qasidalar ham uchraydi.

Shoir asarlari uning o`sha davrda keng tarqalgan *tasavvuf g`oyalari* ta`sirida bo`lganligini ko`rsatadi. Olloh dunyoni mukammal go`zallik timsoli sifatida yaratgan. Shoir she`riyatida Olloh bilan bog`liq g`oyalar tasavvufiy ma`no va timsollar maxsus tadqiqni talab etadi. *Lutfiy lirik qahramoni*, avvalo oshiq insondir. U go`zallikda yagona, husn va latofat timsoli bo`lmish ma`shuqani chin yurakdan sevadi. Yor ham Olloh timsoli, ham inson sifatida namoyon bo`ladi. Lirik qahramon ta`kidicha, uning haqdan yagona o`tinchi diydordir:

Haqdin, ey ko`ngul, o`zga nima qilma tamanno,
Sen xastaga ul erdaki, diydor topilsa.

Oshiq ma`shuqaning e`tiborsizligidan, mastona ko`zlari bilan uni bexud, devona qilganidan ajablanadi:

Boqmas menga jonona, ajab holat emasmi?
Bo`ldi yana begona, ajab holat emasmi?
Bexudliku savdo bila qildi meni mashhur,
Ul ko`zlari mastona, ajab holat emasmi?

Lirik qahramon ayriliq onlarini musibat sifatida qabul qiladi. Firoq uning joniga azob, iztirob keltiradi. Oshiq bu alamlarga sabr bilan chidaydi. Ma`shuqasidan visol va vafo umid qiladi:

Ayo dilbar vafo qilmasmusen sen,
Bu dardimga davo qilmasmusen sen?
Qilich birla judo bo`lgancha mendin,
Boshim tandin judo qilmasmusen sen?

Oshiq yorning vafosizligidan gina qiladi:

Aytmkim: Bu Lutfiyga jaf qilma vafo qil,
Ayturki: bizning davrda ul rasm qolibdur.

Lirik qahramon o`z holatini aniq bayon etadi. Lutfiy uning holatini berishda jonli so`zlashuvdan, erkalash, yupatish, istehzo, qochiriq mazmunidagi iboralardan mahorat bilan foydalanadi. Oshiq ma`shuqa ozorlaridan zorlanadi:

Lutfiyni kim qarg`adi: «Yo rab, balog`a uchra» deb,
Kim, seningdek toshbag`irlik dilraboga uchradi.

Lutfiy she`riyatida *xalq urf-odatlari*, xalq hayoti bilan bog`liq manzaralar, xalq maqollari singdirilgan baytlar ko`p uchraydi. Shoir she`riyatida mifologik, an`anaviy, payg`ambarlar va boshqa obrazlar anchagina ko`zga tashlanadi. Xizr, pari, dev, Yusuf, Iso, Ya`qub, Farhod, Shirin kabi obrazlar shular jumlasidandir.

Dilbar sog`inmag`on jihati bu firoq ermiş,
«Ko`zdin yiroq bo`lsa, ko`ngildin yiroq» ermiş.

Yoki:

Yerga kirsam koshki, chun etmas ul oyga ilik
Mushkul ahvole tushubdur: «Yer qatig`u ko`k yiroq».

Lutfiyning qit`alari, ruboiylarida odob-axloq mavzusi ham ko`zga tashlanadi. Ammo shoir g`azallarida bo`lgani kabi, bu janrlarda ham asosiy mavzu ishqdir.

Ruboiy:

Ul mening joni jahonimg`a salom,
Jondin ortuq mehribonimg`a salom.
Bir zamon xoli emasmen yodidin,
Munisi joni ravonimg`a salom.

Tuyuq:

Bir nazar qildim, qul o`ldum oya men,
Ul sababdin jonu dilni oyamen.
Gar meni shohimga etkursa xudoy,
Hazratingda sarguzashtim oyamen.

Qit`a:

Bermag`il derlar vafosizga ko`ngul
Kim, aning no`shindin ortuq neshi bor.
Uzmagaymen la`lidin o`lsam umid,
Jon mening jonim, kishining neshi bor.

Fard:

Shakar iring sari ko`z necha boqsun,
Agar hech bo`lmasa ko`z haqqi yo`qmu?

Umuman, Lutfiy she`riyati o`zining soddaligi, ohangdorligi, xalq hayotiga yaqinligi bilan e`tiborlidir.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

XIV asr ikkinchi yarmi XV asrda ijtimoiy hayot qanday edi?

XVI asr muhiti haqida gapiring.

Bu davrda xalq og`zaki ijodi qanday edi?

Bu davrda badiiy adabiyot taraqqiyoti qanday bo`ldi?

XV-XVI asrlarda tarjima, tarix va tazkiranavislik, adabiyotshunoslik haqida gapiring.

Har bir asrga taalluqli shoirlarni ayting.

Atoiy kim?

Atoiy haqida qaysi manbalarda ma`lumot bor?

Atoiy so`zining yozilish bahslari nima bilan bog`liq?

Atoiy merosining o`rganilishi haqida gapiring.

Shoir she`riyati mavzularini gapiring.

Atoiy badiiy mahorati haqida tushuncha bering.

Shoir merosi maktabda o`rganiladimi?

Atoiy merosini o`rgangan olimlardan kimlarni bilasiz?

Shoir g`azallaridan uchta, beshta yoddan ayta olasizmi?

Lutfiy kim?

Lutfiy merosi haqida gapiring.

Lutfiy devoni haqida gapiring.
Navoiy va Lutfiy munosabatini tushuntiring.
Lutfiy she`riyatining janr va mavzularini gapiring.
Lutfiy g`azallarining obrazlari kimlar?
Lutfiy tuyuqlaridan tahlil qiling.
Lutfiy baytlarini tahlil qila olasizmi?

Adabiyotlar:

A.Hayitmetov. Dilimizga juda yaqin. O`z AS gazetasi. 1998 yil, 17 aprel.
A.Hayitmetov. Meros va ixlos. T.,1987.
A.Hayitmetov. Navoiy lirikasi. T.,1961.
A.Hayitmetov. Temuriylar davri o`zbek adabiyoti. T., 1996.
Ahmad Taroziy. Fununul balog`a. «O`zbek tili va adabiyoti» jurnali. 2002 yil. №1-6.
Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. T.,1966.
Amir Temur o`g`itlari. T., 1992.
B.Valixojayev. Lutfiy va Navoiy. Samarqand, 1999.
Buyuk siymolar, allomalar. I,II kitob. T., 1995, 1996 y.
Darsliklar.
E. Rustamov. Uzbekskaia poeziia v pervoy polovine XV veka. M., 1963.
E.Ahmadxo`jayev. Turkiy nazmning sehrgari T.,1992.
E.Rustamov. Uzbekskaia poeziia v pervoy polovine XV veka. M.,1963.
Haqqulov. She`riyat-ruhiy munosabat. T., 1990.
Hayitmetov. Meros va ixlos. T., 1985.
Hayitmetov. Navoiy lirikasi. T., 1961.
Hayot vasfi. T.,1988.
Hodi Zarif. Fozillar fazilati. T.,1979.
Hodi Zarif. Lutfiy va Navoiy. Ulug` o`zbek shoiri. To`plam T.,1948.
I.Mo`minov. Amir Temurning O`rta Osiyo tarixida tutgan o`rni va roli. T., 1993 y.
Lutfiy. Sensan sevarim. T.,1982.
M.Jo`rayev. El desa Navoiyni. T., 1996 y.
Navoiy zamondoshlari xotirasida. T.,1984.
Navoiyning nigohi tushgan. T., 1986.
Otoyi. Tanlangan asarlar. T., 1960.
S. Rafiddinov. Majoz va haqiqat. T.,. 1995
S.Erkinov. Lutfiy T.,1965.
Tohir Rashid Xo`ja .Atoiy lirikasi va xalq og`zaki ijodi .Til va adabiyot masalalari to`plami. T., 1993.
Xondamir. Makorim-ul-axloq. T., 1967 y.
Yo.Ishoqov. Naqshbandiya ta`limoti va o`zbek adabiyoti. T., 2002 y.

6-mavzu: NAVOIY HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI. BOBUR IJODIY FAOLIYATI

"Umidim uldurki va xayolimga andoq kelurki, so 'zum martabasi avjdin quyi inmagay va bu yozgan asarlarimning tantanasi a 'lo darajadan o 'zga yerni yoqtirmagay". (Alisher Navoiy)

Reja:

Shoir yashagan davr va adabiy muhit.

Navoiy va Xamsachilik.

Navoiyning o`zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o`rni va adabiy merosi.

Alisher Navoiy lirikasi

Shoirning nasriy asarlari

Bobur ijodiy faoliyati

1. Shoir yashagan davr va adabiy muhit. Alisher Navoiy o`zbek adabiyoti taraqqiyoti va o`zbek adabiy tili ravnaqiga ulkan hissa qo`shgan ijodkordir. Biror adabiy til hech qachon biror adibning nomi bilan atalmagan. Ammo XV asrdan boshlab o`zbek tili Navoiy tili nomi bilan tanila boshlagan. Sharq mamlakatlarining ko`plarida Navoiy an`analarining davomchilari paydo bo`ldilar. Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Amir Temurning o`g`li Shoxruh mirzo davrida Hirot shahrida tug`ildi. Zamondoshlari uni "Nizomiddin Mir Alisher" deb yozadilar. "Nizomiddin" – din-diyonat nizomi, "Mir" – amir demakdir. Otasi G`iyosiddin Muhammad (G`iyosiddin kichkina) temuriylar saroyining amaldorlaridan, onasi amirzoda Shayx Abusaid Changning qizi bo`lgan, bobosi Temurning o`g`li Umarshayx bilan emikdosh (ko`kaldosh) bo`lgan, buvilari temuriy shahzodalarning enagasi bo`lgan. Uch-t`ort yoshlarida Qosim Anvor she`rlarini yod aytgan. To`rt yoshida o`qishga borgach, u yerda Husayn Boyqaro bilan ta`lim oladi.

1447-yilda Shohruh mirzo vafotidan keyin temuriylarning toj-taxt talashi keskinlashgach, Alisherning oilasi Iroqqa ko`chib, Taft shahrida yashay boshlaydi. Bu yerda u mashhur shoir Sharafiddin Ali Yazdiy bilan tanishadi

1451-yilda uning oilasi yana Hirotga qaytadi.

1452-yilda Abulqosim Bobur Mirzo taxtga o`tirgach, G`iyosiddin Sabzavor hokimi etib tayinlanadi. Bu paytda Alisher Sa`diy Sheroziyning "Guliston", "Bo`ston", Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarlarini o`qir va yod olardi. Shuningdek, Xo`ja Yusuf Burhondan musiqa ilmini o`rganadi, tarix, adabiyot, husnixat va boshqalar bilan jiddiy shug`ullanadi.

Shoir ona tiliga juda erta muhabbat qo`ygan edi. U 10-12 yoshlaridan boshlab, shaklan go`zal, mazmunan mukammal g`azallar yarata boshlagan.

Orazin yopqach ko'zimdin sochilur har lahza yosh,

O`ylakim paydo bo`lur yulduz nihon bo`lg`och quyosh.

matla'si bilan boshlanuvchi g`azali Mavlono Lutfiyning yuksak bahosiga sazovor bo`lgan edi.

Alisher Navoiy o`smirlik chog`larida ota-onasidan erta judo bo`ladi. Sulton Abusaid Mirzo uning tog`alarini qatl ettirali. Yosh shoir ham ta`qibga uchraydi. Navoiyning H`irotida qolishi Abusaid Mirzo saltanatiga xavf solishi tabiiy edi.

Shuning uchun ham uni Samarqandga surgun qilishadi, o`qish bahonasida jo`natib yuboriladi. Samarqandga jo`nab ketish oldidan ustoz va do`sti Said Hasan Ardasheriga uchrashib, xayrlashmoqchi bo`ladi. Ammo uni topolmay, unga she`riy xat qoldiradi. Ushbu xatda Said Ardasheriga o`z mehr-muhabbatini izhor qiladi. Hirotidan jo`nab ketayotganligining sabablarini aytadi, o`z iqtidoriga yarasha qadrlanmayotganini, agar imkoniyat bo`lganida kuniga yuz bayt she`r

aytish o`tirib halvo yeyish bilan barobar ekanligini afsus bilan ta`kidlaydi. Shuningdek, Firdavsiy "Shohnoma"ni 30 yilda, Nizomiy, "Xamsa"ni yigirma yildan ziyod vaqt ichida yozgan bo`lsa, o`zi bunday asarlarni 30 oy ichida yozib tamomlashi mumkinligini uqtiradi. Shoirning bu so`zlarini zamondoshlari mubolag`a deb o`ylashib, uning ustidan kulgan hollar ham bo`lgan. Husayn Boyqaro o`zining "Risola" sida shu haqda to`xtalib, Alisher Navoiy aytgach so`zining ustidan chiqqanligini ta`kidlaydi. Haqiqatan ham, "Xamsa" uzog`i bilan 2-3 yil ichida yozib tamomlangan edi.

2. Xamsachilik yaqin va O`rta Sharq xalqlari klassik adabiyotida uzoq va murakkab tarixga ega bo`lgan adabiy an`anadir. Xamsachilik an`anasi XV asrga kelib ancha keng tus oldi. Faqat uch shoirgina ulug` xamsanavis bo`lib, Nizomiy qatoridan o`rin olishga muyassar bo`ldi, uning asari bilan bellasha oladigan "Xamsa" yaratdilar. Bular ulug` hind shoiri Xisrav Dehlaviy (1253-1325), ulug` fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiy (1414-1492) va ulug` o`zbek shoiri Alisher Navoiydir. Alisher Navoiy – «Xamsa»ni yozishga kirishganda 42 yoshda bo`lib, ayni ijodiy kuchga to`lgan, hayot tajribalariga ega bo`lgan mashhur shoir, el e`tiborni qozongan buyuk olim va davlat arbobi edi.

Zamondosh shoirimiz A.Oripov Navoiy shuhrati haqida "O`zbekiston" she`riida quydagi misralarni bitgan edi:

Ko`p jahongir ko`rgan bu dunyoni,
Hammasiga guvoh – yer osti.
Lekin, do`stlar, she`r ahli oro,
Jahongiri kam bo`lar, rosti.
Besh asrkim, nazmiy saroyini,
Titiriradi zanjirband bir she`r,
Temur tig`i yetmagan joyini,
Qalam bilan oldi Alisher.

Ha haqiqatan ham, jahongir Temur tig`i etmagan joylarni Navoiy o`zining qalami ila zabt etdi. Navoiy «Xamsa»si bir-biridan mazmundor, biri ikkinchisining takrori bo`lmagan, biroq bir-biri bilan ipga terilgan injulardek bog`langan «Hayratul-abror» (Yaxshilar hayrati), «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab`ai sayyor» (Yetti sayyora) va «Saddi Iskandariy» (Iskandar devori) dostonlarini o`z ichiga oladi.

3. Navoiyning o`zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o`rni va adabiy merosi. Navoiy jahondagi eng sermahsul ijodkorlar sirasiga kiradi. 100000 baytdan ortiq lirik va epik asarlari jahon madaniyati xazinasiga bebaho hissa bo`lib qo`shildi. Navoiy qoldirgan ilmiy-adabiy meros hayratlanarli darajada ulkandir. Shoirning epik asari "Xamsa", to`rt lirik devonni o`z ichiga oluvchi "Xazoyin-ul maoniy" asari, falsafiy dostoni "Lison-ut tayr", tarixga oid "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki Ajam", adabiyotshunoslikka oid "Mezon -ul avzon", "Majolis-un nafois", tilshunoslikka oid "Muhokamat-ul lug`atayn", axloqiy-falsaviy asari "Mahbub-ul qulub, tasavvuf tarixiga oid "Nasoyim-ul muhabbat", ruboiylar majmuasi "Nazmul javohir", diniy mavzudagi "Arbain", "Siroj-ul muslimin", xotiralari "Xamsatul mutahhayirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad", maktublar to`plami "Munshaot", vaqf ishlari haqida "Vaqfiya" va boshqa bir qator asarlari xalqimizning ma`naviy-madaniy mulki bo`lib qolmoqda.

4. Alisher Navoiy lirikasi

Alisher Navoiyning lirik merosi mavzulari jihatidan g`oyat keng ko`lamli, g`oyaviy yo`nalishlari rang-barang, janrlari xilma-xil, poetik mahorati esa g`oyat yuksakdir. Zahiriddin Muxammad Bobur ta`biri bilan aytganda, hech kim Navoiychalik "ko`p" va "xo`p" yoza olmagan. Navoiyning o`zi xam "Xazoyin" ning debochasida kuniga ba`zan besh-oltita g`azal yozganligini aytadi. Lirika shoirning bir umrlik ijodiy mashg`uloti bo`lib qoldi. O`z ijodini g`azal bilan boshlagan Alisher Navoiy umrining so`nggi nafaslarida ham shu janrda ijod qildi.

Navoiyning shartli ravishda "Ilk devon" deb nomlanuvchi birinchi devoniga 1465-66 yillarda muxlislar tomonidan tartib berilgan. Uni mashhur hattot Sultonali Mushhadiy oqqa ko`chirgan.

1470-76 yillar orasida shoirning o'zi "*Badoe`-ul bidoya*" (Badiiylikning boshlanishi) devonini tuzadi.

1476-1483 yillarda Navoiy ikkinchi devoni "*Navodir-un nihoya*" (nodirliklarning oxiri) devonini tuzadi.

Yuqoridagi turkiy devonlar shoirning ulkan adabiy obidasi - "*Xazoyin-ul maoniy*" ning tartib berilishiga zamin hozirladi. Natijada 1491-98 yillar oralig`ida H`usayn Boyqaroning iltimos va talabiga ko`ra mazkur kulliyot – to`rt devonni o`z ichiga oluvchi yirik majmua yuzaga keldi. Ma`lumotlarga qaraganda Navoiygacha 4 va undan ortiq devon tartib berish faqatgina Xusrav Dehlaviyga mansub bo`lgan ekan. (Jomiy ham Navoiy iltimosiga ko`ra she`rlarini uchta devon shakliga keltirgan). "*Xazoyin-ul maoniy*"dagi lirik janrlar miqdori 16 taga yetkazilgan. Shu tariqa Navoiy o`zbek mumtoz lirikasini janrlar ko`lami jihatidan ham boshqa xalqlar adabiyoti bilan bellasha oladigan darajaga ko`targan. Bu janrlar: g`azal, mustazod, muxammas, musaddas, musamman, tarji`band, tarkibband, masnaviy, qasida, soqiynoma, qit`a, ruboiy, muammo, chiston, tuyuq, fard.

Navoiy yilning to`rt fasliga qiyos qilib, o`z umrini to`rt bosqichga ajratadi. Bolalik, yigitlik, o`rta yoshlik va keksalik. Bolalik 7-8 yoshdan 20 yoshgacha, yigitlik 20 yoshdan, 35 yoshgacha, o`rta yoshlik 35 yoshdan 45 yoshgacha, keksalik 45 yoshdan 60 yoshgacha.

Shunga binoan devonlar ham quyidagicha nomlanadi:

1. "G`aroyib-us sig`ar" - bolalik ajoyibotlari,
2. "Navodir-ush shabob" - yigitlik nodirliklari.
3. "Badoe`-ul vasat" - o`rta yoshlik badiiyliklari,
4. "Favoyid-ul kibar" - keksalik foydaliklari.

Qit`alarga sarlavha qo`yish ham Navoiyning ixtirolaridan bo`ldi. Bungacha biror shoir o`z qit`asiga sarlavha qo`ymagan edi.

Shoirning fors-tojik tilidagi "Devoni Foni" asari ham "*Xazoyin-ul maoniy*" singari janrlarga boy, mavzular ko`lami xilma-xildir. Unda 1131 she`r yoki 6197 bayt o`rin olgan.

Alisher Navoiyning lirik merosi ko`p asrlardan buyon nafaqat o`zbek tilida ijod qiluvchi qalam ahlari, balki ko`plab Sharq mamlakatlari ijodkorlari uchun ham mahorat maktabi bo`lib kelmoqda.

Shoirning nasriy asarlari

Alisher Navoiyning nasriy asarlari Xuroson va Movarounnahrda yaratilgan fors va qadimgi o`zbek tilidagi turli janr va har xil mavzudagi nasriy asarlar zaminida yuzaga keldi. Lekin Navoiy buyuk daho sifatida shunday asarlar yozdiki, ularda, bir tomondan, fors-tojik adabiyotidagi nasr ilg`or an`analarining yangicha talqini va ravnaqi o`z aksini topdi. Ikkinchidan, o`zbek tilida nasrning nazmga nisbatan bir muncha sust rivojini nazarda tutgani, shuningdek, nasrning imkoniyatlari nazmga nisbatan anchayin kengligini chuqur tushungani holda Navoiy o`zbek adabiyotini o`n beshga yaqin nasriy asarlar bilan boyitdi.

Alisher Navoiy o`zining barcha nasriy asarlarini «Vaqfiya»ni istisno qilganda (bu asar 1481-1482 yillarda yozilgan), umrining so`nggi o`n yilida yaratgan. Ularning umumiy manzarasi quyidagichadir:

1. Biografik-memuar xarakterdagi «Holoti Sayyid Hasan», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Xamsat ul-mutahayyirin».
2. Ilmiy-filologik xarakterdagi «Majolis un-nafois», «Muhokamat ul-lug`atayn», «Mezon ul-avzon», «Risolai mufradot».
3. Tarix, tasavvuf va din tarixiga oid «Tarixi muluki Ajam», «Nasoyim ul-muhabbat», «Tarixi anbiyo va hukamo», «Vaqfiya».
4. Insho san`ati – epistolyar proza namunasi «Munshoot».
5. Ijtimoiy-siyosiy va didaktik xarakterdagi «Mahbub ul-qulub», «Haloti Sayyid Hasan Ardasher», «Haloti Pahlavon Muhammad», «Hamsat ul-mutahayyirin» - Navoiyning biografik memuar xarakterdagi asarlaridir.

Bu uch asar Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatida muhim rol o`ynagan davrning madaniyati tarixida o`chmas iz qoldirgan. Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatida muhim rol o`ynagan davrning madaniyati

tarixida o`chmas iz qoldirgan. Navoiyga yaqin siymolar, uning hamfikir do`stlari, ustoz va murabbiylariga bag`ishlanib, ularning vafotidan keyin yozilgan.

Bobur ijodiy faoliyati

Zahridin Muhammad Bobur favqulotda noyob iste`dod egasi edi. U atoqli davlat arbobi, mohir sarkarda iste`dodli shoir, adib, donishmand tarixchi zakovatli olim va tarjimondir.

Boburning hayot yo`li juda murakkabdir. U 12 yoshida Andijon taxtiga o`tirganidan boshlab 1530-yilgacha, vafotigacha mashaqqatli va murakkab hayot yo`lini bosib o`tdi. 1498, 1500, 1512-yillarda ota taxti Samarqandni egalladi. Ammo Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzish orzusi amalga oshmadi. Shundan so`ng u Qobulni poytaxt qilib, Afg`onistonda o`z saltanatini qurishga muvaffaq bo`ldi. 1525-yilda esa Hindistonga muvaffaqiyatli yurish qilib, Ibrohim Lodini yengadi va hozirgacha buyuk mug`ullar imperiyasi nomi bilan mashhur bo`lgan imperiya tuzdi. Bu imperiya salkam 500 yil o`z mavqeyini saqlab turdi. U asos solgan imperiya Afg`oniston va Hindistonning siyosiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda muhim rol o`ynadi.

Bobur adabiyot, san`at, tarix va ilm fanning turli sohalarida qimmatli asarlar yaratdi. Bizgacha to`liq holda yetib kelmagan lirik devonlari.

Memuar asari "Vaqoe'" ("Boburnoma").

"Muxtasar" nomi bilan mashhur bo`lgan aruzga oid risolasi.

"Harb ishi" risolasi.

"Musiqiy ilmi" risolasi.

Xo`ja Ahror Valiyning "Volidiya" asari tarjimasini.

Soliq va zakot ishlari haqidagi "Mubayyin" asari.

Murakkab arab alifbosini isloh qilishga oid "Xatti Boburiy" asari.

Bobur 16-17 yoshlardan boshlab badiiy ijod bilan shug`ullana boshlaydi. U O`zbek mumtoz shariyati, xususan, Navoiy merosini qunt bilan o`rgandi, fors-tojik she`riyatining ustoz namoyandalari asarlari bilan yaqindan tanishdi.

Boburning nomini, qolaversa, o`zbek adabiyoti shuxratini jahonga yoygan asar, shubhasiz, uning "Boburnoma" asaridir. Bu asar tarixiy manba bo`lishi bilan birga, o`zbek prozasining qimmatli yodgorligidir. Shu bilan birga, "Boburnoma" jug`rofiy, etnografik, tabiiyot, xalq meditsinasi va boshqa ilmiy sohalar bo`yicha ham qimmatli ma`lumotlar beruvchi asardir. Shuningdek, u o`zbek adabiy tilining ham muhim yodgorligidir.

Taxminlarga ko`ra 1525-yillarda yaratilgan "Muxtasar" ("Mufassal" ham deb yuritiladi) risolasi ilmi aruzga oid qimmatli ma`lumotlar manbaidir. Asar ikki yirik bobdan iborat. Birinchi bob rukn yasovchi hijolar, ularning navlari, ruknlar va zihoflar, barhlar va doiralarga, va ikkinchi bob vazn va taqte` masalalariga bag`ishlangan. Muallif ushbu risolasida 21 bahrdagi 537 vazn haqida ma`lumot beradi, mulohaza yuritadi. Aruz bahrning 9 doirasi tahlil etiladi. Asarda X-XVI asrlarda o`tgan 60 dan ziyod shoirlarning asarlaridan parchalar keltiriladi. (Boburning Atoullah Husayniyini "Darin bayti banda"ni ko`p ishlatgan uchun tanqid qilgani eslatiladi).

Afsuski, Boburning o`z tajribalaridan kelib chiqib yaratgan "Harb ishi" hamda musiqa ilmiga bag`ishlangan risolasi hozirgacha topilgan emas.

1521-yilda Bobur tomonidan o`g`li Humoyunga atab musulmonchilik qoidalari, oliq-soliq masalalari va sharoit haqida "Mubayyin al-zakot" asari she`riy yo`lda yozilgan.

Arab alifbosining o`zbek tili va talaffuzi xususiyatlariga u qadar muvofiq emasligini ko`rgan Bobur 1503-1504 yillarda "Xatti Boburiy" deb atalgan alifbo yaratdi. Garchi bu alifbo hayotga tadbiiq qilinmagan, qo`llab quvvatlanmagan bo`lsa-da, uning vujudga kelishi va alifboni tilga muvofiqdashirish g`oyasining o`ziyoq muhim ahamiyatga ega. Chunki muqaddas hisoblanuvchi arab grafikasini o`zgartirish uchun juda katta jur`at kerak edi. Muhim tomoni shundaki, "Xatii Boburiy" unililarni "zer-zabar"lar bilan emas, maxsus harflar bilan ifodalash tavsiiya etadi. (Asrimizning 20-yillaridagi arab alifbosini isloh qilinishi eslatiladi).

Bobur eng avvalo, o`z davrining farzandi edi. U vaziyat taqozosi bilan taxtga o`tirar ekan, o`rta asrlar muhiti va talabidan kelib chiqib, turli ijtimoiy va harbiy nizolardan chetda turishi mumkin emas edi. Tinimsiz urish-yurishlarda, toj-taxt talashuvlarida uning mohir sarkardalik qobiliyati namoyon bo`la bordi. Uning Shayboniyxondek tajribali hukmdor bilan to`qnashib, ba`zan

mag`lubiyatga uchrasa, ba`zan g`olib kelishi, askarlari bir necha bor ko`p bo`lgan Ibrohim Lodini zo`r harbiy mahorat ko`rsatib yengishi, mashhur hind sarkardasi Rano Sango g`alayonini bartaraf etishi buning yaqqol namunasidir.

Boburning o`zbek tilidagi devonining ikkita nusxasi bizgacha yetib kelgan. Ulardan biri Parijda, ikkinchisi Hindistonda saqlanmoqda. Devondagi asosiy janrlar: g`azal, ruboiy, tuyuq, masnaviy, qit`a, fard. Bobur she`riyatida g`azali musajja` ko`pchilikni tashkil etadi. Navoiy asos solgan g`azalning bu ko`rinishi Bobur tomonidan rivojlantirilgan:

Labing bag`rimni qon qildi, ko`zimdan qon ravon qildi
Nechun holim yomon qildi, men andin bir so`rorim bor !

Alisher Navoiy boshlab bergan yana bir an`ana g`azalda fabula (sojiltlilik, voqeabandlik) ko`rinishidir. Bu anana Boburni ham befarq qoldirmadi. Natijada shoir “boshdin oyoq bir voqea” ni she`rga olib kira boshladi. Jumladan :

Yoz fasli, yor vasli do`stlarning suo`bati,
She`r baxsi, ishq dardi bodaning kayfiyati.
Yoz faslda chog`ir ichmakning o`zga o`oli bor,
Kimga bu nash`a muyassar o`lsa bordir davlati...
deb boshlanuvchi g`azali ana shunday g`azallar sirasiga kiradi.

Bobur she`riyatidagi, xususan, ruboiylaridagi samimiyat va jo`shqinlik she`rxon qalbini to`lqinlantiradi:

Sen gulsenu men haqir bulbuldurmen,
Sen shuplasenu ul shuplag`a men quldurmen.
Nisbat yo`q dur deb ichtinob aylamakim,
Shoo`men elga vale senga quldurmen .

Nazorat savollari:

Bobur she`riyatidagi yetakchi lirik janrlar qaysilar ?

“Boburnoma”ning olamshumul shuxrat qozonishiga sabab nima?

“Xazoyin ul-maoniy”ga g`azallardan tashqari yana qanday janrdagi asarlar kiritilgan?

Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”da keltirilgan ruboiylari qaysi devoniga kiritilgan?

“Xazoyin ul-maoniy”dagi qit`alarning xususiyatlari nimadan iborat?

Alisher Navoiyning ruboiy va qit`alari yana qaysi asarlarida uchraydi?

“Xazoyin ul-maoniy” devoni qaysi g`azal bilan boshlanadi va u avval qaysi devonga keltirilgan edi?

“Ashraquat” so`zi bilan boshlanadigan g`azalning mavzusi nima?

Tasavvufiy mavzudagi bu asar qanday janrda ifoda etilgan va uning farqi nimalarda ko`rinadi?

“Xazoyin ul-maoniy”dagi g`azallardan yana qaysilari tasavvufiy mavzuga bag`ishlangan?

G`azal janri takomilida Navoiy amalga oshirgan ishlar?

Qaysi lirik janrlarni shoir o`zbek she`riyatiga tatbiq etdi?

Alisher Navoiy nima uchun o`zbek mumtoz adabiyotining cho`qqisi hisoblanadi?

Shoir tarjimai holiga oid qanday ma`lumotlarni bilasiz?

Navoiy qanday tarixiy sharoitda yashab ijod etdi?

Shoir ijodiy faoliyatda kimlarga ergashdi?

Navoiy qalamiga mansub asarlarni sanang.

Ulug` shoir amalga oshirgan madaniy-ma`rifiy ishlar ko`lamini tavsiflang.

Navoiygacha turkiy adabiyot qanday ahvolda edi?

Husayin Boyqaro Navoiyni «So`z mulkingning sohibqironi» deya ulug`lashining sabablari nimada?

A.Navoiy o`zi orzu qilgan qanday asarlarni yaratishga ulgurmad?

O`zbek mumtoz adabiyotida jahonshumul asarlar paydo bo`lishi hamda o`zbek tili kamsitilishining bartaraf etilishida Navoiy xizmatlarini asoslang.

Adabiyotlar:

A.Abdug`afurov. Misralar jozibas. “Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari” (maqolalar to`plami). Toshkent, “Fan”, 1993, 26-51 – betlar.

A.Hayitmetov. Navoiyxonlik suhbatlari. Toshkent, “O`qituvchi”, 1993.

Abdug`afurov A. Navoiy satirasi. T., 1966
 Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to`plami, 14-tom.
 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami, 3-6 – tomlar.
 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to`plami. 1-6 – tomlar.
 Gulbadanbegim. Humoyunnoma. T., 1959
 Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. T., 1961
 Ibrohim Haqqul. Kamol et kasbkim. Toshkent, “Cho`lpon”, 1991
 Ibrohimova A. XVI asr o`zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari. T., 1976
 Ishoqov Y. Navoiy poetikasi. T., 1983
 Jaloliddin Balxiy-Rumi. Masnaviyi ma`navi. “Farhang”, 1991, № 8.
 Mallaev N. O`zbek dabiyyoti tarixi. T., 1976 y
 N.Jumayev. G`azalda g`oya va badiiy mahorat mutanosibli. Maqolalar to`plami, 51-67 – betlar.
 N.Komilov. Tasavvuf. Toshkent, 1994.
 Nosirov O. O`zbek adabiyotida g`azal. T., 1972 y
 Orzibekov R. Lirikada kichik janrlar. T., 1976y
 Oybek. Navoiy gulshani
 Pirimqum qodirov Yulduzli tunlar. T.1990 y.
 R.Vohidov. Alisher Navoiy va ilohiyot. Buxoro, 1994.
 7-mavzu: XVII-XIX ASRLAR ADABIYOTI

Reja:

1. XVII-XIX asrlarda adabiy-madaniy hayot.
2. XVII-XIX asrlar adabiyotining asosiy xususiyatlari.
3. Adabiyot namoyandalari va asarlari haqida.

Mavzuga oid tayanch so`z va tushunchalar: Adabiy an`ana va vorislik, adabiy muhit va adabiy maktab, devon va bayoz, XX asr boshlari adabiyotshunosligi, manqaba va holotlar, xalq kitoblari, tasavvuf adabiyoti, tarixnavislik, tarjima adabiyoti, Mashrab, Gulxaniy, Munis, Uvaysiy, Nodira, Ogahiy

XVII-XIX asrlarda adabiy-madaniy hayot.

XVII asrda ro`y bergan eng muhim tarixiy hodisa Markaziy Osiyoning uch *xonlikka* bo`linib ketishi bo`ldi (Buxoro – mang`it, Xiva – qo`ng`iroq, Qo`qon–ming).

Markaziy Osiyoda azaldan davom etib kelgan xilma-xil hunarmandchilik, zargarlik, tikuvchilik, temirchilik kabi hunarlar bilan birga binokorlik, me`morchilik ham rivojlandi.

XVII-XVIII asrlarda Toshkentda bunyod etilgan Shayhontohur mazoroti, Baroqxon qabri, Buxoroda Nodir Devonbegi masjidi, Abdulazizxon madrasasi (XVII), Samarqandda «Sherdor» (1619), «Tillaqori» (1646), Xoja Ahror mazoroti (1630), Xivada Arabmuhammad madrasasi (1616), Anusha «Oqmasjid»i, «Madrasai Sherg`ozixon» (1719), «Madrasai Muhammadamin inoq» (1770), Qo`qonda «Madrasai Mir», «Madrasai Xonxo`ja» kabi tarixiy *yodgorliklar* qurildi.

Madrasalarda «Shamoil an-nabi», «Me`roj-un-nubuvvat», «Sharhi viqoya» singari diniy kitoblar o`qitilar, Navoiy, Fuzuliy, Bedil asarlari ko`proq mutolaa qilinar edi.

Darveshali Changiy o`zining 12 maqomdan tashkil topgan «Risoi musiqiy» («Tuhfatus-surur») asarini yaratdi. O`z asarida Ro`dakiy, Abduqodir Noyi, Xisrav Dehlaviy, A.Jomiy, Mavlono Mirak Changiy Buxoriy, Alisher Navoiy, Shohquli G`ijjak, Hasanxoja Nisoriylarning musiqaga oid ta`limotlarini tilga oldi. Zamondoshlari ustod Darvesh Hiraviy, Sulton Muhammad Tanbur, Hofiz Sobir Ko`k, Husayni Udiylarning xizmatlarini ta`rif etdi.

1798-yilda xorazmlik Muhammad Xoksor inson hayotining hamma sohalari zarur bo`lgan me`morchilik, musiqa, geografiya, trigonometriya, astronomiya, adabiyot, hattotlik kabi hamma sohalarga oid lug`at kitobini yozdi. Muhammad Xoksor:

Nasab birla yetsa ango shohlik,
 Hasab birla yetmish mango mohlik,-

kabi ajoyib baytlarni Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» dostonidan keltirib, «hasab» (fazl va hunar) afzalliklarini maqtab, komillik va kamolotni ulugʻladi.

XVII asrda «Natoyijul-fikr» (Abulqosim bin Shohmirzo ibn Saʼdullo al-Husayniy al-Kasbaviy), «Shajarai turk», «Shajarai tarokima» (Abulgʻozi Bahodirxon), «Muhitut-tavorix» (Muhammadamin Yaroqchi), «Tavorixi kasira» (Mullo Sharafiddin Samarqandiy); XVIII asrda «Tuhfai xoniy», yoxud «Tarixi Rahimxoniy» (Muhammad Vafo Kirmaganiy), «Tarixi Abulfayzxon» (Abdurahmon Tole), «Tojut-tavorix» (Hakimxon toʻra), «Ansobus-salotin» (Mirzo Olim), «Shohut-tavorix» (Mirza Qalandar Isfaragiy), «Tarixi Muqimxoniy» (Muhammad Yusuf Munshiy) kabi tarixnavislik asarlari yozildi.

XVII asrda yozilib, soʻng XVIII asr boshlarida Mir Said Sharif Roqim Samarqandiy tomonidan davom ettirilgan va «Tarixi kasira» yoki «Tarixi Roqimiy» nomlari bilan mashhur boʻlgan kitobda Alisher Navoiyning xizmatlari, uning «Xamsa»si, «Chor devon»i, «Lisonut-tayr»i tilga olinib, uni «soʻz iqlimining podshosi» deb aytadi, «Juda mahorat bilan ish yuritardi» deya maʼlumot beradi.

2. XVII-XIX asrlar adabiyotining asosiy xususiyatlari.

Oʻrganilayotgan davr adabiy manbalari nihoyatda xilma-xil va qariyb 350 yil davom etgan muddatda yaratilgani uchun biri ikkinchisini inkor etadigan darajada munozaralidir. Shularga qaramay, mavjud adabiy hayotda aks etayotgan anʼanalar, zamonaning notekis rivojlanishida xalq badiiy tafakkurining eng goʻzal neʼmatlarini tanlab olib, ularning yoʻnalishlarini aniqlab, izchil ilmiy tizimga solish zarurati tugʻilganda bu davr adabiy manbalarini quyidagi yoʻnalishlarda taraqqiy etganini aniqlash mumkin:

1. Xalq ogʻzaki ijodi namunalari va xalq kitoblari. Yozma adabiyotning shakllanishi va taraqqiy etishiga taʼsir koʻrsatgan ushbu omillar sifatida «Alpomish» dostoni, «Goʻroʻgʻli» turkum dostonlarini, «Tohir va Zuhra», «Oshiq gʻarib va Shohsanam» kabi epik asarlar keng tarqalganini eslash bilan birga «Xalq kitoblari» umumiy nomi ostida «Yusufbek va Ahmadbek», «Sanobar», «Boʻzoʻgʻlon», «Shoh Mashrab» singari manqaba va tasavvufiy asarlar yaratilganini ham eslash joiz.

Adabiy anʼanaga koʻra «Devon» tarzida tartib berilgan alohida shoirlarning sheʼriy majmualari bu davr adabiyotida nazm namunalarining asosiy tarqalish usuliga aylangan. Bu jihatdan Munis va Ogahiy, Amiriy va Nodira devonlarini keltirish mumkin.

Devon shaklida jamlanmagan, ammo sheʼrlari turli xil manoqib-holotlar, tazkiralalar, majmualar, bayozlar vositasida bizgacha yetib kelgan ijodkorlarning asarlari ham mana shu davr adabiy qiyofasini belgilashda arziqli manba boʻla oladi. Bunga misol tariqasida Turdi sheʼrlarining majmua va bayozlarda uchrashi, Mashrab sheʼrlarining turli xil manqaba va xalq kitoblari vositasida bizgacha etib kelishi kabi hollarni keltirish mumkin.

Sharq nasri anʼanalarini oʻzida aks ettirgan qissa va badiiy talqindagi hikoyatlar toʻplamlari ham mana shu davrda yaratilgan adabiy mahsullardan edi. Bunga Xojaning «Gulzor», Gulxaniyning «Zarbulmasal» tipidagi asarlarini keltirish mumkin.

Tasavvufiy ruhdagi gʻazallar va hikmatlar yoki umumiy tarzda olganda ayrim mutasavvuf shoirlarning ijodlarini bunga misol qilib keltirish mumkin: Qul Ubaydiy, Soʻfi Olloyor kabilar. Tarixiy manbalar – sultonlar va xonlar xonadoni va sulolasining yilnomalari, ayrim davrlar tarixnavislarining asarlari, eʼtiborli voqealar bayoni va boshqa tarix asarlari ham bu davrda koʻplab yaratilganki, ularning aksariyatida adabiy manbalarga murojijat qilingan. Masalan, Abulgʻozi Bahodirxonning «Shajarayi turk», «Shajarayi tarokima», Muhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullonoma», Hakimxon toʻraning «Muntahob ut-tavorix», Munisning «Firdavsul iqbol» asarlari shular jumlasidanjir.

Tarjima adabiyoti namunalari. Bu davrda, asosan, arab va fors tillaridan Xorazm adabiy muhitida amalga oshirilgan Hiromiy tarjimasidagi «Chor darvesh» asarini, Ogahiy tomonidan oʻzbekchaga oʻgirilgan Saʼdiyning «Guliston», Kaykovusning «Qobusnoma» asarlarini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Adabiyotshunoslikka oid risola va tazkiralalar, jumladan, izohli lugʻatlar tarkibidagi adabiy-nazariy lavhalar ham bunga misol boʻla oladi. Bu jihatdan Muhammad Bade' Samarqandiyning «Muzakkiru-l-ashob», Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkiri ahbob» tazkiralari, Muhammad Hoksorning «Muntahobu-l-lugʻot»i tarkibida adabiyotshunoslikka doir istilohlarning sharh qilinishi kabilarni eslash mumkin.

Zullisonaynlik anʼanasi Buxoro va Qoʻqon adabiy muhitlarida muvaffaqiyat bilan davom etgan boʻlib, bu davrning eng old shoirlari oʻzbek va fors tillarini mukammal suratda egallagan edilar. Qul Ubaydiy, Amiriy, Nodiraning forsiy devonlari, Hindistonda boburiylar tomonidan yaratilgan adabiy asarlarning asosan, fors tilida tarqalishi kabi holatlarni eslash mumkin.

Bu davr adabiyotida uch xonlik markazida saroyda vujudga kelgan adabiy muhit bilan birga saroy tashqarisida xalq hayoti yoki soʻfiylar qarashlari bilan bogʻliq holda alohida adabiy jarayon ham taraqqiy etgan ediki, saroydan tashqaridagi adabiyot ayni davrda oʻzining yetuk namunalarini ham bergan. Shuning uchun ham xalq adabiyoti, ayniqsa, xalq kitoblari bilan barobar ravishda bu asarlarning prototiplari boʻlgan ijodkorlar hayoti va ijodini oʻrganish ehtiyoji ham tugʻiladi. masalan, Mashrabning hayoti va ijodini «Qissayi Mashrab» yoki «Shoh Mashrab» nomi bilan mashhur boʻlgan manqabasiz oʻrganib boʻlmaydi. Shuningdek, Soʻfi Olloyor, Huvaydo singari ayrim ijodkorlar asarlarini oʻrganishda saroydan tashqarida ham taraqqiy etgan adabiy muhit xususiyatlarini ham inobatga olish lozim.

Adabiyot namoyandalari va asarlari haqida.

Boborahim Mashrab.

Oʻzbek adabiyotining XVII asr 2-yarmi va XVIII asr boshlarida yashab ijod etgan atoqli namoyondalardan biri Boborahim Mullo Vali oʻgʻli Mashrabdir. Boborahim Mashrab 1640-yilda Vali bobo boʻzchi oilasida Namanganda tugʻildi. Mashrab maktabda oʻqib xat savod chiqardi. U bolalik chogʻidanoq juda ziyrak, aqlli va tirishqoq boʻlgan. Shu bilan birga u turli masalalar haqida erkin fikr yuritishga, boshqalarning mulohazalariga tanqidiy yondashishga intilgan. Rivoyatlarga koʻra, Mashrab maktab domlasi bilan masala talashib qoladi. Mashrab haq boʻlsa ham domla undan ranjib voqeani Mashrabning otasiga aytadi. Vali bobo oʻgʻlidan xafa boʻladi. Lekin koʻp oʻtmay uni avf etadi va Namangandagi Mullo Bozor Oxun degan eshon tarbiyasiga topshiradi. Mashrab eshon eshigida xizmat qilgan va oʻqigan. Biroq, Mullo Bozor ham uning ochiq oʻzini ojiz sezganidan Vali bobo bilan kelishib Mullo Ofoq Xoʻja ixtiyoriga topshiradi. Yetti yil eshonning qoʻl ostida boʻlib, xizmat qilgan Mashrab musofirchilik va moddiy muhtojlikdan ogʻir mashaqqat chekadi. Bir sheʼrida “Ey, birodarlar, kiyibman bir kiyim yetti yil”, deb zorlanishi bejiz emas edi. Mashrabning oʻz koʻrgan kechirganlari haqida erkin fikr yuritilishi tanqidiy mulohazalari Ofoq Xoʻjaga yoqmaydi. Choʻrilardan biriga muhabbat qoʻygani uchun uni kofirlikda ayblab 1672-yili oʻz dargohidan quvib yuborgan.

Ota-onasidan ham ayrilib gʻarib boʻlib qolgan Mashrab baxt axtarib juda koʻp viloyat, shahar va qishloqlarni kezadi. Ammo hamma yerda ham “sitam, dard-u alamlarga girifdor, zor-zor xalqni koʻradi:

Dili tigʻi sitamdin yora boʻlgan xalqni koʻrdim,

Tani dardi alamdin pora boʻlgan xalqni koʻrdim.

Darbadar yurgan Mashrab hamma joyda ham moddiy muhtojlikka, diniy doiralarning taqib-u taqdirlarga adolatsizlik va zulm-u zoʻrlikka isyonkor ruhda sheʼrlar yozadi. Boylarni, ruhoniylarni hajv qiladi. Mashrabning omma orasidagi obroʻ eʼtibori kun sayin oshib boradi. Hozirjavob va jurʼatli Mashrab haqida turli hikoyalar va latifalar toʻqiladi. Lekin oʻsha paytdagi feodal diniy doiralar xalqchil va isyonkor shoir Mashrabga qarshi turli jazo qoʻllashga kirishildi. Shikoyat Mashrab Antarxoniyalar hukmdorligidan boʻlgan Mahmud Qatagʻonning buyrugʻi bilan 1711-yilda Qunduz shahrida dorga osib oʻldiriladi.

Mashrab adabiyotga ulkan meros qoldirgan. U isteʼdodli lirik shoir edi. Uning asarlari “Devonai Mashrab”, “Eshon Mashrab”, “Eshon Shoh Mashrabi Devonai Namangoniy”, “Muhammasi Shoh Mashrab” kabi nomlar bilan ataladi. U asosan oʻzbek tilida, qisman tojik tilida sheʼrlar yozgan.

“Devonai Mashrab”da she’rlar Mashrab haqida paydo bo’lgan ko’pgina hikoya va latifalar bilan birga keltirilib, asar go’yo bir qissa shaklini olgan. Asardagi ko’pgina hikoyalarda Mashrab xalqparvar, adolatparvar, zolimlarni fosh etgan qahramon sifatida tasvirlansa, ayrimlarida tarkidunyo qilgan darvesh sifatida talqin qilinadi.

Bundan tashqari Mashrab lirikasiga har xil turlarida g’azal, ruboiy, murabba’, muxammas, musaddas kabi janrlarda ijod qildi. Misol uchun uni ayrimgina azobi tasvirlangan yengil vaznda yozilgan murabbasini ko’rish mumkin:

Hajr ahli keldi, tutti yoqamdin,
Bag’rimni tildi paykoni g’alizin,
Ming dod-u faryod ushbu alam oni,
Yorg’a yetar kun bormu yoronlar.

Mashrab ilm-fan, donishmandlik to’g’risida fikr yuritganida ham dastavval alamdiya xalqni ko’z oldiga keltiradi. Shu bilan birga shoir o’z zamonasining bilimdonlikni poraxo’rlik bilan almashtirib yuborgan “donishmand zotlari” ustidan zaharxanda bilan kulib ularni “ilm o’qib, shaytonlik yo’liga kirib” ketganligini fosh etadi.

Necha mullo o’qib, roxish shayotini topib,
Chun ribovu rishvani erlar xushtorlik bilan.

Demak, shoir ilm-ma’rifatning ravnaq topishini orzu qiladi.

Xullas, Mashrab o’zbek adabiyotiga katta hissa qo’shgan buyuk shoirlardan biri hisoblanadi.

Gulxaniy.

Gulxaniy XIX asrning I yarmi Qo’qon adabiy muhitida yashab ijod etgan adibdir. Gulxaniy shaxsi va hayotiga oid birlamchi manba Umarxon davrida yaratilgan «Majmuai shoiron» tazkirasidir. Unda shoir «mulki ko’histon»dan ekanligi aytiladi. Uning otasi tog’liklardan bo’lgan harbiy mulozim bo’lsa ham, adib Qo’qonda tug’ilib, shu yerda voyaga yetdi. «Tazkirai Qayumiy»da uning Qo’qon shahridagi Sarbotur mahallasida tug’ilib, Xudoyqul Bahodirning tarbiyasida o’qib, askariy mulozim sifatida saroyda xizmat qilganligini yozadi. Keyinchalik saroy xizmatidan chetlashtirganlar. Gulxaniyning zamondoshi Dilshod Barnoning «Tarixi Muhojiron» asarida Gulxaniy hayotining so’nggi yillari qalandarona va qashshoq shoirlar bilan hammom go’laxida o’tganligi ta’kidlanadi. Biroq Gulxaniy taxallusi tanlanishining bunga aloqasi yo’qdir. Chunki, Fazliy tazkirasida bu taxallusning olish sabablarini bayon etadi:

Ajib so’zbilarmon erur Gulxaniy,
Erur otashin so’zni ul manmani.
U majnunsifat, qalbi o’t gulshani,
Shu bois taxallus qo’yib Gulxani.
G’azallarki yozmish fasixi ravon,
O’shato’lilar lafzi birla hamon.....

Gulxaniyning lirik merosi uncha ko’p emas. Uning «Biri», «Etmaz», «Ko’rung» radifli va «Lola ko’ksidek bag’rim tahbatah qora qonlar...» deb boshlanuvchi o’zbekcha, «Ey to’ti», «Burun», «Az chashmi man», «Angusht», «Angushtam», «Bidih» radifli tojikcha g’azallari, bitta tojikcha qasidasi yetib kelgan. U fors- tojik tilidagi ga’zallarida Jur’at taxallusini qo’llaydi.

O’zbekcha g’azallaridan birida oshiqning og’ir ruhiy iztiroblari samimiy va mubolag’asiz tasvirlanadi:

Lola ko’ksidek bag’rim tah- batah qora qonlar,
Hajr ibtilosidur naylay ey musulmonlar.
Bir dam ayla mardumlig’, diydami ichra manzil qil,
Durri dilu sochsinlar maqdamingga mujgonlar.

Gulxaniyning eng yirik yagona asari «Zarbulmasal»dir. Bu asar 1890 yilda Qozon universiteti bosmaxonasida nashr etilgan va rus tiliga tarjima qilindi. 1948 yili adabiyotshunos R. Muqimov «Gulxaniyning hayoti va adabiy faoliyati» mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi.

Asarning muqaddima qismida u Umarxonning amri, istagi bilan yozilganligi aytiladi. «Zarbulmasal» so’zi arabcha «zarb» va «masal» so’zlarining birikmasidan hosil bo’lgan qo’shma

so'z bo'lib, adabiy atama sifatida masal, maqol, matal keltirib so'zlamoqlikni anglatadi. Fors adabiyotida Ubayd Zokoni, XIX asr o'zbek adabiyotida Nozil Xo'jandiy, Sulaymonqul Rojij kabilar maqollar keltirib, «Zarbulmasal» nomlari bilan asarlar yozganlar. Gulxaniyning asari farqli ravishda majoziy usul bilan qushlar tilidan yozilgan. Ma'lumki, qushlar tilidan asar yozish mumtoz adabiyot uchun yangi hodisa emas albatta. Ibn Sino, G'azzoliy, Suhravardiy, Attor, Navoiy singari shoirlar ham qush tili bilan asarlar yozganligi ma'lum. Ular falsafiy- tasavvufiy g'oyalarni shu usulda ifoda etganlar.

Gulxaniy asarida ijtimoiy-axloqiy masalalar birinchi o'rinda turadi. SHuningdek, unda Xolboqi misgar, Yodgor po'stindo'z singari kishilarning, chayon, toshbaqa, tuya singari hayvon- hashorat timsollarini uchratish mumkin. Asarda 300 dan ortiq xalq maqollari va naqlari keltirilgan. Bularning barchasi asarning mazmunini kengroq yoritishga xizmat qilgan. Asarning ba'zi o'rinlarida achchiq va tanqidiy kulgi – satira ham sezilib turishi asarning salmog'ini yanada oshirgan.

Shermuhammad Munis.

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili SHERMuhammad Munis shoir, tarixchi, tarjimon, hattot, sug'orish mutaxassisi, ma'rifatparvar siymo edi.

Munis 1778-yili Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog'ida mirob oilasida tug'ildi. Uning bolalik va yoshlik yillari dastlab Qiyot qishlog'ida, so'ngra Xivada masjid yonidagi maktabda, keyincha madrasada o'qish, kitob mutolaa qilish bilan o'tdi. Uning o'qishi va tarbiyasiga qo'shnisi Sayideshonxoja kabi olim va shoirlar rahbarlik qildilar.

1800-yilda Avazboy vafot etib, xon Avaz Inoq uni saroyning farmonnavis kotibi qilib tayinlaydi. 1804-yilda Munis o'zining ilk devoni “Devoni Munis”ni tuzadi. O'sha yili “Savodi ta'lim” yoki “Risolai savod” asarini she'riy yo'lda yozib, talabalarga husni xat ta'lim qoidalarini o'rgatadi.

1808-yilda Elto'zarxon Xiva xonligi tarixini yozishni buyuradi va u “Firdavsul-iqbol” (“Saodat bog'i”) nomli tarixiy asar ustida ish boshlaydi.

1812-yilda mirob Erniyozbek vafot etib, xon uning o'rniga Munisni Xorazm mirobligiga tayinlaydi.

1819-yilda xon topshirig'i bilan Mirxondning ko'p jildli “Ravzatus-safo” (“Poklik bog'i”) tarixiy asarini fors-tojik tilidan o'zbek tiliga tarjima qila boshlaydi. Munis uning birinchi jildini tarjima qilib ulguradi xolos.

1815-1820-yillarda Munis o'zining mukammal devoni “Munis ul ushshoq”ni tuzadi. “Oshiqlar do'sti” deb nomlangan bu to'plamga shoirning 16 ming misradan ziyod she'rlari jamlangandir.

Munis badiiy ijodda o'ziga Navoiyni ustoz deb biladi va ko'p jihatda Navoiyga ergashadi. U 1829-yilda vafot etdi.

Munis asosan lirik shoirdir. Devonining nomidan ko'rinib turibdiki, she'rlarining asosiy qismi muhabbat taronalaridir. Shoir ijodida ijtimoiy-siyosiy va falsafa mavzusidagi asarlar g'oyat siyrakdir.

Munis talqinicha, she'r jahon xalqlari dillarini oson zabt eta oladigan eng qudratli quroldir. U bitmas tunganmas buloq, qulash nimaligini bilmaydigan buyuk koshona, bag'ishlov she'rlar kishilarni abadiylashtiruvchi mislsiz vositadir. SHoir xaqli ravishda she'r va uning manbaini adabiyotga dahldor xodisalar sifatida belgilaydi. Munis aksariyat g'azallari nihoyasida she'riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy ruhida ko'mak va tarbiya kutadi.

Munis ijodida ko'plab talmih san'atiga murojaat qiladi. U she'larida, g'azallarida tarixiy shaxslardan Navoiy, Sulton Xusayn, Mahmud G'aznaviy, Firdavsiylarni keltiradi.

Munisning ko'p she'rlari musiqaga solinib, xofizlar tomonidan aytilmoqda.

Munis devoni asosan ilohiy va insoniy muhabbat kechinmalari talqinidan iborat bo'lsada, mohiyati ijtimoiy hayotning dolzarb masalalari aks etgan g'azallari ham uchrab turadi. Munis “So'z”, ”SHuaro” she'larida she'r va ijodkor qadr qimmatini haqida qalam tebratadi.

She'r ul tig'i dudamdurkim, jahonni fatx etar,

Chekmayin lashkar gar olsa ilgiga har podshoh.
She'r ul ne'mat erurkim, har necha bazm etsalar,
Lazzati ortar, dog'i qadrig'a topmas nuqs roq.

Muhammad Rahimxon hukmronligining yettinchi yili Munis o'z she'larini to'plab devon tartib bera boshladi. Devonga kiritilgan she'r turlari va baytlarining soni haqida shoirning o'zi "Munisul ushshoq"ning debochasida quyidagilarni yozadi. "...Garro qasidalar, dil gusho g'azallar, fasohatayin tarkibbandlar, latofat tazyin qit'alar, sharif musaddas va muxammaslar, latif ruboiy va muammolar, shirin masnaviy va g'amgin tuyug'lar va g'ayr ham taxminan olti ming baytdir".

Jahon otin Uvaysiy.

Jahon otin Uvaysiy XVIII asrning oxiri va XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan iste'dodli shoiradir. Shoiraning chevarasi bo'lgan Xoljon otinning aytishicha, Jahon otin Xojixon degan kishiga turmushga chiqib, Muhammad ismli o'g'il va Quyoshxon ismli qiz ko'rgan.

Jahon otinning o'g'li Majnun, qizi esa Xokiy taxallusi bilan she'rlar yozganlar. Ammo ular o'z davrlarida murakkab hayot yo'lini bosib o'tganlar, turmush qiyinchiliklarini boshdan kechirganlar.

Jahon otin she'riyatini ko'ngillarga oshno etgan xususiyatlardan biri shuki, u "mehnat, alam, g'am-g'ussalarga giriftorlarning kuychisi sifatida maydonga chiqqan.

Mehnatu alamlarga mubtalo Uvaysiyman,
Qayda dard eli bo'lsa, oshno Uvaysiyman...
Kechalar fig'onimdin tinmadi kavokiblar,
Arz to samo uzra mojaro Uvaysiyman.

singari o'tli nolalari hanuzgacha ko'ngillarni hayajonga solishi bejiz emas. Shoira tuxmatchi va g'arazgo'y raqiblardan ozor chekib, nola qildi. Samimiy ishq va pokizalikka asoslangan oilaviy hayot yo'liga to'g'anoq bo'luvchilarga nafratini bayon etdi. Riyokor shayx va zohidlarni hajv ostiga oldi. Bularning barchasi shoira lirikasining yetakchi pafosini tashkil etdi.

SHoira mahoratining yana bir belgisi u jonli xalq tiliga yaqin ijod qildi. Maqollar, hikmatli so'zlar, topishmoqlarni o'z she'riyatiga olib kirdi.

Buki derlar bordurur devor keynida quloq,

Ul makon davrida ko'z yetguncha devor o'lmag'ay.

Uvaysiy devonida 209 g'azal, 29 muxammas, 55 musaddas, 1 murabba' va "Dostoni Hasan va Husayn, Voqeoti Muhammad Alixon nomli asarlar o'rin olgan.

Shoira Uvaysiy "Shaxzoda Hasan", "Shaxzoda Husayn" manzumalarida sharq adabiyotida mashhur bo'lgan sujetlarga murojaat qiladi. Har ikki doston birgalikda "Karbonoma", "Kitobi Uvaysiy" nomlari bilan yuritilgan. Bu dostonlarda Muhammad Alayhissalomning qizi Fotimaning o'g'illari Hasan va Husayn voqealari bayon etiladi.

Muhimi shundaki, Uvaysiy ana shu voqealar zamirida o'z zamonasining ijtimoiy voqealariga ishoralarni joylaydi, o'z zamondoshlariga ibrat bo'ladigan fikr-mulohazalarni bayon etadi.

Shoiraning mazkur dostonlari o'sha davr dostonchiligi nuqtai nazaridan muhim siljish bo'lsa-da, lekin ular shoira "Devon"idagi lirik she'rlarga nisbatan badiiy jihatdan ancha bo'shdir.

Uvaysiy ijodida munis va mushfiq ona obrazi ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi. O'g'li Muhammadning firoqida

Bukun, ey do'stlar, farzandi jonimni sog'indim,
Gado bo'lsam na ayb, ul shohi davronimni sog'indim.

Uvaysiy o'ziga xos ijodiy maktab yarata olgan mumtoz san'atkordir.

Nodira.

Shoiraning asl ismi Mohlaroyim bo'lib, u XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etdi. O'z asarlarida Komila, Nodira va Maknuna taxalluslarini qo'llagan. Nodira tojik tilida ham she'rlar yozgan.

Shoira 1792-yilda Andijon hokimi Rahmonqulibiy oilasida dunyoga keldi. U o'tkir zehni, nozik tabiati va yaxshi fazilatlar bilan juda erta tanildi. Adabiyotga bo'lgan ixlosi tufayli yoshligidanoq she'rlar yoza boshlagan.

1808-yilda Qoqon xoni Norbo'tabiyning o'g'li Umarxonning nikohiga o'tadi. 1810-yilgacha Marg'ilonda istiqomat qiladi. U Muhammad Ali va Sulton Mahmud ismli o'g'illar ko'rdi. Amir Umarxon 1810-yilda Qo'qon taxtiga o'tiradi. Nodira 30 yoshlarida ekanligida, 1822-yilda Umarxon vafot etadi. Umarxonning vorislari yosh edi. Xonlikning idora ishlarini o'zi boshqara boshlaydi. «Mohlaroyim» madrasasi va boshqa binolar qurdirdi. «Din va shariat himoyachisi, homiysi» degan nomga sazovor bo'ldi. Yetmish yoshli keksa shoir Nodir Mohlaroyimga bag'ishlab «Haft gulshan» dostonini yozdi. Nodirning asosiy maqsadi Mohlaroyimni qo'llab-quvvatlash va uning qayg'uli ko'nglini ko'tarish edi. U o'z asarida Nodirabegimga ta'rif berib o'tadi:

Hama boshdin ayog'i erdi idrok,

Jahon ichra aningdek kelmagan pok.

Agar har ishni ul etsa iroda,

Karam bobida yuz erdin ziyoda.

Amir Nasrullo 1842-yilda katta qo'shin tortib, Qo'qonga bostirib keladi va Muhammad Alixon, Sulton Mahmud, shoiraning 12 yoshli nabirasi Muhammad Aminni so'ydiradi. Nodira uning yaqin mahramlari Xushholbibi, Norbibilarni ham birgalikda o'ldirtiradi.

Nodira haqida dastlabki ma'lumot beruvchi tarixiy asarlarda shoira adolatparvar, insonparvar shaxs sifatida ifodalangan («Muntaxabot- tavorix», «Ansobus- salotin va tavorixi Xavoqin», «Voqeoti Muhammadalixon», «SHohnomai devona Mutrib», «SHohnomai devona Andalib»).

Lutfullo Olim 1923 yili «Bilim o'chog'i» jurnalida Nodira nomli dastlabki maqolani e'lon qildi. Olim SHarafiddinov (1945), Oybek (1948) tomonidan tuzilgan xrestomatiya va antalogiyalarda Nodira she'rlariga o'rin beriladi. O'tkir Rashidning «Uch shoira»(1958), T. Jalolovning «O'zbek shoiralari» (1959) risolasida Nodira hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar berilgan.

Nodira she'rlarini birinchi marta A. Qayumov nashrga tayorladi (1958). Tojik tilidagi asarlari 1967 yili Dushanbeda nashr etiladi. Ikki jildlik asarlar to'plami 1968, 1971 yillari nashr etiladi. 1993 yili «Ey, sarvi ravon» nomida g'azallari majmuasi chop etildi.

Oltmishinchi yillargacha uning to'la bo'lmagan bitta o'zbekcha qo'lyozma devoni ma'lum edi. Bu asar Nodiraning 109 g'azalini o'z ichiga olgan edi. Devondagi debochada shoiraning «Komila» taxallusi bilan ijod qilganligi haqida ma'lumot berilgan edi. Lekin bu devonda «Komila» taxallusi bironta g'azalda qo'llanilmagan. Keyinroq XIX asrning o'rtalariga mansub qo'lyozmada Nodiraning Komila taxallusi bilan yozilgan 19 g'azali borligi aniqlandi. 1962 yili Namanganda Nodiraning yana bir qo'lyozma devoni topildi. Namangan nusxasida debocha mukammal berilgan. Devonda shoiraning Nodira taxallusi bilan yozilgan 180 ta she'ri mavjud bo'lib, bulardan 136 tasi o'zbek, 44 tasi tojik tilidadir. 2000 misraga yaqini boshqa devonlarda mavjud bo'lmagan yangi she'rlari edi.

Kel, dahrni imtihon etib ket,

Sayri chamani jahon etib ket.

Bedardlarning jafolaridan,

Faryod chekib, fig'on etib ket.

Dunyo chamani bulbulisen,

Gul shoxida oshiyon etib ket.

Olam chamaniki bevafor,

Bir oh bila xazon etib ket.

Maqsad na edi jahona kelding,

Kayfiyatini bayon etib ket.

Fosh etma ulusqa ishq sirrin,

Ko'ngulda ani nihon etib ket.

Kel, ishq yo'lid ko'zlarini,

Ey Nodira, durfishon etib ket.

Ogahiy.

Muhammadrizo Erniyozbek Ogahiy barakali ijod qilgan san'atkor sifatida haqli ravishda Alisher Navoiyga qiyoslangan. XIX asr Xorazm adabiyotining yirik namoyondasi Ogahiy serqirra iste'dod sahibi bo'lib, shoirlilik iqtidori, tarixnavis salohiyati, tarjimonlik mahorati bilan o'zbek madaniyati ravnaqiga katta ulush qo'shgan. Uning she'riy merosini tashkil etuvchi "Ta'viz ul-oshiqin" (Oshiqlar tumori) asari o'zbek mumtoz adabiyoti xazinasidagi eng yirik va qimmatli devonlardandir. Ogahiyning tarixnavisligiga mansub "Firdavs ul-iqbol" (bu asarni Munis boshlagan, Ogahiy davom ettirgan), "Riyo'z ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jome ul-voqeoti sultoniy", "Gulshani davlat", "Shohidi iqbol" asarlari mamlakatimiz o'tmishi voqeligini haqqoniy aks ettiruvchi nodir tarixiy hujjatlardandir.

Ogahiy forsiydan o'zbek tiliga o'g'irgan Mirxondning "Ravzat us-safo", Muhammad Mahdiy Astrobodyning "Tarixi Jahonkushoyi Nodiriy", Zayniddin Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe", Mahmud binni Shayx Ali G'ijduvoniyning "Miftoh ut Tolibin", Muhammad Muqim Hirotiyning "Tabaqoti Akbarshohiy", "Muhammad Yusuf Munshining "Tazkirayi Muqimxoniy", Rizoqulixon Hidoyaning "Ravzat us-safoyi Nosiriy", Husayn Voiz Koshifiyning "Axloqi Muhsiniy", Kaykovusning "Qobusnoma", Muhammad Vorisning "Zubdat ul-hikoyat", "Sharhi daloyil al-hayrat", Sa'diy Sheroziyning "Guliston", Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho", Badriddin Hiloliyning "Shoh va gado", Nizomiy Ganjaviyning "Haft paykar" kabi tarixiy, badiiy asarlari o'zbek tarjima adabiyotining ulkan boyligi hisoblanadi.

Ogahiy 1809-yili 17-dekabrda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog'ida Erniyozbek mirob oilasida tug'ildi. Bolalik va o'smirlik yillarini Qiyotda o'tkazdi. Boshlang'ich ma'lumotni o'sha yerda oldi. Yoshligida otasi olamdan o'tdi. Keyin Xiva madrasalarida tahsil ko'rdi. Shu orada, aniqrog'i, 1829-yili Ogahiy amakisi, ustozi Shermuhammad Munisdan ajraldi. Olloqulixon Ogahiyning Munis o'rniga mirob etib tayinladi. Shu davrdan e'tiboran, Ogahiy xalq hayoti va saroy ishlari bilan bog'laydi.

Qizg'in ijtimoiy-ijodiy mehnat bilan mashg'ul Ogahiy 1845-yili miroblik yumushlari bilan safarda yurganida, otdan yiqilib shikastlandi va o'z ta'biri bilan aytganda, "Shakarlang" (oqsaydigan) bo'lib qoldi. 1857-yilda miroblik vazifasidan iste'fo berdi. 1874-yili oltmish besh yoshda hayotdan ko'z yumdi.

Ogahiy xalq orasida ko'proq lirik shoir sifatida mashhur. Muhammadrizo o'z she'riyatining oshiqlar qalbiga yaqin, ular bilan tumordek doimo hamroh bo'lishini, ishq ahliga dard alamlaridan xalos qiluvchi fazilatlariga ega bo'lishini istadi va devonini "Taviz ul-oshiqin" ("Oshiqlar tumori") deb atadi. Bu fikrni shoir ko'pgina she'rlarida faxriya usulida izhor etgan.

Ogahiy, dil so'z nazmingni eishtsa ahli ishq

Bo'yniga tavizdek aylarlar ash'oringni band.

"Ta'viz ul-oshiqin"da sharq mumtoz adabiyotining 19 janridagi asarlar mujassam. Ular 470 g'azal, 3 mustazod, 89 muxammas, 5 musaddas, 2 murabba', 4 musamman, 4 tarjiband, 7 qit'a, 80 ruboiy, 10 tuyuq, 1 mulamma, 4 chiston, 2 muammo, 4 masnaviy, 1 bahri tavi, 1 munojat, 1 savol javobi oshiq va ma'shuq, 20 ta'rix, 19 qasidan iborat. «Ta'viz ul-oshiqin» devonida 1300 misradan ortiq asar "Ash'oriy forsiy" nomi bilan alohida o'rin tutadi.

Ishqqa falsafiy munosabatiga ko'ra, Ogahiy insoniy ishqqa sig'ingan, dunyoviy muhabbatni eng yuksak pardalarda, tiniq va dilkash, ta'sirchan navolarda, ming yillik muhabbatnomadan o'zgacha jozibada kuylay olgan. Har g'azalga "ishq hurrām makrзорinig g'izoli sho'xi" yanglig' sehr sinoat singdirigan shoiri sohir edi. Biroq, Ogahiy she'riyati faqat majoziy ishq tasviridan iborat emas.

Ilohiy ishq kechinmalari tasviri Ogahiy nazmining ta'sirchan sahifalarini tashkil etadi. Hattoki, shoir tahallusida ham ilohiyot sirlariga bog'liq ma'no bor:

Ne tong ogoh bo'lsa Ogahiy ishqning siridinkim,

Ongga behuda ermas osmondin bu laqab paydo.

Demak, Ogahiy tahallus tanlaganida, ilohiy ishq - Ollohga muhabbat sirlaridan ogohlik, habardorlikning ham nazarda tutgan. Bu - taxallusning bir ma'nosi.

Nazorat savollari

Davr adabiyotining o'rganilishi tarixiga oid nimalarni bilasiz?
Istiqlol davri adabiyotshunosligida biz o'rganayotgan adabiy davr xususida qanday ishlar qilingan?
Davri adabiy manbalarini qaysi yo'nalishlarda o'rganish mumkin?
Ushbu davr adabiyotini o'rganishda qanday tamoyillarga asoslanish mumkin bo'ladi?
Bu davr adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
Nima uchun bu davr adabiyotini o'rganishda adabiy muhit va adabiy maktab masalalariga e'tibor qaratish lozim?
Ushbu davr adabiyotiga tashqi jihatdan ta'sir ko'rsatgan qaysi omillarni bilasiz?
Mashrabning ijodiy tarjimai asari «Maddai nur» qaysi shoir ijodiga mansub?
Mashrab asosan qaysi lirik janrlarda ijod qilgan?
Gulxaniyning hayotiy faoliyati haqida ma'lumot bering.
Gulxaniy haqida qaysi manbalarda xabar berilgan?
Gulxaniyning lirik merosi haqida ma'lumot bering?
«Zarbulmasal»ning yozilish tarixi haqida nima deya olasiz?
«Zarbulmasal» nima degani? Shoir nima sababdan asarni shunday nomladi?
Shermuhammad Munis adabiy merosi haqida nimalarni bilasiz?
Munisning «Savodi ta'lim» asari qanday asar?
Uvaysiyning qanday dostonlarini bilasiz?
Shoira ko'proq lirikaning qaysi janrlarida shuhrat qozondi?
Nodiraning hayotiy yo'lini yoritib bering.
Nodiraning adabiy merosi haqida ma'lumot bering.
Nodiraning badiiy mahoratini yoritib bering.
Adabiy muhit deganda nimani tushunasiz?
Ogahiy nima uchun Navoiyning izchil davomchisi deb ataymiz?

Adabiyotlar:

Abdug'ofurov A. Erk va ezgulik kuychilari. T., 1979.
Abdullaev V. O'zbek adabiyoti tarixi. 2- kitob. Toshkent, 1980.
Amiriy. Devon. T., 1972.
Fitrat. XU1 asrdan so'ngra o'zbek adabiyotiga umumiy bir qarash. «Navqiron Buxoro», 1992. 2-son
Ibrohimova E. Uvaysiy. T., 1963.
Is'hoqov F. «Zarbulmasal» talqinlari. Asarda Amir Umarxon davrining aks etishi. «Muloqot» jurnali, 1997, 4-son.
Jalolov T. Go'zallik olamida. T., 1970.
Jumaxo'ja N. Istiqlol mafkurasi va madaniy meros. Doktorlik diss. Avtoreferati. - T.: 1998.
Majidiy R. Ogahiy lirikasi. T., 1963.
Munirov K. Munis, Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari. T., O'zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. SH jild. - T.: Fan, 1978. - B. 7-42.
Po'latxon domulla Qayumov. Tazkirai Qayyumiy. 1-2 jild. Toshkent, 1998.
Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. Toshkent, 1961.
Qodirova Munis. XIX asr O'zbek shoirlari ijodida inson va xalq taqdiri. T., 1977.
Uvaysiy. Devon. T., 1963.
Vohidov Z. O'zbek adabiyoti tarixidan. T., 1961.
Zohidov V. Gulxaniy. O'zbek adabiyoti tarixidan. Toshkent, 1960.
Zokirov M. Mashrab. T., 1966.
O'tkir Rashid. Uch shoira. T., 1958.
O'zbek adabiyoti tarixi. 5 jildlik, 3-4 jild. T., 1978.
Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent, 2006.

8-mavzu: XX ASR O`ZBEK ADABIYOTI
MA`RIFATCHILIK DAVRI O`ZBEK ADABIYOTI

Reja:

XIX asr ikkinchi yarmida adabiy-madaniy hayot.

O`zbek ma`rifatchilik adabiyoti.

Adabiyot namoyandalari va asarlari haqida.

Muqimiy hayoti va ijodi.

Muqimiy hayiy faoliyati

Muqimiy ijodiy merosi

Muqimiy lirikasi

Furqat hayoti va ijodiy faoliyati

Mavzuga oid tayanch soʻz va tushunchalar: Muqimiy, ijodiy merosi, shoir lirikasi, Muqimiy hajviyoti, "To'y", illatlar tanqidi, yumorlar; Furqat, bolalik va o'qish yillari, Toshkent, Chet ellar sayohati, Turkiston viloyatining gazetasi", Furqat ijodiy merosi, lirika, inson erki, "Sayding qo'ya ber sayyod"

XIX asr ikkinchi yarmida adabiy-madaniy hayot.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston va uning ijtimoiy-madaniy hayotida jiddiy o'zgarishlar ro'y bergan. Bu o'zgarishlar Turkistonning Rusiya tomonidan bosib olinishi bilan bog'liq. Bu davrda jadidchilik harakati boshlangan. Adabiy harakatchilik ko'proq Qo'qon, Xiva, Samarqand, Toshkent, Buxoroda rivoj topgan.

Qo'qonda Muqimiy (1850-1903), Furqat (1859-1909), Zavqiy (1853-1921), Muhayyir (1845-1918), Usmoxo'ja Zoriy (1839-1916) kabilar adabiy davra tashkil etdilar. Qo'qon adabiy maktabining vakillaridan Umidiy-Havoiy (1835-1905), Kattaqo'rg'onlik Ochildimurod Miriy (1830-1899), epik janrlar taraqqiyotiga xususan, *dostonchilikka* katta hissa qo'shdilar. Umidiy-Havoiy "Maktubchai xon", "Jangnoma", "Badavlatnoma yoki tarixi Xo'qand" kabi tarixiy dostonlar yozdi. Miriy esa "Ra'no va Zebo" (1884), "Qissai Salim Javhariy" (1887), "Rustam va Suhrob" (1897), "Majididdin va Faxruniso" (1899) kabi dostonlari, "Gulnoma", "Choynoma" singari doston-masnaviyalar bilan o'zbek epik poeziyasi taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar.

Namanganda Nodim (1844-1909), Ibrat (1862-1937), So'fizoda (1880-1937) *Andijondan* Abdurazzoq Bimiy (1847-1918), *Xo'janddan* Toshxo'ja Asiriy (1864-1916), *Sayramdan* Yusuf Saryomiy (1840-1912), *Toshkentdan* Karimbek Kamiy (1865-1922) kabilar Qo'qondagi adabiy suhbatlarda tez-tez ishtirok etib turdilar.

Xivada xonning o'zi Muhammadrahimxon Soniy Feruz (1844-1910) saroyda adabiy muhit maydonga keltirdi. 1864-yilda 20 yoshida taxtga chiqib salkam 47 yil hukmronlik qilgan bu xon uni yaqindan bilgan ko'pchilik tadqiqotchilar fikricha, O'rta Osiyo xonlari orasida eng aqlligi, eng ziyolisi edi. U "usuli jadid"ga yo'l berdi, ruslar kelmasdan ancha ilgari Xivaga toshbosma topib keldi. Uning topshirig'i bilan Ahmad Tabibiy (1869-1911) "Majmuatush shuaroyi Feruzshohiy" (Feruzshoh shoirlari antologiyasi) ni tuzadi. 30 shoirning she'ridan namuna beradi. Ular orasida Komil Xorazmiy (1825-1899), Muhammad Rasul Mirzo (1840-1922), Avaz O'tar (1884-1919) kabi xilma-xil ko'lam va qudratdagi shoirlar bor edi.

Buxoro amirlaridan Abdulahadxon (1882-1911) ham she'r yozar edi. Hisor hokimi Avliyoqulibek "Husayniy" taxallusi bilan devon tartib qilgan edi.

Samarqandda Abdulazim Sipandiy (1829-1909), Siddiqiy Ajziy (1864-1927), Saidahmad Vasliy (1870-1925) kabi shoirlar ijod etdilar.

Bu davr adabiyoti yangilanish davri adabiyotidir. Unda qadim davrlardan kelayotgan adabiy turlar saqlanadi. Devon adabiyotida she'riyat (poeziya) asosiy o'rin egalladi. Aruz asosiy vazn bo'ldi. G'azal, ruboiy, tuyuq, tarix, muammo, muxammas, musaddas, musamman va ayniqsa masnaviydan keng foydalanildi. Sayohat xotiralarini ifodalovchi sayohatnoma janri maydonga keldi.

Keng ma'noni qamrab oluvchi ishq mavzui bu davrda ham she'riyatning markaziy mavzui bo'lib qoldi. Lekin ilohiy ishq, *tasavvuf* g'oyalari kuchaydi. Yusuf Saryomiy (1840-1912), Ziyovuddin Haziniy (1867-1923) kabi shoirlar ko'proq diniy-tasavvufiy she'rlari bilan shuhrat topdilar. Badiiy adabiyotda *hajviyot* rivoj topdi. Adreslik tanqid kuchaydi. *Realistik tasvir* keng o'rin ola boshladi. Kundalik *matbuot* va *bosmaxonalarning* maydonga kelishi bilan she'riyat va o'quvchi orasi yaqinlashdi. Yangi janrlar (masalan, publitsistika, ocherk kabi) paydo bo'ldi. Ikkitillik (zullisonayn) an'anasi davom etdi. Madrasa ko'rganlarning deyarli hammasi arab, fors tillaridan xabardor edilar. Shoirlarning ko'pchiligi o'zbek tili bilan bir qatorda tojik tilida ham ijod eta olar edilar. Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Shayx Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Abdurahmon Jomiylar bu davr o'zbek shoirlari uchun ham ilhom berdilar. Shu bilan birga tabiiyki, shoirlarimiz Muhammad *Fuzuliy*, *Mahtumquli* kabi turkiy dunyoning yuksak yulduzlarini ham o'zlariga ustoz bildilar.

Xorazmda Ogahiy, Bayoniy kabi ijodkorlar tashabbusi bilan *tarjima maktabi* maydonga keldi. O'nlab asarlar fors tilidan tarjima qilindi. Toshkentda mashhur hind eposi "Kalila va Dimna"ni Fazlulloh Almaiy (1852-1891), arab ertaklari "Ming bir kecha"ni Sidqiy Xundayliqiy (1884-1934) forschadan o'zbekchaga ag'dardilar. Murodxo'ja domla tomonidan Sa'diy Sheroziy "Guliston"ining yangi tarjimasi amalga oshirildi. 80-yillarda A. N. Tolstoy, 90-yillardan A. S. Pushkin, A. A. Krilov nomlari Turkistonga kirib keldi. 1887-yilda L. N. Tolstoyning "Odamlar nima bilan tirik" hikoyasi, 1899-yilda Pushkin tavalludining 100 yilligi munosabati bilan uning "Boqchasaroy fontani", "Shoir" asarlari tarjimasi "Turkiston viloyatining gazetasi" sahifalarida bosildi. So'ngroq Saidrasul Aziziy (1866-1933), Aliasqar Bayramali Kalinin, Abdulla Avloniy (1878-1834) kabi mualliflarimizning usuli jadid maktablari uchun tuzilgan darsliklariga kiritildi.

O'zbek ma'rifatchilik adabiyoti.

Yangi o'zbek adabiyoti XIX asrning 60-yillaridan boshlab paydo bo'lgan va hozirgacha bo'lgan vaqt mobaynida quyidagi taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan:

ma'rifatchilik adabiyoti;

jadid adabiyoti;

sho'rolar davri adabiyoti;

mustaqillik davri adabiyoti.

Ma'rifatchilik adabiyoti kishilarni o'qish va bilim olishga da'vat etuvchi adabiyotdir. O'zbek adabiyotida ma'rifatchilik yo'nalishi dastlab Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz O'tar, Dilshod Barno, Anbar Otin singari ijodkorlar faoliyatida ko'ringan. Ma'rifatchilik adabiyoti ommaga mo'ljallangan bo'lib, uning ifoda yo'sinida soddalik, tushunarliklik ustuvorlik qilardi. Agar mumtoz adabiyotning qahramoni komil inson bo'lsa, ma'rifatchilik adabiyotining qahramoni ma'rifatli shaxs edi.

Ma'rifatchilik adabiyotiga xos asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

Xalq hayoti badiiy adabiyot manbasi bo'ldi;

Oddiy odamlar badiiy asar qahramoni bo'ldi;

Badiiy asar tili jonli so'zlashuv tiliga yaqinlashdi;

Oddiy odamlarning turmushi, o'y-xayollarini aks ettirish uchun oldingi mubolag'ador tasvir usulidan ko'ra realistik yondashuv maqbulroq ekanligi anglab yetildi.

Adabiyotshunoslik ilmining hozirgi bosqichida Komil Xorazmiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy singari ijodkorlarning asarlari ham ma'rifatchilik adabiyoti namunalari sifatida qaralmoqda.

3. Adabiyot namoyandalari va asarlari haqida.

Muqimiy hayoti va ijodi.

Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy 1850 yilda Qo'qonda novvoy oilasida tug'ildi. Otasi Mirzaxo'ja asli Toshkentlik, onasi Bibioysha Xo'jandlik bo'lgan. Ular to'rt qiz va bir o'g'il ko'rganlar. Qizlarning oti Tojinisa, Ulug'bibi, Saydinisa, Mehrinisa.

Bo'lajak shoir eski maktabda xat-savod chiqargach, 1864 yildan Qo'qon madrasalaridan birida o'qiydi. 1867 yilda Bibioysha vafot etadi. Biroz vaqt o'tgach, Mirzaxo'ja Ziyodabibi ismli ayolga o'ylanadi. Muhammad Aminxo'ja 1872-73 yillarda Qo'qon madrasasini bitirib, Buxoroga yo'l oladi. 1876 yilgacha Buxoro madrasalaridan birida o'qiydi. Shu yillari uni Sanambibi ismli qizga o'ylantirib qo'yadilar.

1877 yilda Muhammad Aminxo'ja Qo'qondagi yer qurilish mahkamasiga mirzalik vazifasiga ishga kiradi. So'ng Sirdaryo bo'yidagi Oqjar paromiga pattachi bo'lib ishga o'tadi. Biroq u Ojar paromida ham uzoq ishlay olmadi. 70-yillarning oxirlaridayoq pattachilikni ham yig'ishtirib, Qo'qonga qaytadi. Ijodga beriladi. "Muqim" (turg'un, turib qolgan) "Muqimiy" taxallusida yozgan she'rlari bilan do'ruq qozondi. Ammo shoirning shaxsiy hayoti yurishmadi. Sanambibi bilan uzoq yashay olmadi.

1879-yilda Sanambibi Muqimiydan ajraldi, o'g'li Akbarxo'jani onasi Ziyodabibiga qoldirib boshqaga turmushga chiqib ketdi.

1887-88 yillarda Muqimiy Toshkentga keladi, ota qarindoshlari bilan uchrashadi. Almaiy, Nodim Namangoniy bilan tanishadi. Ular bilan yaqindan aloqa bog'laydi.

Shoir shu yillari og'ir iqtisodiy tanglikda yashagan. 1890-yilda otadan qolgan hovlini sotib, madrasa hujrasiga ko'chib o'tishga majbur bo'lgan. Hattotlik hunari joniga aro kirgan. Kishilar uchun xat (kitobat) yozib, kitob ko'chirib shundan keladigan daromad xisobiga kun o'tkazgan. Adabiyot-san'atni yaxshi ko'rgan davlatmand kishilar moddiy yordam berganlar. Shularning yordamida 1892, 1899 yillarda ikki marotaba Toshkentga kelib ketgani ma'lum.

90-yillarning o'rtalarida Muqimiy taqdirning bir g'aroyiboti tufayli Moskvada Lazarev nomli jonli Sharq tillari institutida o'qib turgan jiyani Ro'zimuhammad Do'smatov (otasi haj safarida o'lib qolganida yaxshi odamlar uchrab, tarbiya qiladilar va o'qishga yo'llaydilar) bilan topishadi va ular orasida yozishmalar boshlanadi. 1898-yilda R.Do'smatov Qo'qonga keladi, tog'a-jiyani uchrashadilar. Yoz ta'tili tugagach, Ro'zimuhammad yana Moskvaga qaytib keladi. Shoir kuzatib qo'yadi. Kechirmalarini so'ngroq she'riy maktubda shunday ifodalaydi.

R. Do'smatov ikkinchi marta 1904 yilda Qo'qonga keldi va umrining so'ngigacha Muqimiy uy muzeyida xizmat qildi.

Muqimiy hayotining so'nggi yillari kasallikda kechdi. Quloq og'rig'i, so'ng "yaraqon" (jigar xastaligi) shoirni qiynab qo'ydi. 1902 yilning 16 dekabrda Andijonda dahshatli zilzila yuz berdi. Shahar lahzada vayronaga aylanib, 4652 kishi halok bo'ladi. Shoir bundan qattiq larzaga tushadi. Shaharga borib ofat oqibatlarini o'z ko'zi bilan ko'radi va istirob to'la tarix-marsiya bitadi.

Shoir fojia manzaralarini ro'yrost tasvir etar ekan, sabablarini, o'z aqidasi ko'ra, jamiyat axloqi bilan bog'laydi, ayrim odamlarning buzilishidan ko'radi. She'r shoir o'limidan bir oy oldin "Turkiston viloyatining gazetisi"da bosiladi.

Muqimiy 1903 yil 25 mayda vafot etadi.

Muqimiy ijodiy merosi

Muqimiyning bizga yetib kelgan ijodiy merosini 10 ming misra atrofida taxmin qiladilar. Ular asosan lirika va hajviyotdan iborat. Muqimiy asarlari birinchi marta 1907-yilda Toshkentda ("Devoni Muqimiy") bosilgan. Uni N.Ostroumov nashrga tayyorlagan va so'ng so'z bilan e'lon qilgan edi. 1910-12 yillarda uning yoniga shoir hajviyoti qo'shilib, "Devoni Muqimiy hajviyoti" nomi bilan ikkinchi marta chop etildi. Sovet davrida, 1960-yilda Muqimiy asarlarining 2 jildligi bosildi. Professor G'ulom Karimov u haqda monografiya yaratdi (1970).

Muqimiy tabiatan hozirjavob kishi edi. Ko'plab zamondoshlari singari o'zbek va tojik tilida baravar yoza olardi. Ko'pgina she'rlari o'zining yozilish tarixiga ega. Ma'lum munosabat bilan yozilgan she'rlari orasida Toshkent noibi vafotiga bag'ishlangan ("Tarixi favti noibi Toshkanday") besh baytlik tojikcha tarix-marsiyasi bor.

Muqimiy lirikasi

Muqimiyning juda ko'p g'azallari uning tirikligidayoq qo'shiq qilib kuylangan. Uning she'rlari xonandalar orqali tez yoyilar, zamondoshlaridan juda ko'p san'atkorlar o'z hayotlarini Muqimiy ijodi bilan bog'lar edilar. Bu she'rlarning mavzui aksariyat an'anaviy, yor haqida. Uning husni, ya'ni qoshi, ko'zi, yuzi, sochi, qaddi-qomati ta'rifi bag'ishlangan.

Oshiq shoir visoldan quvonadi, hijrondan iztirob chekadi. Lekin har qanday holda ham yorning husni davlatiga rivoj tilaydi. Uning mehr va shafqatidan umidvor. Ammo u yor qanchalik go'zal bo'lsa, shunchalik bevafo, jafokor. Shu sababli shoir she'rlarida quvonchdan hasrati ko'p.

Tiyg'ing mening qonimdadur, zulfing giribonimdadur,

Yuz ming alam jonimdadur, man muftalo qayda boray?!

Muqimiy lirik janrlardan murabbaqa alohida e'tibor berdi. Ma'lumki, murabba' boshqa janrlardan avvalo vazn va qofiyasiga ko'ra farqlanadi. Ruboiy faqat hajaz bahridagina yozilsa, murabba' uchun bunday cheklanish yo'q. Ruboiy, tuyuq mustaqil to'rtliklardir, murabba'da esa bir necha to'rtliklar qo'shilishidan yaxlit asar bo'ladi va ular a a a a, b b b a, v v v a shaklida qofiyalanadilar. So'nggi bandda taxallus bo'ladi.

Muqimiyning murabballari yigirmadan ortiq, deyarli hammasi ishqiy mavzuda. Ohangdor, ravon. Vazniga ko'ra aruzdan barmoqqa yaqin turadi. Xalq qo'shiqlarini eslatadi. Masalan:

Emdi sandek jono, jonon qaydadur,

Ko'rib gul yuzingni bog'da bandadur,

Saqlay ishqing toki jonim tandadur

O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur,

Mehring o'ti nogah tushdi jonlarga,
Parvoyim yo'q zarra xonu monlarga,
Lola yanglig' to'lib bag'rim qonlarga
O'zim har joydaman ko'nglum sandadur.

Erta-yu kech fikru zikrim hayoling,
Bir so'rmading: "Nalar kechdi ahvoling?"
Eslaringa tushib shirin maqoming,
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.

Muqimiy hajviyoti.

Muqimiy ko'plab *hajviy she'rlar* ham yaratdi. XIX asr oxiridagi tarixiy sharoitda tomir otgan takabbur, poraxo'r tanobchilarning, tovlamachi, yulg'ichlarning esda qoladigan obrazlarini yaratdi. U o'z she'rlaridan birini "Tanobchilar" deb atadi. Tanobchi yer o'lchovchi deganidir. Erta bahorda dehqon yerni ekib bo'lgach, maxsus kishilar chiqib uni o'lchaganlar va shunga qarab soliq belgilangan. Bir tanob gektarining oltidan birini tashkil qilgan. Muqimiy shulardan ikkitasini qalamga oladi.

"To'yi Iqonbachcha"da bir to'y hangomasi tasvirlangan. Toshkentdagi bir boyning Iqondagi gumashta (xizmatchi)si to'y qilmoqchi. Hamma yoqqa ovoza tarqatgan: unday qilaman, bunday qilaman!.. Nogoh Toshkentdan "xo'jayin" "sizga to'y qilishni kim qo'yibdi" degan mazmunda sim qoqadi. "To'ynigingdan agarda chiqsa tutun, Munda bir dasmoyalarni butun",- deya tanbex berdi. Imoga maxtal gumashta va uning xotini xursandchiliklarini zo'rg'a yashiradilar. Yeng uchida to'y o'tadi. "Shirovorning o'ziga ikki yuz so'm bo'lurmi?! deb kerilib yurgan gumashta, tuzni ham "cho't"ga urganda, o'ttiz uch tangalik to'y qiladi.

She'rda mana shu "to'y"ga tayyorgarlik va uning o'tkazilishi kulgili bir shaklda tasvir etilgan: Masalan, to'y yashirincha o'tishi kerak edi. Shoir uni shunday tasvir etadi:

O'choq ustida gar yo'talsa birov,
Yer edi yelkasiga katta kasov.
Biri qattiq chiqarsa ovozin,
Bilmasin qo'shni, deb tutib og'zin.

Yoki to'yga aytishni ko'raylik.

Etti odamni o'z mahallasidin,
Qorni to'q, yangi to'n bisallasidin,
Qildi shovqinlamay imo uyidin,
Mundin, undin, yuqoridin, quyidin.

Mana, mehmonlarga osh qo'yilishi:

Suzdi osh bir likavda uch kishidin,
Ketti oshin ko'rib hamma xushidin,
Osh misoli tabaqda ko'z yoshi,
Kurmaki ko'p, guruchidin toshi, va hokazo.

Muqimiyning bir qator *hajviy she'rlari* borki, ulardan aniq, tayinli kishilar haqida. Bu hajviyalar ko'pchiligi mumtoz she'riyatimizning masnaviy janrida yozilgan. Masalan, "Tanobchilar", "To'yi Iqonbacha", "Moskovchi boy ta'rifida", "Voqelai Viktor" kabi, "Saylov", "Dar shikoyat Laxtin", "Voqelai ko'r Ashurboy xoji" g'azal yo'lida qofiyalangan. "Hajvi Viktor", "Hajvi Viktor boy" muxammasida yozilgan.

Muqimiy qator *she'rlarida* quloqlarni taraqa-turiq bilan batang qiluvchi, shalag'i chiqqan aravalar ("Aroba") "Faqiru boy", "Zohidu obid" demasdan, oyoqdan olib yerga yiqitadigan "polvon", "loy" ("Loy") haqida gap ketadi.

Muqimiy Farg'ona vodiysi bo'ylab qilgan sayohatlari taassurotlarini she'r qilib yozgan va bular "*Sayohatnoma*" nomi bilan shuhrat topdi. Bular shoirning Qo'qon-Farg'ona, Qo'qon-Shohimardon, Qo'qon-Isfara sayohatlari taassurotlaridir. Har uch sayohatnoma yaxlit bir asar

shaklida bo'lib, to'rtliklardan tarkib topgan. Jami: 244 misrada. Hammasi bir vaznda-ramali musammasni solimda, har bir band "ekan" radifi bilan yakunlanadi. Hammasi uchun bitta umumiy muqaddima va bitta umumiy yakun-xulosa bor. Asarda sayohat sababi beriladi, so'ng turli manzil-qishloqlar, ularning tabiati, manzaralari tasvir etiladi. Joylardagi odamlar, fe'l-udumlar hikoya qilinadi.

Muqimiy yangilana boshlagan adabiyotning g'oya va mazmunigagina emas, shaklu ifodalariga ham ma'lum yangiliklar kiritdi. Hajvga alohida e'tibor berdi. Ijtimoiy fikrga, jamiyat tanqidiga maxsus diqqatni qaratdi. Sayohatnomani mustaqil janr darajasiga ko'tardi. Ishqiy lirikaga ijtimoiy mazmun berdi.

Muqimiy haqida bir qator badiiy asarlar yozilgan, jumladan, Sobir Abdullaning "Mavlono Muqimiy" romani bor.

Furqatning hayoti va ijodiy faoliyati.

XIX asrning 2-yarmida dunyoga kelgan o'zbek *ma'rifatparvarlik adabiyoti* yirik vakillaridan biri *Furqat* (1858-1909) dir. Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat 1858-yilda Qo'qonda savdogar oilasida dunyoga kelgan. Boshlang'ich ma'lumotni maktabda oldi. Juda qobiliyatli bo'lgan Zokirjon 8-9 yoshlaridayoq savodini chiqardi va shu chog'lardan boshlab Navoiy, Fuzuliy, Hofiz, Sa'diy singari ulug' shoirlarning asarlarini o'qib tarbiyalandi. Yosh Zokirjon to'qqiz yoshida "Mening maktab aro buldur murodim, Xatimdek chiqsa, imlo-yu savodim", -deya she'r to'qiydi. O'n yoshlarida Fuzuliy she'riyatiga ko'ngul bog'laydi. 1870-yilda Ashur Muhammad qori xizmatiga kirib, qur'on qiroatini o'rganadi. Poshshoxo'ja degan kishidan arab tilini o'qiydi. Madrasaga tayyorlandi.

Zokirjon husnixat, sarf, nahvni sevadi, arabcha, forschani o'rganishga qiziqadi. 1873-yilda 14 yoshida, Xudoyorxon zamonida Qo'qonda madrasasida o'qiydi. Biroq zamon hodisalari o'qishni tugatishga imkon bermadi. Qo'qon xonligi tugatildi. Madrasalar yopildi. 1876-yilda Marg'ilonga borib, do'kondor tog'asiga yordam berdi. So'ngroq o'zi do'kon ochib savdo ishlari bilan shug'ullandi. Xususiy darslar berdi, hattotlik, mirzalik qildi. "Furqat" taxallusi bilan she'rlar yozib, shuhrat topdi. 1880-yilda Qo'qonga qaytib keldi, uylandi.

Zokirjon Qo'qon xonligi tugatilgandan keyin otasi bilan Marg'ilonga boradi. Bu yerda to 1881-yilgacha savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullandi. Shu bilan birga xususiy mutolaaga qizg'in berilib, o'zbek va fors adabiyotining klassiklari bilan chuqur tanishdi. 1882-yillarda Qo'qonga qaytadi. Bu yerda Muqimiy, Zavqiy, Muhyi va boshqalar bilan tanishdi. Ayniqsa, Muqimiy, Zavqiylar bilan qattiq do'stlashdi. Shularning tashviqi bilan asarlar yozdi va tezda talantli bir shoir sifatida tanila boshlaydi.

1885-yilda Furqat yana Marg'ilonga qaytib, o'zining savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullandi.

1889-yilda Furqat Toshkentga keladi. "Turkiston viloyatining gazetasi" muharrirlari bilan tanishib, bu gazetaga doimiy qatnashib turadi. "Gimnaziya" va shu singari bir qancha she'rlarini bostiradi. Rus tilini o'rganishga kirishadi. Rus tilini o'rganish rus adabiyoti va madaniyati bilan tanishuvga yo'l ochadi.

1891-yilda Furqat sayohatga chiqadi. Turkiya, Arabiston, Hindiston singari mamlakatlarni aylanadi. Bu sayohat paytida sharq tillaridan bir nechtasini o'rganadi.

1894-yilda Qashqarga o'tadi va Vobkentda yashaydi. Bu yerda shoir Tajalli bilan birgalikda fors tilida yozilgan badiiy asarlarni o'zbekchaga tarjima qilish ustida ishlaydi.

Shoir Furqat umrining oxirida chor hukumatiga va uning amaldorlariga qarshi o'tkir satira yozadi. Biroq uning bu satiralari bosilmay qolgan.

Furqat 1908-yilda Yorkentda vafot etdi. U usta lirik shoir edi.

Furqatning ijodiy merosi.

Furqat salmoqdor prozaik meros qoldirdi. Oddiy gazeta xabarlar va siyosiy mavzudagi publitsistik maqolalar, memuar xarakterdagi xotiralar va ilmiy etnografik mavzulardagi risolalar bu merosning asosini tashkil etadi. Shoir prozasida shunday namunalar uchraydiki, ularni o'zbek adabiyotida pamflet va feleton janrlarida yozilgan ilk asarlar deyish mumkin.

Furqatning Istanbulda yaratgan poetik asarlaridan hozircha bizga ma'lumi uning mashhur "Sabog'a xitob" maktubidir. Vatanini qo'msash, unga talpinish motivlari bilan sug'orilgan bu yirik

manzumada shoir Istambulda bir necha muddat turishini ma'lum qilgan. She'r shoirning Toshkentlik qadrdonlariga yo'llagan maktubidir. U masnaviy shaklida bo'lib, hajmi 280 satrni tashkil etadi. Nomi-shartli, so'ngroq mutaxassislar tomonidan qo'yilgan. She'r Vatan haqidagi tuganmas zavq va nihoyatsiz intizorlik bilan yakunlanadi.

"Furqatnoma" deb atalgan avtobiografik-memuar asarida Furqat hayoti va ijodiy faoliyatiga aniqlik kirituvchi ko'plab parchalar mavjud. Asarning yozilish sababiga hamda uning yetakchi mazmuniga oid quyidagi jummalarda Furqat bu nuqtani alohida qayd etadi: "... Gimnaziya boshlig'i (N.P.Ostroumov)... aksar mendin islomiyat madrasasi xususida savol qilur erdi. Bir kuni ittifoqo suhbat voqe' o'lub islomiya maktablarining ta'lim va tadbirlaridin aroga so'z tushib, men ul kechmish holatlarimni yaxshi fikr birla yodimga olib, bu minvolda naxrir ilkiga chekdimkim, mullo Xolmuhammad nom bir kishining farzandi erdim. Otam tiriklik ishig'a mashg'ul erdi...".

Furqatning lirik merosi o'zbek mumtoz adabiyotining go'zal namunalaridandir. U ehtiros to'la g'azallari, erkka tashna musaddaslari, hijron iztiroblari barq urib turgan she'riy satrlari bilan o'zbek adabiyotiga toza va tiniq ohanglar olib kiradi. Biroq uning hayoti g'oyat murakkab kechdi. Zamon uning taqdirini alg'ov-dalg'ov qilib yubordi. U bir umr Vataniga qaytish armoni bilan yashadi. Lekin bu uning asarlarigagina nasib etdi. Ko'ngli tubidagi pinhon dardlarini she'rga to'kdi. Bu she'rlar vatan sog'inchini betakror ifodalagan eng sara she'rlardan bo'lib qoldi.

80-yillarda Furqat Qo'qonda "Hammomi xayol" degan risola yozadi. "Chor darvesh", "No'h manzar" degan asarlarni forschadan o'zbekchaga tarjima qiladi. She'rlarini to'plab devon tuzadi.

1886-87 yillarda Qo'qondan Marg'ilonga keladi va bu yerda Masjidi jome'dan hujra olib yashay boshlaydi. Ko'p o'tmay, Muhammad Sharif degan savdogar do'stining yordami bilan do'kon ochadi.

Furqat 1889-91 yillarda Toshkentda bo'ldi. Sharifxo'ja shoir bilan bo'lgan suhbatlaridan birida taxallusi "judolig'" ma'nosini bildirishga ishora qilib, uni "Farxat" (shodlik, xursandlik) bilan almashtirishni taklif etadi. Bu unga manzur bo'lib, shu taxallus bilan ancha payt she'rlar yozgan. Lekin ko'p o'tmay, eskisiga qaytadi: taqdir unga "Furqat" taxallusi bilan tarixga kirishni nasib etdi.

1890-yil martning boshlarida "Turkiston viloyatining gazetasi" muharriri, Toshkent Erlar gimnaziyasining direktori N.P.Ostroumov Furqat bilan qattiq qiziqib qoladi va uning obro'-e'tiboridan, she'riy salohiyatidan unumli foydalanish rejasini tuzadi. Chunonchi, uni 1890-yilning 23-martida Toshkentning yangi shahar qismiga tomoshaga olib boradi, gimnaziyani ko'rsatadi. Rus ziyolilari, amaldorlar, hatto "janob general gubernator" bilan, rus ma'muriyati xizmatiga kirgan savodxon yurtdoshlari bilan tanishtiradi. N.Ostroumov shoir taassurotlarini yozdirib olib, gazetada bosib chiqaradi. Masalan, Furqatning gimnaziya haqidagi taassuroti ikki hafta o'tar-o'tmas, haftalik "Turkiston viloyatining gazetasi" da nashr etiladi. Bir haftadan so'ng, keyingi sonida "Gimnaziya" she'ri chop etiladi. Birin-ketin uning "Ilm xosiyati", "Akt majlisi xususida", "Nag'ma bazmi xususida", "Vistavka xususida", "Suvorov" masnaviylari e'lon qilinadi.

1891-yilda esa gazetaning bir necha sonida "Xo'qandlik Zokirjon Furqatning ahvoloti, o'zi yozg'oni" deb atalgan tarjimai holi bosilib chiqadi. Mutaxassislar uni shartli ravishda "Furqatnoma" deb ataydilar. Aslida N.Ostroumov Furqatni 1890-yilning apreldayoq gazeta redaksiyasiga ishga jalb etgan edi.

Furqat - lirik shoir.

Furqatning lirik she'rlari kitob holda dastlab 1913-yilda Muqimiy she'rlari bilan birgalikda bayoz holda bosmaga bosilgan edi. Shoir lirik merosining salmoqli qismi g'azallar bo'lib, ularning soni 200 atrofida va ularning mavzui, qisqa qilib aytganda, odam va olam haqida. Inson-odamning ma'naviy dunyosi, mehri va qahri haqida, olamning obodligi, betimsolligi, olam va odam munosabatlari haqida.

Furqat she'rida, birinchi navbatda, Navoiy va Fuzuliyni o'ziga ustoz biladi. Ko'proq shulardan ilhom oladi.

Shoir o'z g'azallarida mashuqa tasvirini ifoda qilar ekan, she'riyatimizning boy obraz va timsollaridan unumli foydalanadi, ularni davom ettiradi. Shoir qoshu ko'zlarni g'oyat nozik psixologik holatlar bilan bog'laydi.

"Ketkil ul yon!" deb ishorat qilsa har gal qoshlaring,

"Kel beri!"-deb aylashur oxista iymo ko'zlaring.

Furqatning "Sayding qo'ya ber, sayyod, sayyora ekan mendek" satri bilan boshlanuvchi musaddasi uning ijodida muhim o'rin egallaydi. Sayd (ov), sayyod (ovchi), dom (tuzoq) obrazlari Sharq adabiyotida qadimdan bor edi. 18-asrda turkman shoiri Andalib ushbu obrazlardan unumli foydalanib, ovchi tuzog'iga tushgan ohuga hamdardlik tuyg'usi bilan to'lib toshgan maxsus muxammas ham yozgan edi. Furqatning musaddasi ham shu an'anada bitilgan. Lekin shoir yashagan zamon, Turkistonday yurtning egasi qo'lidan ketib, istilo asrining sayyodi qo'lga tushishi unga, tabiiyki, yangi ma'no, yangi mazmun beradi. Musaddas 7 banddan iborat. Dastlabkii band shunday belgilanadi:

Sayding qo'ya bek, sayyod, sayyora ekan mendek,
Ol domini bo'ynidin, bechora ekan mendek,
O'z yorini topmasdan, ovora ekan mendek,
Iqboli nigun, baxti ham qora ekan mendek,
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mendek,
Qo'ygan jigari bag'ri sadpora ekan mendek.

Shoir chet ellarda kezar ekan, bir daqiqa vatanidan ko'ngil uza olmaydi. Yurtidan ayro tushganini dil-dilidan sezib turadi. Iztirob chekdi. Buning yorqin misoli uning xorijda yozgan "Adashganman" radifli g'azali va turkum muxammaslaridir.

Furqat, asosan lirik shoir. Garchi u o'zbek tilidagi ilk gazetada bevosita ishlagan, o'nlab maqolalar e'lon qilgan birinchi o'zbek gazetachisi, "Sarguzashtnoma" deb avtobiografik qissa yozgan nosir bo'lsada, xalq qalbida ko'proq shoirligi bilan qoldi.

1959-yilda Furqat mavalludining 100 yilligi keng nishonlandi. Shu munosabati bilan asarlarining ikki jildligi bosilib chiqdi.

Manbalar:

"Muqimiy tanlangan asarlar" 2 tom Toshkent 1960-61 yil.

G'ulom Karimov "O'zbek adabiyoti tarixi" 3-kitob Toshkent 1975 yil.

G'.Karimov "Muqimiy hayoti va ijodi" Toshkent 1970 yil.

A.Abdug'afurov "Muqimiy satirasi" 1976 yil.

S.Ahmedov "O'zbek adabiyotida sayohatnoma" Toshkent. Adabiy meros nashriyoti. 1976 yil

S.Ahmedov "O'zbek demokratik adabiyotida she'riy hikoyalar" Toshkent

Furqat "Tanlangan asarlar" 2 tomlik. O'zbekiston Davlat adabiyot nashriyoti. Toshkent 1959-yil.

Furqat "Tanlangan asarlari" G'.G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti. Toshkent. 1980-yil.

Zokirjon Furqat "Asarlar majmuasi" 2 tomlik. H.Sulaymonov nomidagi qo'lyozmalar instituti tahrir va nashriyot bo'limi. Toshkent 1991-yil.

Mumtoz manzuma. "O'zbek adabiyoti va san'ati". 11-sentyabr. 1992-yil.

"Sayohati Furqat" "O'zbek adabiyoti va san'ati" 14-dekabr 1990.

Abdug'afurov.A. Zokirjon Furqat. Toshkent. Fan. 1977-yil.

Rasul Xolid. Furqat. Tanqidiy-biografik ocherk. O'zbadiynashr, Toshkent, 1959-yil.

Yusupov Sh. Furqat yo'llarida. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent, 1984-yil.

Yusupov Sharif. "O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyoti va Furqat. O'zbekiston. Toshkent. 1992-yil.

"Zokirjon Furqat". Maqolalar to'plami. O'zadabiynashr, Toshkent, 1959-yil.

"Furqat va Muqimiy haqida maqolalar", O'zadabiynashr, Toshkent, 1958-yil.

Furqat ijodiyoti. Toshkent, Fan, 1990-yil.

JADIDCHILIK DAVRI O`ZBEK ADABIYOTI

Reja:

Jadidchilik harakatining vujudga kelishi.

Jadidlarning matbuot va teatr sohasidagi islohotlari.

Jadid adabiyotining paydo bo`lishi.

Behbudiy faoliyati

Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi.

Mavzuga oid tayanch so`z va tushunchalar: Ijtimoiy-siyosiy sharoit va jadidchilik harakati, maorif va islohot, jadidlar, matbuot va teatr, jadid adabiyotida vujudga kelgan yangi janrlar, dramatik tur, epik tur; Behbudiy, jadidchilik, matbuot, "Padarkush", "Samarqand" gazetasi, "Oyina" jurnali, "Drama truppassi", ma'rifat, millat; Fitrat, "Tarbiyai atfol" jamiyati, "Munozara", " Hind sayyohi bayoni...", "Sayha", "Chin sevish", "Hind ixtilolchilari", "Abulfayzxon"; Fitrat, "Tarbiyai atfol" jamiyati, "Munozara", " Hind sayyohi bayoni...", "Sayha", "Chin sevish", "Hind ixtilolchilari", "Abulfayzxon"

1. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi.

Jadidchilik harakati Turkistonga XIX asrning 90-yillarida kirib kelgan va ommaviy tus ola boshlagan. Bu harakatning paydo bo`lishi qirim-tatar ma'rifatparvari *Ismoilbey Mustafobey o'g'li Gaspirali* nomi bilan bog`langan. Bu ilg'or ta'limotning paydo bo`lishi mustamlaka Turkistonning og'ir davriga to`g'ri keldi. O`lkada rus shovinizmi avj olgan, ikkiyoqlama zulm xalqning tinkamadorini quritgan, bu aholining norozilik ko'tarishlariga sabab bo`layotgan edi. Ayniqsa, XX asr boshlarida xalqimiz ahvoli juda og'irlashdi. Birinchi rus inqilobi deb atalgan 1905-yilgi qonli voqealar va uning oqibatlarini Turkistonning boshiga ham qora kunlarni soldi.

Jadidchilik harakati mana shu ijtimoiy-siyosiy shart-sharoitning mahsuli, hayot talabi, ehtiyoj farzandi sifatida dunyoga keldi. Bu tabiiy, tarixiy hol edi. Chunki rus mustamlakachilari amalga oshirayotgan istibdod siyosatining mudhish oqibatlarini birinchi bo'lib jadidlar – ziyolilar payqadilar.

Jadidlar o'zlari ochgan *maktablar*da diniy bilim bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni o'qitishni ham yo'lga qo'ydilar, rus va boshqa chet tillarini o'rganishga e'tibor berdilar. O'zlari chet ellarga borishib, o'qish-o'qitishning yangicha usullarini o'rganib keldilar, maktablari uchun kitoblar, qo'llanmalar olib qaytdilar. Jadid pedagoglarining o'zi darsliklar yaratdilar va nashr qildilar. Jadidlarning bunday xatti-harakatlari albatta, rus kolonizatorlariga ma'qul tushmasdi.

Jadidlarning matbuot va teatr sohasidagi islohotlari.

Jadidlar o'zlarining bu siyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun maorif sohasidan tashqari va teatr kuchiga ham tayandilar. Jadid matbuotining ilk nashri "*Tarjumon*" gazetasi bo'lib, u 1883-yilda Qrimda I.Gespirali tomonidan chiqarilgan. Gazeta asosan ommani ilm olishga chaqiradi. Shuning uchun ham obunachilar yildan yilga ko'paydi. Bir yining o'zida 320 tadan 1000 taga etdi. Turkistonda uning 200 ta doimiy obunachisi bor edi. Uning ta'sirida Turkistonda ham birin-ketin gazetalar paydo bo'la boshladi. Turkiston jadidlari chiqargan ilk qaldirg'och gazeta "*Taraqiy*" bo'lib, u 1906-yilning yanvaridan 31.03 gacha haftada ikki martadan chiqib turdi. Gazetaga Ismoil Obidiy muharrirlik qilgan. Lekin tezda gazeta kofirlar gazetasi debyopildi. 1906-yil sentbridan Munavvarqori muharrirligida "*Xurshid*", 1907-yildan Avloniy tomonidan "*Shuhrat*" gazetalar chiqa boshladi. Ammo bu gazetalar ham atigi 2 oydan umr ko'rdilar xolos. 1908-yildan chiqa boshlagan "*Osiyo*" esa 5 ta soni chiqqach, to'xtadi.

Jadidlarning xalqni uyg'otish uchun foydalangan vositalaridan yana biri teatr edi. Boisi, bu paytda aholining hammasi ham savodli emasdi, har bir xonadonga gazeta va jurnal kirib bora olmas, ularni faqat savodli va puldor odamlargina o'qir edilar. Yuzlab, minglab oddiy odamlarga qisqa muddatdan o'zining ayanchli hayotini ko'rsatishning yagona yo'li *teatr* edi. Zero, Munavvarqori ta'biri bilan aytganda, "Teatr sahnasi har tarafi oynaband qilingan bir uyga o'xshaydurki, unga har kim kirsa, aybu nuqsonini ko'rib ibrat olur.. Teatr ulug'lar maktabidir".

Da'stlab Samarqandda Behbudiy, keyin Toshkentda Munavvarqori, Avloniy, Qo'qonda Hamza Hakimzoda tomonidan dramaturppalar tashkil etildi. O'zbek dramaturgiyasi va sahnasining birinchi namunasi Behbudiyning "Padarkush" p'esasi bo'lib qoldi. Qisqa muddatda o'nlab dramalar tug'ildi. Abdulla Shahidiy "Mahramlar", Nusratulla Qudratillaxo'janing "To'y", A.Qodiriyning "Baxtsiz kuyov", Abdulla Badriyning "Axshoq", "Juvonmarg", Hoji Muinning "Ko'knori", "Eski maktab", Avloniyning "Advokatlik osonmi?", "Pinak", Hamzaning "Zaharli hayot" dramalari shular jumlasidandir.

Jadid adabiyotining paydo bo'lishi.

Jadid adabiyoti mumtoz adabiyotning shakli va mazmuniga jiddiy o'zgaishlar olib kirdi. Bu o'zgarishlarning birinchisi adabiyotda hali shu paytgacha ko'rinmagan *yangi janrlar*ning paydo bo'lishida ko'rindi. Avvalo, jadid adabiyotda tamomila yangi publitsistika janri vujudga keldi va XX asr adabiyotida mustahkam o'rin egalladi. Birgina Behbudiyning o'zi 200 dan ziyod publitsistik maqola yozdi. Avloniy, Munavvar qori, Mirmuhsin, Hamza kabilar o'zbek publitsistikasining beshigini tebratgan ijodkor bo'lib qoldilar.

Jadid adabiyotida *she'riyat* ruhan yangilandi. Asrlar mobaynida qon-qoniga singigan sokin pand-nasihattan jangovar murojaatga, keskin targ'ibotga o'tdi va bu bilan xalqning ruhini yangilashga, o'zlarini anglatishga kirishdi. Shaklda asta-sekin aruz vazni qobig'iniyorib chiqishga urinishlar sezildi. Bu borada Fitrat, Qodiriy, Avloniy, Hamza, Cho'lponlar ibrat ko'rsatdilar. She'riyatga millatni asoratdan qutqarish, ozodlik g'oyasi kirib keldi. Bu g'oyalarni esa sokin usulda, ko'hna aruz vaznida ifodalash mumkin emasdi. Fikrlarimni ayrim misollar bilan kengaytiraman.

Jadid adabiyotida *realistik proza* paydo bo'ldi. Aslida proza o'zbek adabiyotiga begona emas. U adabiyotning ilk shakllanish davridan beri hamroh bo'lib keladi. Ayniqsa, hikoya janri

o'zining ma'lum an'alariga egaligi bilan ajralib turadi. Jadid adabiyoti oyoqqa turgan paytga kelib hikoya janri ham mavzusi, ham mazmuni jihatdan yangilanish yo'liga kirdi. Unda realistik unsurlar, hayotiylik, detallarning haqqoniyligi kuchaydi. Bu jihatdan Cho'lponning "Doktor Muhammadyor", "Qurboni jaholat", A. Qodiriyning "Juvonboz", "Uloqda" kabi hikoyalariga to'xtalib, ularni tahlil qilaman. Realistik unsurlarning mustahkam o'rin olishini misollar bilan tushuntiraman.

Epik turning eng yirik janri *roman* ham jadid adabiyoti bag'rida tug'ildi va voyaga etdi. Dastavval roman atamasi iste'molga kirib keldi. Uni birinchi bo'lib Hamza Hakimzoda tilga oldi va "1908 yilda "haqiqat kimda" nomli o'tmish honlar hayotidan romanyozdim" deydi. Keyinroq shu adibning "YAngi saodatyohud milliy roman" asari dunyoga keldi. Mirmuhsin SHermuhammedovning "Befarzand Ochildiboy" nomli romani ham shu davr 1914-yil mevasidir. Romanda badavlat va mulkdor Ochildiboyning hamda undan qarzdor bo'lib qolgan kambag'al Ko'rahmadning hayoti va fe'l-atvori qiyosan tasvirlanadi va faqir kishi timsolida atroflicha ko'rsatishga harakat qiladi. O'zbek adabiyotida roman janrining mukammal namunasi bu A. Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani bo'lib, biz bu roman to'g'risida A. Qodiriy hayoti va ijodini o'rganganimizda maxsus to'xtalamiz.

Xullas, shuni alohida qayd etish lozimki, jadid adabiyoti aholini ma'rifat, istiqloлга targ'ib etganligidan uning hamma janrlarida ham publitsistik ruh kuchli edi, grajdanlik tuyg'ulari ustuvor edi, xalqni milliy o'zligini anglashi chaqiriq yetakchi edi. Bu jadid adabiyotining o'ziga xos fazilatlaridir.

Muammoli masalaga javoblar: Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi sabablari sho'ro mafkurasi hukmron bo'lgan davrlarda o'rganilmagan, uning namoyandalari ijodi faqat tanqidiy o'rganilar edi. CHunki jadidlar har qanday mustamlakachilikka bar ham berishni, milliy hamjihatlikni, turli shovinistik qarashlardan holi bo'lgan mustaqil davlatni yuzaga keltirishi, matbuot, idora usuli, o'qitish tizimi borasida tub islohotlarni amalga oshirish orqali jamiyat taraqqiyotini ta'minlashni ko'zlagan edilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919).

Ma'rifatparvar adib, alloma va jamoat arbobi Mahmudxo'ja Behbudiy jadidchilik harakatining hamda XX asr o'zbek adabiyotining boshlovchilaridan biri hisoblanadi. U 1875-yili Samarqand shahrida ruhoniylar oilasida dunyoga keldi. Uning otasi islom huquqshunosligi bo'yicha yirik mutaxassis bo'lib, bu borada ko'plab kitob va risolalar muallifi ediki, bu o'z navbatida Mahmudxo'jaga ta'sirini o'tkazmay iloji yo'q edi. U dastlabki ma'lumotni eski maktab, madrasalarda oldi. 1902-yilda Makkaga borib u hoji va mufti bo'lib qaytadi. 1903-1904 yillarda Qozon, Ufa shaharlarida bo'lib, Yevropa madaniyati bilan tanishadi. Jadidchilik harakatining asoschisi I.Gasprinskiy bilan suhbatlar quradi va maktab-maorif, madaniyat-ma'rifatparvarlik g'oyalari targ'iboti aks etib turgan bir qator maqolalari bilan ro'znoma, oynomalarda chiqa boshlaydi. 1905-yil arafasida Behbudiy zamonasining ko'zga ko'ringan ziyolisi bo'lib taniladi. "Siyosiy, ijtimoiy faoliyati, bilimining kengligi jihatidan o'sha zamonda Turkistondagi jadidlar orasidan unga teng kela oladigani bo'lmasa kerak", - deb yozadi Fayzulla Xo'jayev u haqda. Behbudiy Gasprinskiy yo'lga qo'ygan "usuli jadid" maktablarini Turkistonda qaror toptirishda, ularni darslik va qo'llanmalar bilan ta'minlashda jonbozlik ko'rsatdi. Uning "Muntahabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya"), "Kitobatul-atfol" ("Bolalar kitobi"), "Tarixi muxtasari Islom" ("Islomning qisqacha tarixi"), "Amaliyoti islom", "Muxtasari jug'rofiyai rusiy" ("Rossiyaning qisqacha geografiyasi") kabi darsliklari shu jonbozlik natijasidir.

Mahmudxo'ja Behbudiy adabiyot, tarix, geografiya fanlari qatori siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug'ullanadi. O'zining siyosiy qarashlarini, millat (uning) tili, dini, e'tiqodining kamsitilganligini ko'rib "Ey millat, mana ahvolingga bir razm sol, qanday yashamoqdasan!" degan xitob-hayqiriqlarni "Faryodi Turkiston" (1907, "Vaqt"), "Ikki emas to'rt til lozim" ("Oyina", 1913), "Til masalasi" ("Oyina", 1915), "Tanqid saralamoqdur!", "Teatr nadur?" kabi maqolalarida ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda 1913-yilda "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnallarini chiqarishga bosh-qosh bo'lib, bu sohada ham o'z jonbozligini ko'rsatdi.

"Ikki emas to'rt til lozim" degan maqolasida u shunday yozadi: "Biz turkistonlilarg'a turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Turkiy, ya'ni o'zbekiyni bilmoqni sababi shulki, Turkiston xalqining aksari o'zbekiy so'ylashur, forsiy bo'lsa, madrasavu-udabo tilidir. Barcha madrasalarda shar'iy va diniy kitoblar arabi ta'lim berilsa, mudarrislarning tarkir-u tarjimalari forschadur. Ayni paytda yana bir til - ruschani ham bilish kerak. Chunki bu zamon tijorat ishi, sanoat va mamlakat ishlari, hatto dini islom va millatg'a xizmat ruscha ilmsiz bo'lmaydur!"

Badiiy ijodda ham Behbudiy o'tkir muammolarni ko'tardi. 1911-yilda yozilib, 1913-yilda bosilgan "Padarkush" dramasi Behbudiyga juda katta shuhrat keltirdi. Bu – birinchi o'zbek pyesasi drama janriga asos soldi, degan satrlarni ham uchramiz adabiyotlarda. Har holda Behbudiy karvonboshi bo'lib tarixga kirdi. Asar 1914-yilning 15-yanvarida Samarqand havaskorlari tomonidan sahnaga qo'yildi. 27-fevralda esa, Toshkentdagi mashhur "Kolizey"da "Turon" truppassi o'z faoliyatini shu spektakl bilan boshladi. Asar jamoatchilikka, ayniqsa, adabiyotga kirib kelayotgan yoshlarga qattiq ta'sir ko'rsatdi. "1913-yillarda chiqqan "Padarkush" pyesasi ta'sirida "Baxtsiz kuyov" degan teatr kitobini yozib yuborganimni ham payqamay qoldim", - deb qayd etadi A.Qodiriy o'z tarjimai holida. Bu dramasi Behbudiy o'zining: "Ma'rifatsiz millat inqirozga mahkumdur", - degan qarashini badiiy ifodalashga uringan edi.

1919-yilning bahorida ayg'oqchilar Behbudiy Shahrizabzda qo'lga oladilar. So'ng u yashirincha Qarshiga keltirildi. Qarshi begi To'qaybekning buyruqi bilan pinhona qatl etildi. 20-yillarning matbuot xabarlariga Behbudiy o'limini bizga mana shunday yetkazadilar. Ma'rifatparvar adib, jamoat arbobi Behbudiy hayotiga shunday qilib chek qo'yildi. Umuman olganda, istiqlolni muqaddas tutgan, o'lkaning milliy, diniy zamindagi taraqqiyoti uchun kurashgan va xalq orasida g'oyat katta mavqega ega bo'lgan Behbudiy keyinchalik asosli dalillar bilan oqlandi, nomi tiklandi. Uning o'limiga bag'ishlab ko'plab marsiyalar yozildi. Ulardan biri shunday so'zlar bilan boshlanadi: "Sen Turonning quyoshi eding..."

Abdurauf Fitrat (1886-1938)

Abdurauf Fitrat Buxoroda jadidchilik harakatining va XX asr o'zbek adabiyotining boshlovchilaridan biri hisoblanadi. Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoro shahrida savdogar Abdurahimboy oilasida tug'ildi. O'sha davr eski maktablaridan birida, so'ng mashhur "Mir Arab" madrasasida o'qidi. 1904-1906-yillarda u haj safarida, Arabiston, Turkiya, Moskva, Peterburg shaharlarida bo'ladi. Turkiyadagi o'zgarishlar, Moskvadagi hayot uni Yevropaga yaqinlashtiradi. Hajdan kelgach, Buxorodagi jadidchilik harakatiga boshchilik qiladi.

1909-yil 18-iyunda Buxoro yoshlari "*Tarbiyai atfol*" nomida yashirin jamiyat tomonidan Istanbulga yuborilgan edi. Ayniy ta'kidlashicha, "... u talabalarning eng iste'dodlisi va eng fozili edi". Fitrat Istanbulda 1909-1913 yillar davomida tahsil oladi. U Istanbul dorilfununida o'qib yurgan kezlarda hamshaharlari bilan birgalikda "Buxoro ta'limi (umumiy) maorif jamiyati"ni tuzadi. Bu jamiyat buxoroliklarning o'zaro moddiy-ma'naviy uyushmasi vazifasini bajargan.

1909-1913 yillarda Istanbulda Fitratning bir qator asarlari forsiy tilda bosilib chiqdi. Chunonchi, 1909-yilda "*Munozara*" ("Hindistonda bir farangi ila buxoroli bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadidi xususida qilgan munozarasi") asari bosildi. Dramatik publitsistikaga moyil bu asar zamonning zayli bilan tarixiy taraqqiyotning ikki pog'onasida turib qolgan, din va dunyo, jamiyat va ma'rifat haqida ikki xil qarashga ega bo'lgan ikki kishining bahsi asosiga qurilgan edi. Ushbu asar 1911-yilda Hoji Muin tarjimasida "Turkiston viloyatining gazetasi" sahifalarida, 1913-yilda Behbudiy so'zboshisi bilan alohida kitob holida nashr qilindi.

1912-yilda Fitratning yana bir diqqatga molik asari – "Bayonoti sayyohi hindi" ("Hind sayyohining qissasi") chop etildi.

Fitratning fors tilida yozilgan dastlabki she'riy to'plami – "*Sayha*" ham Istanbulda 1911-yilda nashr etildi. Shoirning bu to'plamga kirgan she'rlari 1914-yilda "Sadoi Turkiston" gazetasida ham bosildi. "Vatanparvarlik she'rlari to'plami bo'lgan "Sayha"ni o'qigan kishilarni Buxoro hukumatigina emas, shu bilan birga rus hokimiyati ham ta'qib qila boshladi. Chunki bu she'rlarda Buxoro mustaqilligi g'oyasi birinchi marta juda yorqin shaklda ifodalab berildi", - deb yozgan edi F.Xo'jayev.

Fitrat *Turkiston muxtoriyatini* so'ngsiz mehr bilan qarshi oldi. Muxtoriyat e'lon qilingan 27-noyabr tunini u "milliy laylatulqadrimiz" deb atadi. U o'z quvonchini shunday ifoda etadi: "Ellik yildan beri

ezildik, tahqir etildik. Qo'limiz bog'landi, tilimiz kesildi. Og'zimiz qonlandi. Yerimiz bosildi. Molimiz talandi. Sharafimiz yemuruldi. Nomusimiz g'asb qilindi. Insonligimiz oyoqlar ostiga olindi. To'zimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har buyruqqa buysunduk. Butun borlig'imizni qo'ldan boy berdik. Yolg'iz bir fikrni bermaduk, yoshunturduk, imonlarimizga o'rab saqladuk. Bu – Turkiston muxtoriyati!"

Fitratning pedagogik faoliyatida uning 1917-yilda Bokuda nashrdan chiqqan "O'quv" nomli darsligi alohida o'rin tutadi.

1918-yilda Fitrat boshchiligida "*Chig'atoy gurunji*" ish boshladi, bu hukumat ro'yxatidan o'tgan rasmiy tashkilot bo'lib, o'zbek adabiyoti va tilining rivojlanishi, nazariy-amaliy masalalarini o'rganish uning maqsadini tashkil etgan.

Fitrat 1920-1924 yillarda Moskvada Sharq tillari institutida dars beradi, bu yerda u professorlik unvonini oladi.

1916-1934 yillarda dramaturgiya sohasida barakali ijod qildi. Fitratning 13 ta drama yozgani bizga ma'lum. Shundan 7 tasi to'la holda saqlangan. 1920-yilda yaratilgan "*Chin sevish*", "*Hind ixtilolchilari*" dramalari romantik ruh bilan sug'orilgan. Ularda muallif voqealarni Hindistonga ko'chirish orqali millatparvarlik g'oyalarini tasdiqlashga intilgan edi. Faqat bu dramalarning mazkur fazilati keyinchalik butunlay teskari talqin etilib, Fitratni "millatchi", "xalq dushmani" sifatida ayblash uchun dastak qilingan edi.

1924-yilda yaratilgan "*Abulfayzxon*" tragediyasini Fitrat dramaturgiyasining cho'qqisi deyish mumkin, chunki unda shafqatsiz tarix sabog'i yuksak badiiy haqiqat darajasiga ko'tarilgan va insoniyat cheksiz qon to'kishlar oqibatida dahshatli fojialarga olib kelishidan ogoh etilgan edi. O'zining yuksak fazilatlariga ko'ra, bu drama Fitrat ijodiy yo'lining yetuklik bosqichi boshlanganligidan guvohlik bergan edi. 1926-yilda yozilgan "Arslon" va 1930-yilda yaratilgan "Ro'zalar" dramalari esa zamonaviy ruh bilan sug'orilgan edi. "Arslon"da "Boy ila xizmatchi" dramasi ruhi yaqqol sezilib turadi.

Fitrat o'zbek adabiyoti tarixida ko'pqirrali ijodkor sifatida o'chmas iz qoldirdi. U tanqid va adabiyotshunoslik, tarix va san'atshunoslik, tilshunoslik va matnshunoslik sohalarida juda ko'p asarlar yaratib, o'zbek madaniyati xazinasini bebaho durdonalar bilan boyitdi. Ular orasida "Adabiyot qoidalari", "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi", "Umar Hayyom", "O'zbek adabiyoti namunalari" kabi kitoblar Alisher Navoiy, Mashrab, Ahmad Yassaviy, Bedil singari shoirlar ijodiga oid maqolalari, "Qutadg'u bilig" qo'lyozmasini topishdek xizmatlari diqqatga sazovordir.

Jadidchilik rahnamalaridan biri Fitrat bir necha safdoshlari qatorida 1938-yil 4-oktyabrda qatl etiladi.

1991-yili madaniyatimiz darg'alari Cho'lpon, Abdulla Qodiriylar qatorida Abdurauf Fitrat ham Navoiy nomli respublika mukofoti bilan taqdirlandi.

Nazorat savollari:

Turkistonda jadidchilik harakatining asoschisi kim edi?

Ismoiyl Gaspirali haqida ma'lumot bering?

Jadid so'zining ma'nosi nima?

Jadid adabiyoti va ma'rifatparvarlik

Jadid adabiyotida qanday yangi janrlar vujudga keldi?

Behbudiy kim o'ldirgan?

Behbudiy har bir ma'rifatli inson uchun necha tilni bilish zarur deb hisoblagan?

Behbudiy fikricha, hurriyat qanday qo'lga kiritiladi?

Behbudiyning "Padarkush" dramasi qanday badiiy qiymatga ega?

Fitrat qayerlarda ta'lim olgan va dars bergan?

Qaysi asarlar Fitrat ijodiy yo'lidagi izlanishlar bosqichining mahsuli hisoblanadi?

Qaysi asar Fitrat ijodining eng jiddiy yutug'i hisoblanadi?

Fitratning zamonaviy mavzudagi dramalari qanday badiiy qiymatga ega?

Fitrat asarlarida adabiyotshunoslikning qaysi masalalari kengroq va chuqurroq yoritilgan?

Adabiyotlar:

Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T., 1994.

Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T., 1995.

Qosimov B. Jadidchilik. "Milliy uyg'onish" to'plami. ToshDU. 1993.

Rizaev SH. Jadid dramasi. T., 1997.

Solijonov Y. Tong yulduzlari. F., 1995.

Tanlangan asarlar (B.Qosimov tahriri ostida). "Ma'naviyat", Toshkent, 1998.

Qosimov B. Maslakdoshlar. "Sharq" nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati. Toshkent, 1994.

Turdiyev Sh. Padarkush fojiasi haqida, Sharq yulduzi, 1989, 5-son.

Qosimov S. Behbudiy va jadidchilik. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", 1990, 3-4-sonlar.

Aliyev A. Mahmudxo'ja Behbudiy. "Yozilish" Toshkent, 1994.

Alimova D., Rashidova D. Mahmudxo'ja Behbudiy va uning tarixiy qarashlari. "Ma'naviyat", 1998.

Chin sevis. T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1997.

Karimov N. Mavlono Fitrat. "Fidoiylar" to'plami. T., "Fan", 1990.

Sharafiddinov O. Abdurauf Fitrat. "Yoshlik", 1990, 5-son.

Qosimov B. Fitrat. "Sharq yulduzi", 1992, 10-son.

G'aniyev I. Fitrat. E'tiqod. Ijod. T., Kamalak, 1994.

G'aniyev I. Fitratning tragediya yaratish mahorati. T., G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1994.

Reja:

1. Sho`rolar davri o`zbek adabiyoti haqida.
2. G`afur G`ulom hayoti va ijodi.
3. Abdulla Qahhor ijodiy faoliyati.

Mavzuga oid tayanch so`z va tushunchalar: adabiy yohnalish, adabiy oqim, adabiy tahsir va aloqalar, publitsistika, adabiy jarayon, janrlararo taraqqiyot; "Toshkent", "Rus-tuzem maktabi", "yetimlik", "o`qituvchilik", "Go`zallik nimada?", "SHum bola", "YOdgor", "Mening o`g`rigina bolam", "Vaqt", "O`zbekiston xalq shoiri", Abdulla Qahhor.

1. Sho`rolar davri o`zbek adabiyoti haqida.

Yangi o`zbek adabiyotida biz XX asrning 30-40 yillarida adabiyotga kirib kelib, 80-yillargacha yashab ijod qilgan G`.G`ulom, Oybek, Uyg`un, A.Qahhor, M.Shayxzoda, H.Olimjon, Mirtemir, Zulfiya, A.Muxtor, S.Ahmad hamda 50-60 yillarda adabiyotga kirib kelgan O.Yoqubov, P.Qodirov, E.Vohidov, A.Oripov kabilarning ijodini o`rganamiz.

40-60 yillar XX asr tarixida o`ziga xos va g`oyat murakkab sahifalarni tashkil etadi. Binobarin, 2-jahon urushi va bu urush jarohatlarini tiklash, 50-yillar o`rtalarida ozgina bo`lsada, demokratiya shabadasining esishi shu yillarga to`g`ri keladi. Urush yillarida rus, ukrain, belorus adiblari hamkorlikda ijod qildilar. V.Jirmunskiy va X.Zaripovlarning "Perviy uzbekskiy geroicheskiy epos" nomli monografiyasi «Alpomish» dostonini qayta dunyoga keltirdi va elga tanitdi. A.Deych va Oybekning A.Navoiy ijodiga bag`ishlangan monumental tadqiqotlari vujudga keldi.

2-jahon urushining g`alaba bilan yakunlanishi va bu g`alaba qozonishning bosh sababchisi I.V.Stalin deb tan olinishi hamda g`oliblik "toji"ning Stalin boshiga kiydirilishi urushdan keyin mamlakat ichkarida ham, hayotda ham murakkab tarixiy vaziyatning vujudga kelishiga sabab bo`ldi. Mamlakat ichkarisida Stalin shaxsiga siginish yanada avj olinib, qurquv saltanati vujudga keldi, xalqaro miqyosida esa dahshatli "sovuq urush" holati paydo bo`ldi. Agar siz bu davr daxshatlarini chuqurrok bilib olishni istasangiz S.Ahmad bilan O`Hoshimovning "Qo`rquv saltanati" sarlavhali suhbatini, Shukrulloning "Kafansiz ko`milganlar" nomli romanini o`qib chiqishni tavsiya etaman.

SHunday qilib, XX asrning 60 yillaridan adabiyotda s o k i n l i k davri boshlandi. Biz bu bosqichni shuning uchun ham "sokinlik davri" deb atadikki, mazkur 20 yillikda hamma narsa joyida, xalq farovon yashayapti degan tushuncha hukmron edi. bironta asarda hayotda ro`y berayotgan etishmovchilik, kamchiliklarni ko`rsatishi mumkin emasdi. R.Fayziy "CHO`lga bahor keldi", SH.Rashidov "G`oliblar", I.Rahim "Ixlos" kabi qissalarini shu nomdagi romanga aylantirdilar. Poeziyaning ham, proza bilan dramaturgiyaning ham asosiy ifoda oboekti sovet kishilarining farovon turmushi, mehnatdagi kashfiyotlar, ulkan inshootlar, qahramonlari esa kommunistiq dunyoqarashga ega bo`lgan shaxslardan iborat edi.

O`zbek adabiyotiga 60 yillarda kirib kelgan bir guruh ijodkorlar yangi ohang va ruh olib kirishga harakat qildilar. Bular E.Voxidov, A.Oripov, R.Parfi, O.Matchon, X.Xudoyberdieva, O.Xojieva, M.Jalil, J.Kamol singari shoirlar, O`.Umarbekov, X.To`xtaboev, U.Nazarov, M.Mansurov, U.Xoshimov, SH.Xolmirzaev kabi yozuvchilar A.Ibroximov, M.Boboevdek dramaturglar edilar. Ularning kirib kelishi adabiy havoni yangilandi. Masalan, *30-yillar* lirikasida asosan mehnat mavzusi etakchi o`rinni egallagan, ijodkorlar lirik qahramonning ijtimoiy burchini qo`llashga ko`proq eotibor bergan bo`lsalar, *50-yillarda* deklorativlik, haybarakallachilik, ritorik munosabat ustunlik qildi. *60-yillarning* o`rtalaridan boshlab, shehriyatda tuyg`ular rang-barangligi, inson ruhini teran ifodalash kabi fazilatlar ruyobga chiqdi. E`tiborli tomoni shundaki, har bir shoir o`zining xalq oldidagi mahsuliyatini anglab etdi, unga nimalar haqda aytib berilish yull arini izladi.

2. G`afur G`ulom hayoti va ijodi. (1903-1966)

"Zamonlar o`tib, kelajakda jahon poeziyasining tarixi yaratiladigan bo`lsa, uning XX asr she`riyatiga bag`ishlangan bobida Federiks Garsiya Lorca, Pablo Neruda, Nozim Hikmat kabi

mashhur nomlar qatorida o'zbek shoiri G'afur G'ulomning nomi ham muqarrar o'rin oladi", deydi tanqidchi Ozod Sharafiddinov o'zining "Xalq baxtining otashin kuychisi" maqolasida. G'afur G'ulom 1903-yil 10-may kuni Toshkent shahrining Qo'rqontegi mahallasida kambaqal dehqon oilasida tug'ilgan. Yosh G'afur avval eski maktabda ta'lim oladi va 9 yoshida o'qish hamda yozishni o'zlashtiradi. 1912 yilda G'ulom aka olamdan o'tib, beshta bolasi etim qoladi hamda G'afurning o'qishi bo'linadi. Akasining yordamida G'afur 1916-yilning kuzida O'qchi mahallasidagi rus-tuzem bilim yurtiga o'qishga kiradi. 1918-yilda onasining bevaqt vafoti tufayli G'afur yetim qolgan singillarini boqish uchun bosmaxonaga harf teruvchi sifatida ishga kirishga majbur bo'ladi. U yerda keksa ishchi Abdurahmon Sohiboevning maslahati bilan sakkiz oylik o'qituvchilar tayyorlov kursini bitiradi va "Urfon" deb atalgan boqimsiz bolalar maktab-internatida tarbiyachi hamda mudir bo'lib ishlay boshlaydi. Xuddi shu bolalar hayotidan ruhlanish natijasida, G'afur G'ulomning birinchi she'ri dunyoga keladi. Faqat u mashq juda zaif bo'lgani uchun matbuotda bosilmagan edi. G'afur G'ulomning 1923-yilda matbuotda e'lon qilingan birinchi she'ri esa "Go'zallik nimada?" deb atalar edi:

“Go'zallik qizlarda,
U qora ko'zlarda,
Soz kabi so'zlarda”,
Deganlar yanglishar.

Go'zallik bir guldir,
Muddati fasldir.
Yashamoq asldir,
Siz, biz bor, u yashar.

Go'zallik ishlayish,
Manglayni terlatish,

Go'zaldir ungan ish,
Maqtansa yarashar!

G'afur G'ulom 1923-yildan to 1930-yilgacha besh yuzga yaqin she'r, hikoya, ocherk, doston, feleton yozgan. Demak, u dastlabki davridayoq sermahsul va ko'pqirrali ijod sohibi bo'lgan. 20-yillarning oxiri va 30-yillarning boshida "Ko'ngilsizning qiligi", "Eshon obod", "Yigit", "CHorbozorchi", "Soat", "Jo'rabo'za", "Elatiyada bir ov" kabi 40 ga yaqin hikoya yozdi. G'afur G'ulomning nasrdagi mahorati, xususan, "Netay" (1930), "Tirilgan murda" (1934), "Shum bola", "Yodgor" qissalarida ochiq ko'rinadi.

"Shum bola" qissasida o'zbek xalqining o'tmishdagi og'ir hayoti, xususan, o'smirlarning qarovsizligi, bir parcha non deb darbadar kezishlari qattiq kulgu ostiga olinadi. "G'afur G'ulom "Shum bola" qissasini salkam yigirma besh yil ishladi", - deb yozadi Said Ahmad. "Yodgor" qissasida Yangi odam xarakterining shakllanish jarayoni tasvirlangan. Asarda kishilarimiz ongi va psixologiyasida yuz bergan o'zgarishlar, Yangi insonni tarbiyalash Jo'ra, Saodat va Mehri hayoti bilan bog'liq sarguzasht tasviri orqali ochib berilgan.

G'afur G'ulomning urush yillarida yaratgan she'rlari chuqur vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan edi. Bu asarlar g'oyat samimiyligi, insoniyligi tufayli urushning eng og'ir damlarida xalqimizga madad berdi, ruhini bardam qildi. Shoirning bunday she'rlari qatorida "Kuzatish", "Qish", "Sog'inish", "Xotin", "Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak", "Suv va nur" kabilarni tilga olish mumkin. "Sen etim emassan" she'rida xalqlar o'rtasidagi do'stlik, chuqur internatsionalizm tuyg'usi, kishilarimizga xos bo'lgan ezgulik yorqin ifodalangan. U urush tufayli yetim qolgan bolalar fojiasini o'z shaxsiy fojiasiday qabul qiladi.

G'afur G'ulom U "Qozoq elining Ulug' to'yi", "Qardosh tojik xalqiga o'zbek xalqidan salom", "Samad Vurg'unga" kabi poetik asarlarida xalqlar o'rtasidagi do'stlikni ulug'ladi.

G'afur G'ulom zukko shoirgina emas, mohir prozaik hamdir. Umrining so'ngida ham "Gilos danagidan tasbeh" degan hikoyalar to'plamini nashr etdiki, bu kitob qisqa muddat ichida adabiyot

muxlislarining chinakam muhabbatiga sazovor bo'ldi. Tadqiqotchilarning aniqlashicha, 20-yillarning o'zida G'afur G'ulom respublika matbuotida 500 dan ortiq feleton e'lon qilgan. G'afur G'ulom "Asarlari"ning 7-tomi ocherk va publisistikadan iborat bo'lib, unga yozuvchining o'ttiz sakkizta ocherki kirgan. **35 yildan ortiqroq muddat davomida yaratgan ocherklari o'zida zamon nafasini mujassamlashtirgan, davr ruhini bugungi kun kitobxonini uchun avaylab saqlab kelgan asarlar sifatidagina emas, mazmunan teran saviyada yozilgan asarlar tarzida ham o'z qimmatini yo'qotgan emas.**

Bir vaqt shoir G'afur G'ulom Moskvadagi yuksak minbardan turib: "Men o'zbek xalqi nomidan gapiraman", - degan edi. Ha, bunday qilishga u to'la haqli edi, chunki adib deyarli butun ongli umri davomida o'zining bor iste'dodini, mahoratini, kuch-quvvatini o'zbek xalqining ruhini, mohiyatini, tafakkurini, o'y-tuyg'ularini, orzu-umidlarini, borlig'ini go'zallik va badiiyat qonuniyatlari vositasida ochib berishga baxsh etgan edi. G'afur G'ulomning o'zbek xalqi orasida topgan hurmatu ehtiromi ham shoirga uning nomidan so'zlashga to'la huquq berar edi. SHoirning o'zbek eli orasida qanday e'zoz-e'tibor qozonganligini tasavvur qilmoq uchun quyidagi parchani eslashgina kifoya qilsa kerak:

Sen bu kun sinfda shod yurak bilan
Sinov navbatini kutib turasan.
A'lo mamlakatning a'lo farzandi,
Bilib qo'yki, seni vatan kutadi.

Yosh avlodni barkamol va baxtiyor ko'rish istagi G'afur G'ulomning boshqa janrlardagi asarlarida ham etakchi g'oya sifatida baralla yangrab turadi. CHunki, biz uning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasini yoki "SHum bola" qissasini o'qir ekanmiz, ularda XX asr boshlaridagi o'zbek bolalarining sho'xliklari, baxtga tashna qalblari hamda "innaykeyin" deb odamning jonini sug'urib oluvchi Sariboylarga qarshi isyonlari bilan tanishsak, "YODgor" povestida go'yo o'sha shum go'dakning yigitlik kamolotini ko'rib, behad shodlanamiz. G'afur G'ulom insonning xuddi shu yigitlik pallasini Ulug'lash uchun ham g'oyatda go'zal tashbehlar, jonlantirish, sifatlash, o'xshatish, istioralar topa olgan:

Yigit omon bo'lsa, xavfu xatar yo'q,
Qalqon bor, qal'asi but, qo'rg'on salomat.
Qizlar kulgusida avju daromad,
CHollar uyqusida jannat, farog'at.

"Kuzatish", "Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak", "Siyohdon", "Qani mening yulduzim" she'rlari, "Hasan kayfiy", "Afandi o'lmaydigan bo'ldi" singari hikoyalar G'afur G'ulom o'zbek xalqining haqiqiy milliy adibi ekanligidan dalolat beradi. San'atkorona topilgan tashbehlar, yuksak mahorat va iste'dod namunasi bo'lgan o'lmas she'rlar G'afur G'ulom ijodida juda ko'pdir. Ulardan biri "Sog'inish" she'ri bo'lib, G'afur G'ulom mazkur asarida chinakam badiiy kashfiyotlarga qodirligini isbotlagan edi. Uning dastlabki misralarini eslaylik:

Zo'r karvon yo'lida etim bo'tadek
Intizor ko'zlarda halqa-halqa Yosh,
Eng kichik zarradan YUpitergacha
O'zing murabbiysan, xabar ber, quYosh.

She'rda muallif yig'layotgan otani etim bo'taga o'xshatyapti. Bunday noyob o'xshatish ko'p asrlik jahon poeziyasida uchramasa kerak. Mana bunday badiiy kashfiyotlar, chinakam san'at durdonalari, umrboqiy asarlar yaratganligi sababli G'afur G'ulom, uning o'z so'zlari bilan aytganda, "o'zbek elining g'ururi"ga aylangan edi.

3. Abdulla Qahhor ijodiy faoliyati. (1907-1968)

Abdulla Qahhor XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan va xalqning muhabbatini, hurmatini qozongan iste'dodli yozuvchilardan biridir. Abdulla Qahhor 1907-yilning 17-sentyabr kuni hozirgi O'zbekistonning Qo'qon shahrida temirchi usta oilasida dunyoga kelgan. U oilada tug'ilgan o'n boladan tirik qolgan yagona farzand edi. Abdullaning bolalik yillari



qashshoqlik va darbadarlikda o'tadi. Uning oilasi yaxshiroq hayot ilinjida Farg'ona vodiysi bo'ylab qishloqma-qishloq ko'chib yuradi. Oqibatda Abdulla "Ko'chmanchi", "Kelgindi" singari haqoratli laqablar oladiki, bu uning xotirasida bir umrga muhrlanib qoladi. Avval qishloqdagi diniy maktabda savodsiz Valixon so'fi degan domla qo'lida o'qiydi. Domlaning savodsizligidan g'azablangan otasi uni 1917-yil oktabridan keyin ochilgan yangi maktabga o'qishga beradi. U Qo'qondagi internatda, 1922-1924-yillar mobaynida esa, Qo'qonda ochilgan o'qituvchilar tayyorlovchi texnikumda tahsil oladi. Xuddi shu vaqtda, Abdulla adabiyot sohasida ilk mashqlar qila boshlaydi va ularni Toshkentdagi gazeta, jurnallarga yuboradi. "Oy kuyganda" she'ri "Mushtum" jurnalining 1924-yilgi 8-sonida bosilib chiqadi. Abdullaning matbuotda e'lon qilingan mana shu birinchi she'riyoq unda ijod qilishga qandaydir iste'dod borligidan, ya'ni adabiyot vositalari orqali muayyan g'oyani ifodalashga qodirligidan dalolat bergan edi. Izlanishlar va mashqlar bosqichi qariyb o'n yil davom etadi. 20-yillarda yozgan ko'plab hikoyalarni, sakkizta she'rini, ellikta feletonini e'lon qiladi. 1926-yilda SamDUning tayyorlov fakultetini bitiradi va 1930-yilga qadar O'rta Osiyo Davlat universitetining pedagogika fakultetida o'qiydi. Umri davomida barakali ijod qiladi. "Qizil O'zbekiston", "Mushtum", xotin-qizlar gazetasi "Yangi yo'l"da "Nish", "Norin shilpiq", "Sarimsoq", "Mavlono kufur", "Gulyor", "Erkaboy", "E-boy" imzolari bilan qatnashib turgan. U Chexovni o'ziga ustoz biladi.

Abdulla Qahhorning ilk "Qishloq hukm ostida" kitobi 1932-yilda nashr qilingan. U "Hikoyalar" to'plami, "Kampirlar sim qoqdi", "Xotinlar", "O'g'ri", "Bemor", "Anor", "Adabiyot muallimi" "Dahshat", "Ming bir jon", "Asror bobo", "Mayiz yemagan xotin" kabi hikoyalarning, "Shohi so'zana" (1951), "Og'riq tishlar" (1954), "Tobutdan tovush" ("So'nggi nusxalar" 1962), "Ayajonlarim" (1967) komediyalarining, "Sinchalak" (1958), "O'tmishdan ertaklar" (1965), "Muhabbat" (1968) singari qissalarning, "Sarob", "Qo'shchinor chiroqlari" romanlarining muallifidir.

Abdulla Qahhor 1968-yil 25-mayda Moskvada vafot etgan. Rus adibi K.Simonov Abdulla Qahhor bilan uning o'limidan bir kun oldin kasalxonada uchrashadi va keyinchalik shunday eslaydi: "...Men olamdan ko'z yumayotgan odamning bardam qo'l siqishlari-yu, teran nigohlarini ko'rib hayratda qoldim".

Adib "O'zbekiston xalq yozuvchisi" unvoniga, mustaqillik davrida esa, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeniga munosib topilgan.

"Anor" hikoyasi

Turobjon eshikdan hovliqib kirar ekan, qalami yaktagining yengi zulfingga ilinib tirsakkacha yirtildi. Uning shashti qaytdi. Jo'xori tuyayotgan xotini uning qo'lidagi tugunchani ko'rib, kelisopni kelining ustiga qo'ya chopdi. Keli lapanglab ag'anadi, chala tuyilgan jo'xori yerga to'kildi. Turobjon tugunchani orqasiga bekitib, tegishdi:

— Akajon, degin!

— Akajon! Jo-on aka!..

— Nima berasan?

— Umrinning yarmini beraman!..

Turobjon tugunchani berdi. Xotini shu yerning o'zida, eshik oldida o'tirib tugunchani ochdi-da, birdan bo'shshib ketdi va sekin boshini ko'tarib eriga qaradi. O'z qilmishiga gerdayib turgan Turobjon uning ko'zini jiqqa yosh ko'rib:

— Nima ekanini bildingmi?—dedi.— Asalarining uyasi! Turgan-bitgani asal! Mana, mana, siqsang asal oqadi. Bunisi oq mum, harom emas — shimsa ham bo'ladi, chaynasa ham bo'ladi.

Xotin yengini tishlab bir nuqtaga qaraganicha qoldi.

— Yo, qudratingdan, ishonmaydi-ya!—dedi Turobjon keltirgan matoini titkilab. — Mana, chaynab ko'r! Ko'rgin, bo'lmasa innaykeyin degin... Turobjon qizardi. U bir zamon betob o'rtog'ini yo'qlab eltgan tarvuzini, bemaza chiqqan bo'lsa kerak, sigirning oxurida ko'rib shunday xijolat bo'lgan edi. Hovli yuzida aylanib yurgan oqsoq mushuk to'kilgan jo'xorini iskab ko'rdi, ma'qul

bo‘lmadi shekilli, Turobjonga qarab shikoyagomuz «myau» dedi.

— Tur, jo‘xoringga qara! Uni ko‘r, mushuk tegdi.

Xotin turayotib baralla yig‘lab yubordi.

— Bu yer yutkur qanday balo ekan!.. Odamlarday gulutaga, tuzga, kesakka boshqorong‘i bo‘lsam-chi! Turobjon do‘ppisini boshidan oldi va qoqmoqchi bo‘lganida ko‘zi yirtiq yengiga tushdi, yuragi achidi: endi uch-to‘rt suv yuvilgan yangigina yaktak edi!

— Axir, boshqorong‘i bo‘l, evida bo‘l-da!—dedi do‘ppisini qoqmasdan boshiga kiyib.

— Anor, anor... Bir qadoq anor falon pul bo‘lsa! Saharimardondan suv tashib, o‘tin yorib, o‘t yoqib bir oyda oladiganim o‘n sakkiz tanga pul. Akam bo‘lmasa, ukam bo‘lmasa...

Er-xotin tek qolishdi. Xotin jo‘xorini tuyib bo‘ldi, uni kelidan togorachaga solayotib to‘ng‘illadi:

— Havasga anor yeydi deysiz, shekilli...

— Bilaman... Axir, nima qilay? Xo‘jayinimni o‘ldirib pulini olaymi, o‘zimni hindiga garov qo‘yaymi? G‘alatimisan o‘zing?

Xotin ovqatga unnadi, erining «boshqorong‘i bo‘l, evida bo‘l-da», degani unga juda alam qildi, xo‘rligi keldi, o‘pkasi to‘ldi.

Ovqat pishdi. Qozonning zangi chiqib qoraygan go‘jaga qatiq ham rang kirgizolmadi. Turobjon ikki kosa ichdi, xotini esa hanuz bir kosani yarimlatolmas edi. Uning imillashini ko‘rib Turobjonning ko‘ziga negadir oqsoq mushuk ko‘rindi. Mushuk yirtilgan yengini esiga tushirdi, avzoyi buzildi. Uning avzoyidan «esiz jo‘xori, qatiq, o‘tin» degan ma‘noni anglab xotin, ko‘ngli tortmasligiga qaramasdan, kosani bo‘shatdi, ammo darhol tom orqasiga o‘tib ko‘zlari qizargan, chakka tomirlari chiqqan holda qaytdi.

— Hali tug‘ilmagan bolani yer yutkur deding-a, — dedi Turobjon borgan sayin tutaqib.

Xotin indamay dasturxonni yig‘ishtirib oldi, qozonga suv quyayotib, eshitilar-eshitilmas dedi:

— O‘sha asalning puliga anor ham berar edi.

— Berar edi! — dedi Turobjon zaharxanda qilib. — Anor olmay asal oldim!

— Albatta berar edi! Albatta anor olmay, asal olgansiz!

Mana shunday vaqtlarda til qotib og‘izda aylanmay qoladi, mabodo aylansa, mushtning xizmatini qiladi.

— Ajab qildim, — dedi Turobjon titrab, — jigarlaring ezilib ketsin!

Bu so‘z unga qanday ta‘sir qilganini faqat boshqorong‘i xotingina biladi. Turobjon bu gapni aytdi-yu, xotining ahvolini ko‘rib achchig‘idan tushdi, agar izzat-nafs qo‘ysa hozir borib uning boshini silar va: «Qo‘y, xafa bo‘lma, jahl ustida aytdim», der edi.

— Kishining yuragini qon qilib yuborasan, — dedi anchadan keyin. — Nainki men asal olsam!

Asal otliqqa yo‘q, hali biz piyoda-ku! Xo‘jayinga bir oshnasi sovg‘a qilib kelgan ekan, bildirmasdan... o‘zidan so‘rab oz-rog‘ini oldim... O‘zi berdi. Tansiq narsa, xursand bo‘larmikansan debman. Yo tansiq emasmi? Umringda necha marta asal yegansan? O‘zim umrimda bir marta yeganman: Shokirxo‘ja qandolatchi asal qiyom qildirayotganda qozoniga ammamning jo‘jasi tushib ketgandi, shu jo‘jani yalaganman...

Turobjonning bu so‘zlari xotining qulog‘iga notayin bir g‘uldirash bo‘lib kirar edi. Uning Turobjon bilan uy qilganiga uch yil bo‘lib kelayotir, nazarida, bu odam shu uch yildan beri g‘uldirab kelgan, hozirgisi shuning davomiday edi. Ittifoqo, bu kun, nima bo‘ldi-yu, uch so‘zni ravshanroq aytdi: «Jigarlaring ezilib ketsin», dedi. Olamda uning suyangani eri, birdan bir orzusi — anor edi, birdaniga har ikkisi ham yo‘qqa chiqdi. Xotin uyga kirib ketdi. Anchadan keyin darchadan xira shu‘la tushdi. Turobjon ham kirdi. Xotin darcha yonida, bir tizzasiga boshini qo‘ygan, qoramtir — kul-rang osmonga qarab o‘tirar edi. Turobjon tikka turib qoldi. Tokchadagi beshinchi chiroq pixillab yonar, uning atrofida katta bir parvona aylanar edi. Turobjon ham darcha yoniga o‘tirdi. Shiftning qaeridir «qirs» etdi, qaerdadir kaltakesak chirqilladi, Turobjonning qulog‘i jing‘illadi. U ham osmonga — xira yulduzlarga qaradi. Masjiddagi keksa baqaterak orqasidan ko‘tarilgan qizg‘ish o‘t ko‘kka olovli iz qoldirib juda yuqoriladi va go‘yo osmonga urilganday chilparchin bo‘lib, «po‘p» etdi.

— Mushak, — dedi Turobjon, — Mullajon qozining bog‘ida. Mullajon qozi beshik to‘yi qilgan. Xotin indamadi.

— Shahardan to‘ralar ham chiqqan, — dedi Turobjon yana.
Xotin yana indamadi. U Mullajon qozining bog‘ini ko‘rgan emas, ammo ta‘rifini eshitgan. Bu bog‘ni ko‘z oldiga keltirib ko‘rdi: bog‘ emas, anorzor... Anor daraxtlarida anor shig‘il, choynakday-choynakday bo‘lib bo‘lib osilib yotipti.
— Bitta mushak uch miri,— dedi Turobjon, — yuzta mushak otlsa... bittangadan yuz tanga. Bir miridan kam — yetmish besh tanga bo‘ladi. Er-xotin uzoq jim qolishdi. Turobjon og‘zini katta ochib ham esnadi, ham uf tortdi.
— Ma, buni tik,— dedi u yaktagini yechib, — ma!
Xotin yaktakni olib yoniga qo‘ydi, aftidan, hozir tikmoqchi emas edi.
— Bo‘l,— dedi Turobjon, birpasdan keyin, — ol... Senga aytyapman!..
— Ha, muncha!.. Turtmasdap gapira bering... Tikib qo‘yarman, muncha qistov...
Turobjonning tepa sochi tikka bo‘ldi.
— Hay, sening dimog‘-firog‘ing kimga! Xo‘sh, nima deysan?
— Men sizga bir narsa deyapmanmi? Tikib qo‘yarman.
— Har narsaga ro‘zg‘or achchiq bo‘la bersa... qiyinroq bo‘lar,— dedi Turobjon yaktagini kiyayotib,
— kambag‘alchilik...
— Kambag‘alchilik o‘lsin!
Xotin bu gapni shikoyat tarzida aytdi, ammo Turobjop buni ta‘na deb tushundi.
— Nima, men seni olganimda kambag‘alligimni yashirganmidim? Erkaboyga o‘xshab chimildiqqa birovning to‘ni, kavush-mahsisini kiyib kirganmidim? Bunday armoning bo‘lsa hali ham serpulroq odamga teg.
— Ikkita anor uchun xotiniigizni serpul odamga oshirgani uyaling!
Bu gap Turobjonning hamiyatiga tegdi. «Jigarlaring ezilib ketsin» degani xotiniga qancha alam qilgan bo‘lsa, bu gap Turobjonga shuncha alam qildi.
— E, hoy, anor olib bermadimmi? — dedi Turobjon mayin tovush bilan, ammo bu mayin tovushdan qo‘rqulik edi, — sira anor olib kelmadimmi?
— Yo‘q! — dedi xotini birdan boshini burib.
Turobjonning boshi g‘ovlab, ko‘zi tindi.
— O‘tgan bozor kuni yegan anoringni o‘ynashing olib kelganmidi?!
— O‘ynashim olib kelgan edi!
Turobjon bilolmay qoldi: xotining yelkasiga tepib, so‘ngra o‘midan turdimi, yo turib keyin tepdimi; o‘zini obrezning oldida ko‘rdi. Xotin, rangi oppoq, ko‘zlarini katta-katta ochib unga vahimali nazar bilan qarar va boshini chayqab pichirlar edi:
— Qo‘ying... Qo‘ying...
Turobjon uydan chiqib ketdi. Birpasdan keyin ko‘cha eshigi ochilib-yopildi. Xotin uzoq yig‘ladi, eriga qattiq gapirganiga pushaymon bo‘ldi, o‘zini qarg‘adi, o‘lim tiladi; yig‘idan tolib tashqariga chiqdi. Qorong‘i, uzoq-yaqinda itlar hurar edi. Ko‘cha eshigini ochib u yoq-bu yoqqa qaradi — jimjit. Guzar tomonda faqat bitta chiroq miltillar edi. Samovarlar yotgan. Qaytib uyga kirdi. Tom orqasida xo‘roz qanot qoqib qichqirdi. Ko‘cha eshigi ochildi. Xotin to burilib qaraguncha Turobjon katta bir tugunni orqalab kirib keldi. U tugunni uying o‘rtasiga tashladi. Bir choyshab anor har tomonga yumalab ketdi, bir nechasi obrezga tushdi. Turobjon xotiniga qaradi. Uning rangini ko‘rib xotin qo‘rqib ketdi — bu qadar oqargan! Turobjon o‘tirib peshonasini ushladi. Xotini yugurib oldiga keldi va yelkasiga qo‘lini qo‘ydi.
— Qayoqqa bordingiz? — dedi entikib. — Nima qildingiz?
Turobjon javob bermadi. Uning vujudi titrar edi.

Nazorat savollari:

G‘afur G‘ulom yetim o‘sganligi ijodida qanday iz qoldirdi?

G‘afur G‘ulomning “Yodgor” povestida tashlandiq farzand muammosi qanday talqin etilgan?

G‘afur G‘ulomning “SHum bola” qissasi qanday janr namunasi hisoblanadi.

G'afur G'ulomning urushdan keyingi lirikasida o'sha davr adabiyotining qaysi illatlari o'z muhrini qoldirgan?

Abdulla Qahhor biografiyasining unsurlari yozuvchi ijodida qanday aks etgan?

Abdulla Qahhorning qaysi hikoyasi ilk bor uning xarakter yaratish mahoratini namoyon qilgan?

Qaysi rus yozuvchilarining asarlari bilan tanishish oqibatida Abdulla Qahhor ijodida keskin burilish yuz bergan?

Adabiyotlar:

Asarlar. O'n ikki tomlik. T., "Fan", 1970-1978.

Mamajonov S. SHoir va zamonaviylik. T., "Fan", 1963.

Mamajonov S. G'afur G'ulom prozasi. T., "Fan", 1966.

Mamajonov S. Uslub jilolari. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972.

SHukurov N. G'afur G'ulomning lirik poeziyasidagi mahorati. T., "Fan", 1966.

Said Ahmad. Nazm chorrahasida. T., "Yosh gvardiya", 1982.

G'afur G'ulomning badiiy olami. T., "Fan", 1984.

Asarlar. U jildlik. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987-1989.

SHarafiddinov O. Abdulla Qahhor. T., "Yosh gvardiya", 1988.

Qo'shjonov M., Normatov U. Mahorat sirlari. T., Badiiy adabiyot nashriyoti, 1968.

Qo'shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.

"Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida". T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.

Qahhorova K. CHorak asr hamnafas. T., "Yosh gvardiya", 1986.

Sanjar Sodiq. So'z san'ati jozibasida. T., "O'zbekiston", 1996.

9-MAVZU: ISTIQLOL DAVRI ADABIYOTI

Reja:

1. Istiqlol davri o'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari.
2. Istiqlol davri o'zbek she'riyati.
3. Istiqlol davri o'zbek nasri.
4. So'nggi yillarda dramaturgiya rivoji.

1. Istiqlol davri o'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari.

XIX asrning 90-yillarida istiqloq adabiyoti deb ataladigan estetik hodisa yuzaga keldi. Mustaqillik davrida milliy adabiyot millat ahlining ko'nglini, ruhiyatini tasvirlashga e'tibor qaratmoqda. Buning natijasida INSON asosiy badiiy qadriyatga aylandi. Yangilanib borayotgan istiqloq davri adabiyotining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iboratdir:

1. Istiqlol davri adabiyotining ilk bosqichida o'zbek ijodkorlari yangicha uslub va mahorat sirlarini o'zlashtirish maqsadida g'arb adabiyoti an'alariga ko'proq murojaat qildilar. Natijada A.Kamyu, F.Kafka, G.Garsiya Markez, Kavabata kabi san'atkorlarining absurt bema'ni, mantiqsiz asarlariga taqlid kuchaydi. Ular ko'plab tarjima qilindi. G'arb adabiyotining ta'siri ma'lum ma'no da ham ijobiy, ham salbiy natijalar berdi.

2. Shu ta'sir oqibatida o'zbek adabiyotiga modernizm oqimi kirib keldi. Modern so'zi yangi degan asl ma'nosidan tashqari katta falsafiy-psixologik oqim bo'lib, shaxs va shaxs «men»i uning mohiyati va mag'zini tashkil etadi. U insonning ong oqimini tasvirlashga ko'proq e'tibor beradi.

3. 90-yillarga kelib, yana buyuk Sharq adabiyoti an'analari, mumtoz adabiyotimiz, qadimgi yodgorliklar, mif va afsonalar, asotirlar va rivoyatlarga qiziqish kuchaydi. Islomiy qadriyatlar keng o'rin ola boshladi.
 4. Chorak kam bir asrlik sovet davri adabiyotiga yangicha nuqtai nazar bilan qarash tamoyili paydo bo'ldi.
 5. Ijod erkinligiga katta imkon tug'ildi. Adabiyotning barcha tur va janrlarida hayotni ro'y-rost, butun murakkabligi bilan tasvirlashga, ijtimoiy-ma'naviy adolatsizlikka xo'rlik va qullik sharoitida yashagan, ma'nau majruh bo'lgan inson tasviriga e'tibor kuchaydi.
 6. Qahramonlar tasvirida ilgari mavjud bo'lgan ijobiy va salbiy tushunchalarni anglatuvchi qoliplar barham topdi.
 7. Badiiy adabiyotga ruhoniylar kayfiyat – islom ma'naviyati kirib keldi. Diniy qadriyatlar, imon va e'tiqodni ulug'lovchi ko'plab badiiy asarlar yaratildi.
 8. Adabiyotda to'la ma'noda ijodiy erkinlik ro'yobga chiqdi. Yozuvchi uchun taqiqlangan mavzu va muammo qolmadi.
 9. Bu davr adabiyotida yangi-tragikomediya janri dunyoga keldi.
 10. Badiiy adabiyotni yanada rivojlantirish uchun respublikamizda ko'plab, masalan, M.Qoshg'ariy, A.Yassaviy, A.Navoiy, A.Qodiriy, Cho'lpon nomidagi mukofotlar ta'sis etildi va ular xalqaro ahamiyatga ega bo'lib qoldi.
 11. Mustaqillik sharofati bilan «Vatan», «Hurriyat», «Yozuvchi», «Milliy tiklanish» kabi gazetalar, «Sirli olam», «Tafakkur», «Jahon adabiyoti» singari jurnallar nashr qilina boshlandi.
 12. Har yili mustaqillik bayrami arafasida talay ijodkorlarga unvon va mukofotlar berilmoqda.
2. Istiqloq davri o'zbek she'riyati.

She'riyat bugungi kunda ham milliy adabiyotimizning yetakchi turi bo'lib qolmoqda. Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Azim Suyun, Usmon Azim, Ikrom Otamurod, Abduvali Qutbiddin, Farida Afro'z, Aziz Said, Muhammad Yusuf, Faxriyor, Bahrom Ro'zimuhammad, Rauf Subhon, Iqbol Mirzo, Zebo Mirzo, Tursun Ali, Ulug'bek Hamdam, Halima Ahmad, Xosiyat Rustamova, Rustam Mususrmon kabi shoirlarning she'rlarida olamni poetic idrok etish yangi bosqichga ko'tarilgani namoyon bo'ladi.

Abduvali Qutbiddinning "Izohsiz lug'at" dostoni o'zbek adabiyotida jiddiy hodisa bo'lgan asardir. Bu doston o'zida ijtimoiy va shaxsiy ruhiy kayfiyatni yaxlit, tabiiy sintez shaklida aks ettira olgani bilan, ayniqsa, qimmatlidir. Bunga shoir qanday erisha olgan? Bu savolga eng to'g'ri javob ham asarning o'zida bor:

Ertadan kechgacha toatim-ibodatim so'zga,

Itoat ko'ngilga, muhabbatim gulag.

Xayolim farishtaday Kibriyo avjlari sari boshlaydi...

Abduvali Qutbiddinning ushbu asari 80-90-yillar adabiyotida an'anaviy dostonchilik namunalaridan barcha jihatlari bilan farq qiladigan, zohiriy voqealar tizimi sujet chizig'ini tashkil qilmay, balki shoir tafakkuri va his-tuyg'ulari almashuvidan paydo bo'ladigan ruhoniylar yaxlitlik kuzatiladigan asardir.

Milliy she'riyatimizda ikki so'zdangina iborat she'rni Faxriyor yaratdi:

oy

bolta

Bu ikki so'z o'quvchini o'ylashga, ular ustida mushohada yuritishga undaydi. Bunday she'r milliy poeziyamizda hech qachon bo'lmagan.

She'r bu inson qalbi, ruhidir. qalb bilan ruh esa ilohiyotga tegishlidir. Yaxshi she'r yozilmaydi, balki ro'y beradi, degandi donishmandlardan biri. Shunisi quvonchliki, bugungi kunda shoirlarimiz mana shu haqiqatni anglab etmoqdalar. Shulardan biri shoir *Asqar Mahkam* bo'lib, o'zining «Haq» deb atalgan kitobida (1998) she'riyatimiz uchun ana shu yangi islomiy tafakkurni bera oldi. Uning ijod namunalari shu paytgacha biz o'rgangan, ko'nikkan she'riyat emas. Bu she'riyatni maxsus-ma'rifiy tayyorgarliksiz o'qib, o'rganib bo'lmaydi. Bu haqda shoirning o'zi bunday deydi:

So'zladik goh uryon, gohi munaqqash,

Yo'q edi xaytovur tinglaydiganlar.

Dunyoga keladi xomush, majnunvash,
Bizning so`zimizni anglaydiganlar.
Na qizlar daftariga bitdilar uni,
Na xofiz kuyladi devona bo`lib.
Ammo men bilaman uning umrini –
Dunyoga kelar u–biz ketgach o`lib..

Shoirlar istibdod va asorat xasratini hangomalar, latifalar, mif va afsonalar kabi majoziy usullar asosida maromiga yetkazib kuylagan bo`lsalar, keyingi ijod karvoni orasida yuragini yalang`ochlab chiqqan shoirlardan biri *Usmon Azim* bo`ldi. U.Azimov tengdoshlari orasida rostgo`yiligi, shafqatsiz va haqqoniy tuyg`ular tasviriga boyligi bilan ajralib turadi. Uning nazarida she`r haqiqat timsolidir, shoirning burchi faqat rost so`zlashdan iborat. Shoirlari yolg`on gapni aytgan kuni butun el qlimga yuz tutadi. Rost gapni aytish uchun esa shoirda yurak bo`lishi kerak:

Haq gap uchun har bir ishga ko`nadi el,
To`g`ri so`zdan ko`payadi, to`ladi el,
Dordan qo`rqib yolg`on aytib turganim yo`q,
Shoirlari yolg`on aytsa, o`ladi el.

Deb hayqiradi shoir va jamiyatda yolg`on yurtni zabt etmoq uchun otlanib kelayotgan yolg`on lashkarining vajahatidan haqiqatni ko`rmay o`lamanmi, deb o`ksinadi:

Otlanmoqda yolg`on lashkari
YOlg`on yurtni etmoq uchun zabt,
Kelolmaysan endi men sari –
Seni ko`rmay o`lgum: HAQIQAT.

80-90 yillar Milliy uyg`onish davrining eng yoqimtoy, shoirlaridan yana biri *Muhammad Yusufdir*. 1954-yili Andijon viloyatining Marhamat tumanidagi qovunchi qishlog`ida tug`ildi. 1974 yilda respublika rus tili va adabiyoti institutini bitirdi. Keyin «Toshkent oqshomi», «O`zbekiston ovozi» gazetalari muharririyatida, G`G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyatida ishladi. Ilk kitobi «Tanish teraklar» 1985-yilda bosilib chiqqan. Shundan so`ng shoirning birin-ketin «Bulbulga bir gapim bor», «Uyqudagi qiz», «Ishq kemasi», «Ko`nglimda bir yor», «Bevafo ko`p ekan», «Erka kiyik» kabi to`plamlari e`lon qilindi. M.Yusuf she`riyatda juda tez shuhrat topdi. Buning o`ziga xos sabablari bor. Bu sabablarning birinchisi va eng muhimi, menimcha, shoir she`rlarini soddaligi va samimiyligidir. Soddalik deganda jo`nlik tushunilmasligi kerak. Soddalik birinchi galda, misralarning tugallanganligida, ohangning barqarorligida, fikrning tiniqligi-yu obrazlilikning quyuqliligidadir. Ammo bu soddalik zaminiga buyuk haqiqat, mungli xulosa, ozgina kinoya aralashadi.

M.Yusuf she`rlarida fikrni mukammal ifodalash maqsadida she`riyatning texnik vositalarini «buzib» ham tashlayveradi. Bo`g`inlar orttirilib yoki kamaytiriladi, qofiyaga e`tibor bermaydi.

M.Yusuf deganda ko`z o`ngimizda «she`riyatning qadim so`qmoqlarida shirin azob bilan» jonini yoqib, bir qo`lida gul-u boshqasida chaqmoq ko`tarib borayotgan, bag`ri pora-pora nayga aylangan, shunga qaramay bu yo`ldan qaytib ketolmaydigan, to`g`risi, qaytib ketishni istamaydigan shoir gavdalanadi. Chunki bu yo`lda uning tovonini chaqir toshlar tishlab olgan bo`lsa-da, qo`llaridan kiyikchalar ushlab olgan! Gap mana shu kiyikchalarda..

She`riyat bu qadim buyuk So`qmoq ekan,
Kiyikso`qmoq ekan, kiyik so`qmoq ekan.
SHirin azob ekan jonni Yoqmoq ekan,
Bir qo`lda gul, bir qo`lingda Chaqmoq ekan.
Yuragim-ey boshlab kelding Meni qayga?
Bag`rim o`xshar pora-pora Bo`lgan nayga.
Ko`nglim sezar bu so`qmoqdan o`tolmayman,
Qaytib ketay desam qaytib Ketolmayman.
CHaqr toshlar tovonimdan tishlab olgan,
Qo`llarimdan kiyikchalar ushlab olgan!

Istiqloq davri adabiyotining yana bir kuyunchak va dilbar shoirlaridan biri Shavkat Rahmondir. U haqiqiy shoir edi. Haqiqiy shoir esa she'riyatdan boshqa hech kimga va hech nimaga xizmat qilmaydi, bo'sunmaydi ham. Shoirning quyidagi she'rida yashamoqning ma'nosi hayotga faol munosabatda bo'lmoq ekanligi yaxshi aytilgan. Boshqa she'rlar kabi bunda ham asosiy g'oya yalong'och tarzda bayon qilinmaydi, balki qalb qa'ridagi sizib chiqqan tuyg'u–iztirob sifatida ifodalanadi:

Yashamog'im zarur har daqiqani,
G'azab bilan, sevgi bilan to'ldirib,
Dunyodagi barcha qora narsani
Yorug' lahzalarda o'ldirib.
Tokim bosh ko'tarib qaray quyoshga
Tokim ko'zlarimda yonsin haqiqat,
Tokim tosh misoli tegmasin boshga
Men yashay olmagan har bir daqiqa.

Sh.Rahmon she'rlarida kun va tun, nur va zulmat. Ziyo va qorong'ulik timsollari ko'p uchraydi. Bular mavhum, hayoliy obrazlar emas, balki real hayotiy mazmunga ega bo'lgan timsollardir. Kun, nur, ziyo shoir uchun go'zallik, oqillik belgisi, inson faoliyatining mohiyatini nur taratib yashash tashkil qilishi kerak. Tun, zulmat, qorong'ulik esa jamiki insoniy illatlar ramzidir. Ularga qarshi murosasiz kurash ham inson hayotining mazmunini tashkil qilmog'i kerak.

Jismimiz o'rgan. Tikanli simlar,
Tikanli fikrlar ichra ruhimiz,
Nigohimiz kalta, Nursiz zindonlar-
Yuraklarda chirir g'am-andaahimiz.
Zamin parcha–parcha -
Ko'ksinga g'archillab qadalar tig'lar.

Shoir mutelik bilan, istibdod bilan murosasiz qilmaydi, egilgan boshlar uning nafratini qo'zg'aydi:

Yurtimni kezaman, endi hech narsa–
Egilgan narsalar tegar g'ashimga.
Endi ishlash kerak bu kengliklarda,
Tokim so'ylamasin yolg'onni hech kim,
Egilgan boshlarni qilichlar kessin.

Shoirni iztirobga solgan ham erk, bulbul qilib sayratgan ham erk, toshlarda gul undirishga qodir kuch ham erk, tilining uchida asrab-avaylagani ham erk, Sh.Rahmon odamzodning hurlikka bo'lgan ehtiyojining naqadar buyukligini butun vujud bilan his qilgan, buning uchun kurashgan shoir edi. U bir she'rida «Urug'lar aynigan tap-taqir cho'lda o'zbekim davlatin qursak maylimi?» deya orzu qilgandi. SHoirning orzusi amalga oshdi, uning mustaqil davlati qurildi, ammo bu orzu gulining ochilganini shoirning o'zi qqrolmay ketdi. U jisman vafot etgan bo'lsa-da, ruhan tirik, biz bilan birga mustaqilligimizni mustahkamlash uchun kurashda jonbozlik ko'rsatmoqda. o'zi aytganidek, «etti qavat erning qaorida yotsa-da, larzaga solib havoni, elining yuragin topib kelyapdi jismini kuydirib uchgan ovozi!».

3. Istiqloq davri o'zbek nasri

Nasr bugungi adabiy jarayonning salmoqli turidir. Hozirgi adabiy jarayonda Sh.Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov, Omon Muxtor, Muhammad Ali, Tohir Malik, Tog'ay Murod, Murod Muhammad Do'st, Asad Dilmurod, X.Sultonov, N.Norqobilov, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul, A.Yo'ldoshev, U.Abdulvahob, L.Bo'rixon, zulfiya Qurolboy qizi singari ijodkorlar o'ziga xos yo'sinda qalam tebratib, milliy nasr taraqqiyotini ta'minladilar.

So'nggi yillar hikoyachilik rivojini SH.Xolmirzaev xizmatiz tasavvur etib bo'lmaydi. Keyingi o'n yillikda adibning «O'zbek xarakteri», «Ko'k ko'l», «Xorun ar-Rashid», «Qadimda bo'lgan ekan», «Ozodlik» kabi puxta hikoyalari yaratildi. Sh.Xolmirzaev bu hikoyalarda ham o'zining azaliy uslubi bo'lmish insonning ruhiy dunyosining, ichki kechinmalarini teran tahlil etish, uning haqiqat va adolat uchun o'zligini anglash yo'lida olib borgan faol kurashini haqqoniy ko'rsatish, aytib

berish emas, aynan, ko`rsatish yo`ldan boradi. Xulosa chiqarishni esa o`quvchini o`ziga havola qiladi.

Masalan, «Xorun ar-Rashid» hikoyasida adib adolat tarozisi mezonining o`nglanishi hali-beri qiyinligi haqida karomat qilsa, «Qadimda bo`lgan ekan»da esa adabiyotning doimiy muammosi–qariyalar va yoshlar munosabati masalasi yangicha talqin etiladi. Hikoya qahramoni ertadan kechgacha ishlab ham biri ikki bo`lmagan odam. Ukasi Kenjani o`qitaman, odam bo`lsin, deb o`zini mehnatga bog`lab qo`ygan. Xotini kasal, davolatolmaydi, qari onasi va bolalarini tqydirib boqa olmaydi. Uyida halovat yo`q. Oilaviy janjallardan bezgan qsar xotinini pushaymon qilgisi kelib, xatarli ishga qo`l uradi: onasi Momoni uzoq qishloqdagi tut tagida qoldirib keladi. Qilmishlariga pushaymon bo`lib, xotini ikkovi qaytib borsalar, ona yo`q. Xulosa esa qalbga havola.

«Ko`k dengiz» hikoyasida sobiq sho`ro imperiyasining xalq boshiga solgan kulfati, zulm-zo`ravonligi oqibatini ko`ramiz. Uzoq viloyatlardan birining o`ttiz to`qqiz millat vakili yashaydigan «Drujba» sovxozida oltoylik millat kishisi yo`qligi tufayli qirqinchi qilib Oltoydan bir odam olib kelishga qaror qilinadi.

Sharafli baynalminalchilikka to`g`ri kelmagan bu holning darrov chorasi topiladi-o`sha sovxoz rassomi Yo`lchi ismli yigitga Oltoydan bir kishini topib kelish vazifasi yuklatiladi. Yigitning Barnaulga borib, duch kelgan kishiga «O`zbekistonga borasanmi?» deb odam qidirishi kishida kulgi uyg`otadi. Nihoyat yigit badbo`y bir er to`lada yashaydigan ust-boshi isqirt nochor, piyanista bir qariya Ivan Ivanovichni topadi va uni yurtiga olib ketishga ko`ndiradi. «Drujba» sovxozida mehmonni-bo`lg`usi mezmomni zo`r tantana bilan kutib oldilar, uni uy-joy, ish bilan ta`minlaydilar. Lekin oltoylik vakil bu erda ham avvalgi odatini tashlamaydi. Nihoyat, u rassom yigitdan o`zini Ko`k ko`lga olib borishini so`raydi. Tiniq ko`m-ko`k suv jilolanib turgan ko`lni ko`rmoqchi bo`lgan qariya kimyo zavodi oqavasi bilan to`lib zaharlangan qop-qora ko`lni ko`radi va dahshatga tushadi. Ko`k ko`ldan umidini uzgan Ivan Ivanovich Ko`k dengizni qidirib Orol tomonga ketadi. Holbuki, Orolning qay ahvolligidan xabari yo`q.

Hikoya qahramoni Ivan Ivanovich, asli ismi Umrzoqning hayoti, taqdiri fojidan iborat. U avval Oltoy muallimlar tayyorlov institutida xalq og`zaki ijodidan dars bergan. Oltmishinchi yillarda ruslashtirish siyosati avj olgan vaqtda erli xalq maktablaridagi darslar rus tiliga ko`chirilishiga qarshi chiqadi. Natijada millatchilikda ayblanib o`n yilga qamaladi. Qamoqdan qaytgach, o`z uyiga ro`yxatdan o`ta olmaydi o`z oilasi-xotini va qizi bilan yashashdan mahrum bo`lib, isqirt erto`lada yashab, bor alamini ichkilikdan oladi. Bu vaqtda endi u odamgarchilikdan chiqib qolgan bo`ladi: «maqsad-kun o`tkazish va ko`ngil yaralariga «aroq»dan malham qo`yish, aniqrog`i bu dunyoni unitish...» bo`ladi.

Umrzoq sho`ro tuzumi zulmlari sababli fojiaga uchragan bo`lsa-da, talangan ona yurti, millat sifatida tugab borayotgan xalqi uchun jon-tani bilan qayg`uradi, tabiatga etkazilayotgan zararlardan kuyinadi, inson hayotini tabiat bilan uyg`unlikda tushunadi. Umrzoq intilgan ko`k rang-ozodlik, mustaqillik ramzidir. Suv esa tiriklik, hayot manbai, baliq esa unda erkin yashayotgan xalq, dengiz-Vatandir. Hikoyaga epigraf qilib:

«-Neding ne tatu?

-Suu tatu» ya`ni «Olamda eng totli narsa nima?-Suv» degan oltoy topishmog`i kelitirladiki, bu turkiy xalqlarda suv ilohiy qudratga ega ekanligiga ishoradir.

Sh. Xolmirzaev bilan suhbatlardan birida «Ko`k dengiz» hikoyasi to`g`risida kechgan savol-javobdan asarning yaratilish sabablarini bilib olamiz:

«-Chingiz Aytmatovning «Bosqinchi-qahramon bo`lolmaydi» degan gapi esimga tushib ketdi. Ammo taassuflar bo`lsinkim, bosqinchi, g`ayirlardan «xudo»lar yasalib, butun boshli bir el unga bandi bo`lib qolgan davrlar ham bo`ldi. «Ko`k dengiz» hikoyangizdagi Ivan Ivanovich-Umrzoq aka obrazining yaratilishi ham o`sha davrga ishora edi, adashmasam?

-Chin, men shu fikringizga qo`shilaman. Yomonga-o`lim yo`q, deydilar. Shu ma`noda iymonli odamlar hamisha hasad, qaysi zamonda bo`lsa ham iymonsiz, nokaslar orasida g`arib bo`lib yashaganlar... Inson tabiiylikdan, aniqrog`i tabiat bilan uyg`un holda yashashdan... Adashgan uchun ham... Oltoyliklar bilan o`tirganimizda, suhbatlashagnimizda... bechoralar yig`lamsirab: «Mh poteryannhy narod. Vhmirayuo`iy...»-deganlarini eshitib... yig`laganman. Bosqinchilikning

mohiyati bitta bo`ladi... Hamisha. Bunga esa... o`zimiz ham «chiroyli» misol bo`la olamiz. SHularning hosilasi o`laroq hikoya yozilgan...»¹.

Rus bosqinchilarining, bu-xalqimiz yaqin o`tmishida boshidan kechirgan katta fojia. Uning mohiyati esa butun boshli yurtlarga bosqinchilik, zo`rovonlik bilan o`rnashib olib, uning moddiy boyliklariga egalik qilish, xalqini xar`jihatdan qul qilish uchun uni milliy-ma`naviy qadriyatlaridan ayirish edi.

Sho`ro saltanati xalqlar do`stligi niqobi ostida kuchli ruslashtirish siyosatini, demakki, bosqinchilik muddaosini davom ettirdi. «Ko`k dengiz» hikoyasi qahramoni ham o`sha siyosat «ne`mati»dan bebahra qilmagan. Uning tili ham qorishma:

«-O, markop, kortop, kapusta!-dedi. So`ngra bizga qarab tushuntirdi: Oltoyga ruslar bilan birga keltirgan emakni, narsa-predmetmi borki, ularni o`z nomi bilan atalarkan. Masalan «soat»niyam «chas», «jo`xori»niyam «kukuruza» deyisharkan...». Hatto qahramonning ismi, tili ham sof milliy emas:

«-Umrzak Ivan Ivanovich.

-Yo`lchiboy,-deb uning qo`lini oldim... Keyin so`radim: Nimaga Ivan Ivanovich? Ota-bobolarimizni rusga yaqinligi bormi?

-Ay!-deb qo`l siltadi u-Yok. Biz-shaman, kam... Altay. Turk... No bizim kijilar az... vsego shestdesyat thsyacha ostalis! O`-o`! I to onh o`rus tilinda so`zlaet... Biz yo`k olamiz. Mh vhmira yuo`iy narod...».

«Ko`k dengiz» hikoyasi qahramoni hayot fojialari tasvirlagan boshqa asarlar qahramonlari toifasidan emas. Ulardan farqli holda Ivan Ivanovich xalq fojiasi sababini tushunib etadi va bor vujudi bilan bu fojiani iroda kuchi orqali engishga intiladi. Agar millatning tili, dini, qadriyatlari yo`q qilinsa, ohir-oqibat bu millat-millat sifatida barham topishini yaxshi biladi.

Qissa janrining rivoji eng avvalo, mavzuning yangilanishida sezildi. Dastlab omma ongiga mustaqillik mafkurasini singdirish, istiqlol uchun kurashgan ajdodlarning qadrini kqtarish va qrniga qo`yishga harakat qilindi. Buning uchun 20-yillar voqealari—«bosmachilik» harakatini qayta tahlil etishga kirishildi. Endi «kim bosqinchi?» degan savolga javob topish kerak edi. Bu mavzu uchun yillar davomida bichilgan qolip buzildi. Sh.Xolmirzaev, T.Malik, M.Mahmudov, B.Murodali kabi yozuvchilar bu borada tashabbus ko`rsatdilar. Jumladan, T.Malikning «Qaldirg`och», «So`nggi o`q», «Chorrahadada qolgan odamlar», «Falak», M.Mahmudovning «Bog`don qashqiri», B.Murodalining «Ko`k to`nlilar» qissalarida bu mavzuning yangicha qirralari ochildi. «So`nggi o`q» qissasi T.Malikning tog`asi, sotsializm qamoqxonalari uzoq yillar azob chekkan, uch bora qamalib ham e`tiqodidan qaytmagan M.Ismoiliyga bag`ishlangan. qissa voqeasi aka-uka Olamgir va Jahongirlarning janjali, Daydidaradagi yakka chinor ostida kuz faslida, chinorning so`nggi bargiga tikilib, bir-birini otishga shayligini tasvirlash bilan boshlanadi. Jahongir otasining o`limiga akam aybdor, qotili deb uni duelga chaqirgan. Otasi Muhammadrizodan ko`p boylik qoladi, uni o`g`illariga teng bo`lib, bog`iga ko`mib qo`yadi. Bundan xabardor bo`lgan Olamgir bir kuni tunda ko`mgan erini tekshirib yurgan otasini otib qo`yadi, ammo boylikni topolmaydi. Buning ustiga bu paytda inqilob bo`lib, qishloqdagi ko`p odamlar jon saqlash uchun chet elga o`tib ketadilar. Bular orasida Olamgir ham o`zining va ukasi Jahongirning oilasini olib ketadi. Jahongir esa ushlanib qolganligi sababli qo`lga tushib, qizillarga qarshi kurashgan jinoyatchi sifatida qamaladi va surgun qilinadi.

Taqdir ularni uchrashtiradi. Jahongir qamoqdan qaytib qishloqda yashab yurgan paytda chet eldan akasi Olamgir Siddiq Sharipov bo`lib keladi. Bir kuni Daydidaradan uning qligini topadilar. Jahongir qotil sifatida qqlga olinadi. Usiz ham akasini qldirishni, qasos olishni niyat qilib yurgan Jahongir jinoyatni bo`yniga oladi. Ammo mayor Sanjar Solihovning xushyorlik bilan chuqurroq ish olib borishi tufayli Olamgirning haqiqiy qotili topiladi. Bu qashqardan kelgan, qishloqda tabib sifatida obro` qozongan, aslida qitmir, boylikka ega bo`lish niyatida yurgan «do`sti» Murodilla bo`lib chiqadi.

¹ Тошбой О, Холмирзаев Ш. Щар не истарсен, ызингда жам эрур. Саодат-1990 й №2-3 Б. 30.

Istiqlol davriga kelib roman janri jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Jamiyat hayotida ro'y berayotgan voqealar tezligi, zidiyatlarini, ko'lami bilan romannavislarni biroz shoshirib qo'ydi. Aslida roman hozirjavob janr emas. U voqealarning tinishi, saragi sarakka, puchagi puchakka ajralishini kutadi, voqelik ustida jiddiy mulohaza yuritishni talab qiladi. SHu boisdan istiqloq davrining ilk bosqichida roman janri o'z o'rnini adabiyotning hozirjavob janrlari bo'lgan she'riyat va publitsistiga bo'shatib berdi.

Zamonaviy mavzudagi romanlar orasida ayniqsa, T.Murodning «Otamdan qolgan dalalar», O.Muxtorning «Egilgan bosh», «Ming bir qiyofa», «Ko'zgu oldidagi odam», «Ffu», «Tepalikdagi xaroba», «Ayollar mamlakati va saltanati» kabi romanlari mashhur bo'ldi.

So'nggi yillarda dramaturgiya rivoji.

Mustaqillik sharofati bilan qadriyatlarimizni qadrlash, ulug'larimizni ulug'lash istagi dramaturglarimizda ham paydo bo'ldi. Bu borada dastlab olim va dramaturg I.Sulton tashabbus ko'rsatdi. U birinchi bo'lib istiqloq yo'lida nohaq qurbon qilingan xalq farzandi haqida «Abdulla Qodiriyning o'tgan kunlari» nomli dramasi yaratdi.

Cho'lpon tavalludining 100 yilligi munosabati bilan T.Nizomning «Cho'lpon» dramasi ham Andijon teatrida sahnalashtirilishi istiqloqimizning yana bir bayroqdori xotirasiga qo'yilgan xaykal bo'ldi. Unda ko'proq e'tibor Cho'lponning qamoqdagi hayoti, savol-javob manzarasi, shoirning qat'iyligi, xalq va millat ozodligi yo'lida jonini fido etishga tayyor turgan vatanparvar inson ko'rsatiladi. Bu dramalar shu kunlarimizning qadriga etishga, istiqloq oson ro'y bermaganligiga tomoshabinni ishonitiradi va mustaqillikning qadri oshiradi.

Mamlakatimizda o'zligimizni anglash borasida amalga oshirilayotgan xayrli tadbirlar ma'lum ma'noda badiiy adabiyotning rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, sohibqiron Amir Temurning 660 yilligi nishonlanishi munosabati bilan bu zoti sharif haqida bir necha yaxshi asarlar dunyoga keldi va avlodlari o'z bobokalonlarini yaxshiroq tanib oldilar. Bu jihatdan A.Oripovning «Sohibqiron» dramasi paydo bo'lishi adabiyotimizda katta voqea bo'ldi. Bu drama o'zbek ijodkorlari oldida hali buyuk tarixiy shaxslar faoliyatini yangicha idrok etib, tomoshabinlarga ko'rsatish, tarixiy jihatdan haqqoniy timsollarni yaratish vazifasi turganligini yana bir bor ko'rsatdi.

Tez sur'atlar bilan o'zgarayotgan hayot dramaturglarni biroz shoshirib ham qo'ydi. SHu kunning dolzarb muammolari yuzasidan keng tarqalgan ovozarlar va qarashlarni, fikr-mulohazalarni qahramonlar tilidan jar solib aytirish, bayon qilish yo'li bilan apil-tapil «zamonaviy» sahna asarlari yaratishga urinishlar harakati ro'y berdi.

Ehtimol, shuning uchundir dramaturgiyamizda dunyoga kelgan H.G'ulomning «Bir million mojarosi», Shukrulloning «Unsiz faryod», O'.Umarbekovning «Kurort», «Er yonganda», A.Ibrohimovning «Puch» dramalari shuhrat topolmadi, sahnadan tez tushib ketdi.

Shukrulloning 2 parda 7 ko'rinishdan iborat «Unsiz faryod» nomli she'riy fojeasi ham davrning g'oyat dolzarb masalasi—qo'shib yozishlar, o'zibo'larchilik, bir-biriga e'tiborsizlik, zarur paytda o'zni chetga olish va buning yomon oqibati haqidadir. Asarning umumiy mohiyatini drama qahramonlaridan biri, oddiy kolxozchi Komil ota tili bilan aytganda «bitta menmi, bitta o'zimmi? Ko'pning boshiga tushgan to'y deb sabr qilishning oqibati»da ma'naviy ko'r bo'lib qolish g'oyasi tashkil etadi. Ko'rinadiki, hikoya qilib berilmoqchi bo'lgan muammo juda muhim va dolzarb. Lekin muallif bu muammoni o'tkir badiiy konflikt, keskin harakat, jiddiy voqealar asosiga qurolmaydi. Masalan, o'sha oddiy kolxozchi Komil otaning boshiga og'ir ko'rgulik tushadi: nevarasi zaharlanib qladi, qizi Nasibaning eri kolxozning yaxshi mexenizatori o'zini osib qo'yadi, biroq bularning sababi ochilmaydi. o'quvchi – tomoshabin nega shunday bo'lganligini bilolmay qoladi. Komil ota ko'r bo'lib qoladi. Bu mudhish voqealarning ro'y berishiga kimlar sababchi bo'lganligi qorong'i bo'lib qolaveradi.

Adabiyotlar:

Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 1995.

Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda T. 1999.

Barkamol avlod orzusi. T. 1999.

XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T. 1999.
R.Qo`chqor. Qalb tabiati. «O`zAS», 29.03.1996.
I.Mirzo. Shavkat Rahmon she`riyati. «O`zAS», 11.04.1997.
K.Matyoqubov. Fikr bahsda tug`iladi. «O`zAS», 1991y. 15.03.
Y.Solijonov. Bir yilning qissalari. «O`zAS», 29.05.1992.
XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. Darslik. T, 1999y.
Y.Solijonov. Bir yilning qissalari. «O`zAS», 29.05.1992.
Uyg`onish taraddudi «Hikoyachilik haqida suhbat» «O`zAS»,18.09.1992.
Kamalak. Ilmiy-adabiy to`plam. T.,1991.
Adabiy turlar va janrlar. 3 jildlik. T., 1991-1994.
Adabiyot nazariyasi. II jildlik. T., 1978-1979.
I.Sulton. Adabiyot nazariyasi. Darslik. T., 1986.
A.Zununov,N.Hotamov. Adabiyot nazariyasi. T.1982.